VOLUME 02. ISSUE 05
MAY 2025

"CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH"

-Applied sciences
-Chemical sciences
-Biological sciences
-Geography sciences
-Physical sciences
-Medical sciences
-Ecological sciences
-Pedagogical sciences
-Psychological sciences
-Mathematical sciences
-Philological sciences

Research Science and Innovation House

www.universalpublishings.com

«**CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH**» ilmiy konferensiyasi

31.05.2025-yil.

Ushbu to‘plamda «**CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH**» ilmiy konferensiyasi 2025-yil 2-soni 5-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga **DOI** unikal raqami biriktirilib, **Zenodo, Open Aire, Google Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro‘yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

Asos: O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Konferensiya materiallaridan professor-o‘qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktarantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o‘qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin. Eslatma! Konferensiya materiallari to‘plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

“RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION HOUSE” MCHJ

TAHRIRIYAT

Bosh muharrir, Matsaidova Sayyora Xudayberganovna, Urganch davlat universiteti, Geografiya kafedrasi, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul kotib: Sobirov Javoxir Xayrulla o‘g‘li O‘zbekiston Milliy universiteti 1-bosqich magistranti

Nashrga tayyorlovchi: Eshqorayev Samariddin Sadridin o‘g‘li Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi.

TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI

1. **Rahimov Rahimboy Atajanovich,** Urganch davlat universiteti professori, Texnika fanlari doktori, Rossiya tabiiy fanlar akademiyasining Akademigi.
2. **Isayev Sabirjan Xusanbayevich**, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti, Irrigatsiya va melioratsiya kafedrasi, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor.
3. **Matyakubov Baxtiyar Shamratovich**, “Toshkent irrigasiya va qishloq xo‘jaligini mexanizasiyalash muxandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti, “Irrigasiya va melioratsiya” kafedrasi professori, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor.
4. **Norboyeva Umida Toshtemirovna,** Buxoro davlat universiteti, Ekologiya va geografiya kafedrasi professori, DSc (Biologiya fanlari), professor.
5. **Matsaidova Sayyora Xudayberganovna**, Urganch davlat universiteti, Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti, Geografiya kafedrasi, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.
6. **Xamroyev Muxtor Ozodovich**, Urganch davlat universiteti, Geografiya kafedrasi, Geografiya fanlari nomzodi, dotsent.
7. **Matchanov Otabek Jumanazarovich** Urganch Davlat Universiteti, Texnika fakulteti Geodeziya, Kartografiya, kafedrasi Dotsenti. Yo‘nalish - Tabiiy Geografiya.
8. **Djumaniyazava Muhayyo Xusinovna**, Urganch davlat Universiteti Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

9. **Djumayev Mamanazar Irgashevich** Pedagogika fanlari nomzodi, professor Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta’limda matematika va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi , professori p.f.n.

10. **Qandov Bahodir Mirzaevich** Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Chirchiq davlat pedagogika universiteti gumanitar fanlar fakulteti milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasi PhD, dotsenti.

11. **Samandarov Ergash Iskandarovich**, Urganch davlat universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti Ekologiya va xayot faoliyati xavfsizligi kafedrasi, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, dosent.

12. **Egamov Baxtiyor Nurmetovich**, Urganch davlat universiteti, “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.

13. **Rajabov Alibek Xushnudbekovich**, Urganch davlat universiteti, Iqtisodiyot kafedrasi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

14. **Babajanova Sanabar Yuldashbayevna,** Urganch davlat universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti “Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi” kafedrasi,qishloq xo‘jalik fanlari bo‘yicha falsafa doktori-PhD.,dotsent.

15. **Masharipov Adamboy Atanazarovich,** Urganch davlat universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti “Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi” kafedrasi dotsenti.

16. **Ismoilova Himoyat Matnazarovna**, Urganch davlat universiteti, Kimyo kafedrasi, kimyo fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent.

17. **Ismayilova Intizar**, Urganch davlat Universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti Biologiya kafedrasi, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, dotsent.

18. **Razakova Rayxan Saylaubekovna** Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD.

19. **Ataullayev Zokir Maxsudovich**, Urganch davlat universiteti, kimyo kafedrasi, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), kimyo kafedrasi dotsenti.

20. **Raximova Xolisxon Maksudovna**, Urganch davlat universiteti, Biologiya kafedrasi, biologiya fanlari falsafa doktori (PhD) , dotsent.

BO‘LAJAK CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK O‘QITUVCHILARINING IJODKORLIK QOBILIYATLARINI SHAKILLANTIRISHDA O‘QUV LOYIHASI USULINING XUSUSIYATLARI

Obidov Sherzod Shovkat o‘g‘li
Alfraganus universiteti

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, o‘quv loyihasi metodining bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan. Muallif loyiha asosidagi o‘qitish talabalarning mustaqil, erkin fikrlaydigan va yangilikka intiluvchi shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qilishini asoslab beradi. Tadqiqotda o‘quv loyihasi metodining bosqichlari, afzalliklari va u orqali rivojlanuvchi ijodiy kompetensiyalar amaliy misollar bilan yoritilgan.

Kalit so‘zlar

Ijodkorlik, o‘quv loyihasi metodi, boshlang‘ich tayyorgarlik, chaqiruvga qadar tayyorgarlik, mustaqil fikrlash, kreativlik, kasbiy kompetensiya.

Kirish

Ta’limning innovatsion bosqichida o‘qituvchi shaxsini har tomonlama tayyorlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida bo‘lgan pedagoglar uchun ijodkorlik — bu faqat g‘oyalarni ishlab chiqish emas, balki o‘quvchilarda ham ijodiy fikrlashni shakllantira oladigan metodlarni qo‘llashdir.

Zamonaviy o‘quv yondashuvlari orasida loyiha metodi alohida o‘rin tutadi. Bu metodning asosiy ustunligi — o‘quvchining shaxsiy faoliyatini faollashtirish, uning mustaqil, erkin va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdir. Shu bois, pedagogik kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarida o‘quv loyihasi metodidan foydalanish ijodiy pedagoglarni shakllantirishda samarali vositadir.

Asosiy mazmun

O‘quv loyihasi metodi haqida umumiy tushuncha

O‘quv loyihasi — bu muammoni aniqlash, uni tahlil qilish, tadqiq qilish va amaliy yechim topish jarayoniga yo‘naltirilgan faoliyatdir. Bunda o‘quvchi faqat bilim oluvchi emas, balki yangi bilimni yaratuvchi sub’ekt sifatida namoyon bo‘ladi.

A.V. Khutorskoyning fikricha, loyiha metodi orqali o‘rgatuvchi ta’limdan o‘rgatuvchi-o‘rganuvchi hamkorlikdagi ijodiy faoliyatga o‘tiladi. Bunday yondashuv o‘qituvchilik faoliyatiga tayyorlanayotgan talabaning kasbiy identifikatsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi jihatlar

Loyiha metodini qo‘llash natijasida quyidagi ijodiy kompetensiyalar shakllanadi:

- Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ularning yechimini topish;
- Yangi g‘oyalarni ilgari surish va ularni himoya qilish;
- O‘z faoliyatini rejalashtirish va baholash;
- O‘rganuvchilarning individual qiziqishlari asosida ish olib borish;
- Jamoaviy va individual shakllarda ishlash.

Mazkur metod, ayniqsa, boshlang‘ich harbiy tayyorgarlik kabi mas’uliyatli fanlarda o‘qituvchidan didaktik aniqlik, kommunikativlik va tashabbuskorlikni talab qiladi. Shunday holatlarda loyiha metodi o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi va har bir darsni yangicha rejalashtirishiga zamin yaratadi.

Tajriba asosida olingan natijalar

Tadqiqot davomida 110 nafar Guliston Davlat Pedagogika Instituti, 100 nafar Buxoro Davlat Universiteti, 100 nafar Qo‘qon Davlat Universiteti talabalari o‘rtasida o‘quv loyihasi metodining ijodiy qobiliyatlarga ta’siri o‘rganildi. Eksperimental guruhda ishtirokchilar loyiha metodi asosida mashg‘ulotlar olib bordi, nazorat guruhida esa an’anaviy yondashuv saqlab qolindi.

Natijada eksperimental guruh talabalari quyidagi yutuqlarga erishdi:

- Mustaqil ishlanma va metodik qo‘llanmalarni yaratishda faol bo‘lishdi;
- Yangi mavzularni kreativ tarzda talqin qilishdi;
- O‘quvchilarga ijodiy topshiriqlar ishlab chiqishdi;
- Interaktiv metodlarni qo‘llash ko‘nikmalari shakllandi.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv loyihasi metodi bo‘lajak boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchilarining kasbiy-ijodiy salohiyatini oshirishda samarali vositadir. Bu metod talabalarning faolligini, mustaqilligini va mas’uliyatini oshirish bilan birga, ularda kasbiy refleksiyani rivojlantiradi.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish nafaqat pedagogik jarayonda muvaffaqiyatga erishishga, balki ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga ham xizmat qiladi. Shunday ekan, pedagogik oliy ta’lim muassasalarida loyiha asosida o‘qitish mexanizmlarini tizimli yo‘lga qo‘yish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Khutorskoy A.V. “Kompetentnostnyy podkhod v obrazovanii”, Moskva, 2003.

2. Davydov V.V. “Problemy razvitiya myshleniya v shkolnom vozraste”, 1986.

3. Sobirova M. “Innovatsion metodlar orqali pedagogik faoliyatni rivojlantirish”, Toshkent, 2021.

4. Jo‘rayev N. “Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish”, Samarqand, 2020.

5. Luk A.N. “Psikhologiya tvorchestva”, Moskva, 1976.

6. Talyzina N.F. “Upravleniye protsessom usvoyeniya znaniy”, Moskva, 1975.

7. Yo‘ldoshev H. “O‘qituvchining innovatsion kompetensiyasi”, Andijon, 2019.

Research Science and Innovation House

Анализ текущего состояния и факторов развития торговых отношений между Казахстаном и Узбекистаном

Избасханова Жибек Узакбайкызы
Ташкентский Государственный Экономический Университет
Студент магистратуры второго курса

Аннотация: Целью данной статьи является анализ современного этапа торгово-экономических отношений Республики Казахстан и Республики Узбекистан. Изучаются основные тенденции и структурные характеристики динамики взаимного товарооборота за последнее десятилетие. Анализируется товарная структура экспорта и импорта, уровень диверсификации. Диверсификация экспорта-импорта оценивается индексом Херфиндаля-Хиршмана. В статье определяются основные экономические, институциональные и инфраструктурные и барьерные факторы, стимулирующие и сдерживающие двустороннюю торговлю между двумя странами. Особое внимание уделяется роли политического диалога, совместных инфраструктурных проектов, существующих торговых барьеров. Результаты исследования показывают высокий потенциал взаимного роста торговли, однако его реализация зависит от преодоления ряда барьеров и совершенствования механизмов сотрудничества.

Ключевые слова: Казахстан, Узбекистан, международная торговля, Центральная Азия, торговые отношения, динамика торговли, структура торговли, торговые барьеры, экономическое сотрудничество, региональная интеграция.

Research Science and Innovation House

Введение

В эпоху глобальной экономической нестабильности и трансформации международных цепочек создания стоимости региональное сотрудничество весьма важно для стран Центральной Азии. Региональная стабильность и движущая сила экономического роста - это тенденции и экономические отношения между Казахстаном и Узбекистаном, двумя крупнейшими экономиками региона. Существуют объективные предпосылки более глубокого

сотрудничества между двумя сторонами: общая протяженная граница, длительные исторические экономические связи, культурная близость и взаимодополнение экономических структур. Конечно, наиболее активный диалог и практика сотрудничества между Астаной и Ташкентом наблюдались особенно после 2016-2017 годов, о чем свидетельствует явный рост взаимной торговли. В обеих странах проводятся масштабные экономические реформы, направленные на либерализацию, улучшение инвестиционного климата и диверсификацию национальной экономики, способствующие расширению торговых отношений. Тем не менее, эксперты подчеркивают, что торговое сотрудничество еще очень далеко от имеющегося в настоящее время потенциала. Структурные диспропорции, инфраструктурные ограничения и регулятивные барьеры по-прежнему являются сдерживающими факторами для полной реализации потенциала сотрудничества. С другой стороны, импорт выражается в необходимости проведения комплексного, глубокого исследования современных торговых отношений между Казахстаном и Узбекистаном, выявления и систематизации факторов, определяющих ее динамику и структуру, выявления ключевых проблем и барьеров. Актуальность данного исследования заключается в том, что оно направлено на комплексный анализ текущего состояния двусторонней торговли, выявление факторов, влияющих на ее развитие, и определение проблем, препятствующих полной реализации потенциала взаимодействия. Основная цель статьи – проанализировать динамику, структуру и важные факторы, влияющие на развитие торговых отношений между Казахстаном и Узбекистаном на современном этапе.

Анализ литературы

Изучением вопросов торгово-экономического сотрудничества Казахстана и Узбекистана занимается большое количество отечественных и зарубежных исследователей и международных организаций. В работах Рахимова М.А., Султанова Б., Поморски Р., Винокурова Э.Ю. подчеркивается стратегическая роль двусторонних отношений для устойчивого развития Центральной Азии и построения авторитетного механизма региональной интеграции [1,3]. Динамика и структура товарооборота анализируются с уделением значительного внимания анализу этой переменной, как правило, стандартными статистическими методами [2]. Активно применяется использование эконометрических подходов, в частности гравитационных моделей, для оценки нереализованного торгового

потенциала. Например, результаты исследований Поморски Р. и Исмаилова А.А. подтверждают большую величину положительного влияния таких факторов, как размеры экономик (ВВП), наличие общей границы и отрицательное влияние удаленности [4]. Также, они показывают реальность посредством более низкого фактического товарооборота, чем прогнозируемый, что существуют неучтенные торговые барьеры или бездействие торговой политики.

Анализ торговых барьеров является предметом особой области исследований. Эксперты Всемирного банка, Азиатского банка развития и Евразийской экономической комиссии (ЕЭК) ООН систематизируют основные препятствия, основанные на нетарифных мерах (НТМ), такие как сложные таможенные процедуры, сертификация в рамках технических регламентов и требования санитарных и фитосанитарных (СФС) норм [5,6,7]. Отмечено, что основным сдерживающим фактором являются нетарифные меры, а не тарифы (которые относительно низкие) [10]. Исследования также подчеркивают проблемы в транспортно-логистической сфере: низкие транспортно-логистические мощности на пограничных переходах, высокие логистические издержки, необходимость модернизации инфраструктуры [5,16]. Кроме того, в статье рассматривается влияние членства стран в интеграционных объединениях (членство Казахстана в Евразийском Экономическом Союзе (ЕАЭС), статус наблюдателя в ЕАЭС у Узбекистана и перспективы вступления в Всемирную торговую организацию (ВТО) [6,12,17]. Проводится анализ как возможностей - доступ к рынкам, гармонизация стандартов, так же и трудностей (необходимость адаптации, возможные отклонения в торговых потоках). Однако, несмотря на значительное количество публикаций, все еще требуется углубленное исследование, направленное на объединение качественного анализа институциональных факторов, неформальных практик и влияния недавних политических и экономических преобразований на динамику и структуру торговли между Казахстаном и Узбекистаном, с количественным анализом текущих данных. Я постараюсь восполнить часть этого пробела этой статьей.

Результаты

Положительная динамика взаимного товарооборота подтверждается анализом официальных статистических данных национальных ведомств Казахстана и Узбекистана, международных баз данных (UN Comtrade, ITC) за 2014–2024 годы [18,20]. Если в 2014–2016 годах объем торговли колебался в

пределах 1,5–2 млрд долларов США, то после 2017 года наблюдается устойчивый рост. Пиковые значения были достигнуты в 2022–2023 годах, когда товарооборот превысил отметку в 5 млрд долларов США, то есть более чем в два раза превысил пик середины прошлого десятилетия. Кроме того, оценивается, что среднегодовой прирост за период 2017–2023 годов составит около 15–20%. Тем не менее, в начале 2024 года темпы роста несколько замедлились (по предварительным оценкам, на 5–7%), хотя не исключено, что на это повлиял эффект высокой базы, а также состояние мировой экономики и насыщенность по некоторым товарным позициям [8,9]. Казахстан обеспечил положительный скачок торгового баланса за весь период, но размер казахстанских профицитов сокращался по мере более быстрого роста узбекского экспорта (около 25% в год по сравнению со средним темпом в 15% в год по казахстанскому экспорту в Узбекистан в 2017–2023 годах).

Также была проведена оценка товарной структуры экспорта Казахстана в Узбекистан, по которой установлено, что лидирующие позиции по-прежнему занимают сырье и полуфабрикаты. Ключевые позиции занимают минеральные продукты (включая нефть, газ, уголь), металлы и изделия из них (черные и цветные), химическая продукция (удобрения, пластмассы) и продовольственные товары и сельскохозяйственное сырье (пшеница, мука, ячмень) [9,18]. На долю этих групп в общей сложности приходится около 70-75% казахстанского экспорта. Однако наблюдается постепенный рост поставок продукции с более высокой добавленной стоимостью (менее 10% от стоимости всего экспортируемого продукта), например, некоторых видов машин и оборудования, транспортных средств. Хотя их специфика несколько иная, их экспорт в Казахстан также более распррстранен. Основу составляют текстильные изделия (текстиль и текстильные изделия; одежда, пряжа, текстильные изделия), различная плодоовощная продукция (свежая и переработанная), химическая продукция (удобрения), пластмассы, услуги (транспортные, строительные, туристические), а также некоторые виды промышленной продукции (автомобили и комплектующие, бытовая техника) [8,18]. За последние годы предложение промышленных товаров и услуг значительно возросло. Индекс концентрации товаров Херфиндаля-Хиршмана (HHI), рассчитанный для экспортной корзины Казахстана в Узбекистан, умеренно сконцентрирован (HHI составляет ≈ 0,15-0,20), в то время как экспортная корзина Узбекистана в Казахстан демонстрирует

тенденцию к большей распространённости (HHI составляет ≈ 0,10-0,12). Это означает, что экспорт Казахстана, таким образом, более уязвим, когда речь идет о колебаниях цен на сырьевых рынках.

Систематизация факторов влияния приводит к проведению следующих групп:

Стимулирующие факторы:

- Регулярные встречи лидеров, подписание дорожных карт, соглашений о промышленной кооперации, создание Межправительственной комиссии как механизма решения важных текущих вопросов, которые сложно устранить по этому каналу [19].
- Географическая близость и инфраструктура: Общая граница (более 2300 км), развитие международных транспортных коридоров (транспортный коридор Европа – Кавказ – Азия (ТРАСЕКА), Центрально-азиатское региональное экономическое сотрудничество (ЦАРЭС), модернизация и строительство новых автомобильных и железных дорог, логистических центров (Международный центр приграничного сотрудничества - МЦПС "Центральная Азия") [16].
- Различия в обеспеченности ресурсами: энергетические ресурсы, металлы в Казахстане; трудовые ресурсы, возможность выращивания определенных культур, климатические условия для агропромышленного комплекса в Узбекистане, становятся основой для взаимовыгодного обмена [13].
- Экономические реформы: Либерализация валютного регулирования в Узбекистане с 2017 года, улучшение делового климата и цифровизация государственных услуг в обоих государствах (11).

Ограничения (барьеры):

Нетарифные барьеры: Наиболее существенная проблема. Сложности и задержки в таможенном оформлении, дублирование требований сертификации, применение не всегда прозрачных санитарных и фитосанитарных (СФС) мер, технические барьеры (несоблюдение стандартов), трудности с возвратом НДС экспортерам [14].

Транспортно-логистические проблемы: Узкие места на пограничных переходах (прежде всего, автотранспорт), более высокая стоимость логистических услуг, чем на других маршрутах, низкий уровень цифровизации транспортных документов [16].

Структурные проблемы: Недостаточная диверсификация экспорта (особенно для Казахстана), слабая вовлеченность в региональные и мировые цепочки создания стоимости, недостаточный уровень развития промышленной кооперации [15].

Институциональные различия: Сохраняющиеся различия в законодательстве (особенно в сфере технического регулирования, защиты прав инвесторов), недостаточная координация между ведомствами [7].

Заключение

Проведенный анализ дает основания сделать вывод о том, что торгово-экономические отношения между Казахстаном и Узбекистаном за последнее десятилетие перешли в новую качественную фазу, динамично развиваются, углубляя сотрудничество. Взаимное дополнение экономик и реализация инфраструктурных проектов также имели преимущество, поскольку им способствовали благоприятная политическая обстановка и объективные экономические факторы. Были отмечены значительно возросшие объемы взаимной торговли, а также позитивные сдвиги в структуре узбекского экспорта в сторону диверсификации структуры экспорта.

Однако исследование также выявило множество оставшихся проблем и барьеров, блокирующих эффективное использование огромного потенциала двусторонней торговли. Среди них наиболее важными являются нетарифные ограничения, возникающие из-за сложности административных процедур, и «узкие места» транспортно-логистической системы. Это также сдерживает дальнейший рост из-за недостаточного распространения казахстанского экспорта и слабого развития промышленной кооперации.

Обе страны должны предпринять скоординированные усилия для системного устранения выявленных барьеров, чтобы направить торгово-экономическое сотрудничество на путь устойчивого и сбалансированного роста. Если выделить приоритетные задачи, то это: дальнейшее упрощение и гармонизация таможенных и пограничных процедур (и цифровизация в полном объеме), взаимное признание норм и сертификатов, инвестиции в растущую транспортную инфраструктуру, активное стимулирование диверсификации торговли за счет поддержки не сырьевого экспорта и совместных предприятий. Решение этих задач не только углубит двусторонние экономические отношения,

но и существенно поможет повысить уровень стратегической конкурентоспособности и устойчивости всего региона Центральной Азии.

Список использованной литературы

1. Рахимов М.А. Экономическая интеграция стран Центральной Азии: проблемы и перспективы // Экономическое обозрение. – Ташкент, 2021. – №5. – С. 18-25.
2. Центр экономических исследований и реформ (ЦЭИР). Внешняя торговля Узбекистана: анализ динамики и структуры. – Ташкент: ЦЭИР, 2024.
3. Sultanov B.K. Kazakhstan and Uzbekistan: Strategic Partnership in Central Asia // Central Asia and the Caucasus. – 2020. – Vol. 21, Issue 3. – pp. 78-89.
4. Pomorski R. Gravity Model Analysis of Trade Potential in Central Asia // Eurasian Economic Review. – 2019. – Vol. 9, Issue 4. – pp. 485-505.
5. Азиатский банк развития (АБР). Торговля и транспортная связанность в Центральной Азии: вызовы и возможности. – Манила: АБР, 2022. – 150 с.
6. Евразийская экономическая комиссия (ЕЭК). Влияние функционирования ЕАЭС на торговлю государств-членов с третьими странами. Аналитический доклад. – Москва: ЕЭК, 2021.
7. Всемирный банк. Doing Business 2020: Comparing Business Regulation in 190 Economies. – Washington, DC: World Bank, 2020.
8. Агентство по статистике при Президенте Республики Узбекистан. Внешняя торговля Республики Узбекистан. URL: www.stat.uz
9. Бюро национальной статистики Агентства по стратегическому планированию и реформам Республики Казахстан. Внешняя и взаимная торговля Республики Казахстан. URL: www.stat.gov.kz
10. Европейская экономическая комиссия ООН (ЕЭК ООН). Исследование по регуляторным и процедурным барьерам в торговле: Казахстан и Узбекистан. – Женева: ЕЭК ООН, 2021.
11. Министерство инвестиций, промышленности и торговли Республики Узбекистан. Отчеты о ходе реформ и развитии внешней торговли. URL: www.mipt.uz
12. Винокуров Е.Ю. Экономика ЕАЭС: эффекты и перспективы интеграции. – Москва: ЕАБР, 2020.

13. Исмаилов А.А. Оценка потенциала взаимной торговли стран Центральной Азии с использованием гравитационной модели // Вестник ТГЭУ. – Ташкент, 2023. – №2. – С. 115-128.

14. International Trade Centre (ITC). Non-Tariff Measures Business Survey: Uzbekistan. – Geneva: ITC, 2020.

15. Linn J. F. Central Asia: A Decade of Development Challenges // ADBI Working Paper Series. – No. 987. – Tokyo: ADBI, 2019.

16. Азиатский банк развития (АБР). Программа Центральноазиатского регионального экономического сотрудничества (ЦАРЭС): Транспортная стратегия 2030. – Манила: АБР, 2019.

17. Rakhmatullaev Sh. Uzbekistan's Accession to the WTO: Challenges and Opportunities for Regional Trade // Journal of Eurasian Studies. – 2022. – Vol. 13, Issue 1. – pp. 45-58.

18. UN Comtrade Database. URL: comtrade.un.org

19. International Trade Centre (ITC). Trade Map. URL: www.trademap.org

Research Science and Innovation House

Rasmiylashtirilmagan nikoh munosabatlarining psixologik va ijtimoiy mohiyati

Nazokat Xudoyqulova
Yoshlar muammolarini o‘rganish va Istiqbolli kadrlar tayyorlash instituti 3-kurs tayanch doktoranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda tobora ko‘payib borayotgan rasmiylashtirilmagan nikoh munosabatlarining psixologik va ijtimoiy mohiyati tahlil qilinadi. Shaxsiy erkinlikka intilish, oila institutiga nisbatan ishonchning pasayishi, iqtisodiy qiyinchiliklar hamda madaniy-axloqiy qadriyatlarning o‘zgarishi bunday munosabatlarning shakllanishiga olib keluvchi asosiy omillar sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Psixologik jihatdan bunday oilalarda emotsional beqarorlik, ishonchsizlik va xavfsizlikning yetishmasligi kabi holatlar kuzatiladi. Farzandlar tarbiyasida ota-onalik rollarining noaniqligi esa ularning ijtimoiy maqomi va ruhiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Maqolada Erikson, Bovlbi va Maslou nazariyalari asosida rasmiy nikohsiz munosabatlarning psixososial oqibatlari yoritilgan. Shuningdek, sotsiologik yondashuvlar orqali bu jarayonning jamiyatdagi oila qadriyatlariga bo‘lgan ta’siri ham tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Rasmiylashtirilmagan nikoh, psixologik beqarorlik, shaxsiy erkinlik, ijtimoiy ishonch, bog‘lanish nazariyasi, zamonaviy oila modeli.

Rasmiy nikohsiz yashovchi juftliklar soni zamonaviy jamiyatda sezilarli darajada ortib bormoqda. Bu holat “fuqarolik nikohi”, “faktik oila” yoki “nikohsiz birga yashash” deb atalib, rasmiy-huquqiy nikoh rasmiylashtirilmagan bo‘lsa-da, amalda oilaviy munosabatga ega bo‘lgan erkak va ayollar o‘rtasidagi birgalikda yashash shaklidir. Mazkur munosabatlar jamiyatda an’anaviy oila modelidan farqli holda, turli ijtimoiy, psixologik va madaniy omillar ta’sirida shakllanadi.

Bunday munosabatlar shakllanishiga olib keluvchi asosiy sabablar qatorida, eng avvalo, shaxsiy erkinlikka bo‘lgan intilish turadi. Zamonaviy yoshlar uchun erkinlik — nafaqat iqtisodiy yoki ijtimoiy mustaqillik, balki hayot tarzini, munosabat shaklini va shaxsiy qarorlarni o‘z ixtiyoriga binoan belgilash imkoniyatidir. Bu tendensiya jamiyatda individualizm kuchayishi, kollektiv qadriyatlardan chekinish va shaxsiy manfaatlar ustuvorligining ortishi bilan chambarchas bog‘liq. Nikoh esa ko‘pchilik

yoshlar ongida huquqiy, iqtisodiy va axloqiy majburiyatlar majmuasi sifatida talqin qilinadi. Shuning uchun ular ushbu institutni “shaxsiy erkinlikni cheklovchi tizim” deb ko‘rib, undan qochishga harakat qiladilar.

Shu bilan birga, oila institutiga bo‘lgan ijtimoiy ishonchning susayishi ham rasmiy nikohga bo‘lgan munosabatning o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Bu holat ko‘p jihatdan ajrimlar sonining ortib borishi, oilaviy nizolar, zo‘ravonlik holatlari va OAVda bu masalalarning keng yoritilishi bilan bog‘liq. Ajrimlar sonining oshishi jamiyat ongida oilani beqaror, xavfli va zaif institut sifatida qabul qilishga olib keladi. Shuningdek, oilada ro‘y berayotgan ijtimoiy muammolar yosh avlodga salbiy psixologik ta’sir ko‘rsatib, ularni rasmiy nikohdan tiyilishga undaydi.

Iqtisodiy omillar esa bu holatning yana bir muhim jihatini tashkil qiladi. Rasmiy nikohni rasmiylashtirish uchun zarur bo‘lgan to‘y xarajatlari, uy-joy masalalari va moliyaviy barqarorlikning yetishmasligi ko‘plab yoshlar uchun to‘siq bo‘lib xizmat qilmoqda. Ba’zida juftliklar nikohni moliyaviy sabablar bilan bog‘liq holda kechiktiradi yoki butunlay rad etadi. Bu holatda ular birga yashashni huquqiy majburiyatsiz, ammo hissiy jihatdan yaqin munosabat shaklida davom ettirishni afzal ko‘radilar.

Axloqiy va madaniy qadriyatlarning o‘zgarishi ham bu masalada muhim rol o‘ynaydi. Globallashuv, ommaviy madaniyat va internet tarmoqlari orqali g‘arbiy jamiyatlarning nikohsiz yashash modelini targ‘ib qiluvchi namunalar tobora ko‘proq yoshlar ongiga singib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, an’anaviy oila modelining qadrsizlanishiga va nikohsiz munosabatlarni ijtimoiy jihatdan maqbullashtirishga olib kelmoqda. Shu tariqa, rasmiy nikohga ehtiyoj sezilmasligi, uni muqobil munosabatlar bilan almashtirish tendensiyasi kuchaymoqda.

Psixologik nuqtayi nazardan, bunday nikohsiz munosabatlar turmush barqarorligiga salbiy ta’sir qiluvchi omillarni o‘zida mujassam etadi. Juftliklar o‘rtasida rasmiy kafolatning yo‘qligi ularda o‘zaro ishonchni mustahkamlashni qiyinlashtiradi. Har qanday nizoli holatda rasmiy asoslarga ega bo‘lmaslik munosabatning uzilishi xavfini kuchaytiradi. Bu esa juftliklarning emotsional beqarorligiga, psixologik xavotirga va doimiy ruhiy zo‘riqishga olib keladi.

Ushbu holat ayniqsa farzandli oilalarda jiddiy muammolarni yuzaga keltiradi. Ota-onaning huquqiy maqomi noaniqligi, bolalarning jamiyatdagi oilaviy maqomini aniq ifodalab berishdagi murakkabliklar, ularning ijtimoiy identifikatsiyasiga salbiy

ta’sir qiladi. Bu esa ularning ruhiy rivojlanishida xavotir, o‘z-o‘zini qadrlamaslik, tashlanish hissi, va hattoki depressiv holatlarga olib kelishi mumkin.

Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, voyaga yetgan shaxslar hayotlarining muhim bosqichida “yaqinlik va izolyatsiya” o‘rtasida muvozanatni topishi kerak. Rasmiy nikohsiz munosabatlarda ushbu yaqinlik hissi to‘liq shakllanmaydi, chunki taraflar rasmiy majburiyatlardan qochgan holda, chuqur emotsional bog‘lanishdan ham qochishga moyil bo‘ladi. Bu esa izolyatsiya hissining kuchayishiga, yolg‘izlik va beqarorlik kayfiyatining ortishiga olib keladi.

Bovlbiyning bog‘lanish nazariyasiga binoan, bolaning psixologik rivoji uchun xavfsiz va izchil emotsional bog‘lanish muhim ahamiyatga ega. Rasmiy nikohsiz oilalarda esa bu bog‘lanish doimiy emas, chunki ota-onaning o‘zaro munosabatlari huquqiy kafolatga ega emas. Natijada bola hayotida barqaror ota-onalik modeli shakllanmaydi, bu esa uning ijtimoiy moslashuvi va ruhiy salomatligiga zarar yetkazadi.

Maslovning ehtiyojlar iyerarxiyasida ko‘rsatilgan xavfsizlik, ijtimoiy tegishlilik va muhabbat ehtiyojlari nikohsiz munosabatlarda doimiy ravishda tahdid ostida bo‘ladi. Bu ehtiyojlar to‘liq qondirilmagani sababli shaxsda doimiy xavotir, ijtimoiy chekinish, o‘ziga nisbatan ishonchsizlik va psixologik tangliklar yuzaga keladi. Ushbu holatlar uzoq muddatda depressiv holatlar, shaxslararo ziddiyatlar va ijtimoiy izolyatsiyaga olib kelishi mumkin.

Sotsiologik yondashuv nuqtayi nazaridan esa, fuqarolik nikohi tendensiyasi jamiyatdagi ijtimoiy institutlar transformatsiyasi bilan bevosita bog‘liq. Nikoh va oila endilikda ko‘plab jamiyatlarda shaxsiy tanlov, emotsional qoniqish va vaqtinchalik qulaylik mezonlari asosida shakllanmoqda. Bu esa oila institutining barqarorligini zaiflashtiradi, ijtimoiy rishtalarni bo‘shashtiradi va kollektiv qadriyatlar o‘rniga individual maqsadlarni ustun qo‘yishga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, rasmiylashtirilmagan nikoh munosabatlari – zamonaviy jamiyatning murakkab sotsiopsixologik hodisasi bo‘lib, uning ortida chuqur psixologik, iqtisodiy, madaniy va sotsiologik omillar yotadi. Bunday munosabatlarni chuqur tahlil qilish, ularning jamiyat va shaxs psixologiyasiga ta’sirini aniqlash, shuningdek, ularni boshqarish va muvofiqlashtirishga doir kompleks strategiyalarni ishlab chiqish – zamonaviy ijtimoiy fanlarning dolzarb vazifasidir.

Xulosa qilib aytganda, rasmiylashtirilmagan nikoh munosabatlari zamonaviy jamiyatda barqaror oilaviy qadriyatlarning o‘zgarishi, psixologik beqarorlik, farzand

tarbiyasida murakkablik va ijtimoiy institutsional zaiflashuvga olib keluvchi muhim omillardandir. Ushbu munosabatlarni sosiologik, psixologik va huquqiy nuqtayi nazardan chuqur o‘rganish, ularga nisbatan kompleks yondashuv asosida profilaktik choralarni ishlab chiqish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. – Москва: АСТ, 2006. – 350 с.
2. Боулби Д. Привязанность. Природа родительской любви. – Санкт-Петербург: Питер, 2010. – 576 с.
3. Маслоу А. Мотивация и личность. – Санкт-Петербург: Питер, 2008. – 352 с.
4. Бауман З. Текучая современность. – Москва: Весь Мир, 2008. – 240 с.
5. Бек У. Общество риска: На пути к другому модерну. – Москва: Прогресс-Традиция, 2000. – 384 с.
6. Черникова И. В., Григорьева М. В. Психологические аспекты внебрачного сожительства как формы современной семьи // Вестник Томского государственного университета. Серия: Психология. – 2020. – №52. – С. 94–102.
7. Исламова Р. Х. Изменение ценностей семьи в условиях трансформации общества // Общество и власть. – 2018. – №3(71). – С. 93–99.
8. Гидденс Э. Социология. – Москва: Эдиториал УРСС, 1999. – 703 с.
9. Абдуллаева Г. Т. О влиянии институциональных факторов на решение молодежи о заключении брака // Социологические исследования. – 2022. – №5. – С. 107–115.
10. Назаров Ш. Р. Психологик барқарорлик ва ёшлар: замонавий чақириқлар // Ёш олим. – 2021. – №6(84). – Б. 112–117.
11. Назарова Ф.Х. Никоҳ институтига нисбатан ёшлар муносабатининг психосоциологик таҳлили // ЎзР ФА Хабарлари. – 2020. – №3. – Б. 45–51.
12. Clarke, L., & Jensen, T. M. (2019). Cohabitation and child outcomes: An overview. *Journal of Family Theory & Review*, 11(3), 416–432.
13. Smock, P. J. (2000). Cohabitation in the United States: An appraisal of research themes, findings, and implications. *Annual Review of Sociology*, 26, 1–20.
14. Perelli-Harris, B., & Gassen, N. S. (2012). How similar are cohabitation and marriage? Legal approaches to cohabitation across Western Europe. *Population and Development Review*, 38(3), 435–467.

QO‘QON XONLIGI SHAHARSOZLIGI TARAQQIYOTI

Guliston Davlat Universiteti
Psixologiya va ijtimoiy fanlar
fakulteti Tarix yo‘nalishi talabasi
Suyunov Ziyomuxammad

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qo‘qon xonligining shaharsozlik sohasidagi rivojlanish jarayonlari tarixiy-madaniy manbalar asosida tahlil qilinadi. Xonlik davridagi shaharlarning hududiy tuzilishi, me’moriy uslublar, infratuzilma, mudofaa tizimi va aholi ehtiyojlarini qondirishdagi shaharsozlik yondashuvlari o‘rganilgan. Ayniqsa, Qo‘qon, Marg‘ilon, Andijon kabi yirik shaharlarda bozorlar, madrasa, masjid va karvonsaroylarning joylashuvi hamda ularning shahar hayotidagi roli ilmiy asosda ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, xonlik davrida shaharlarni rejalashtirishdagi an’anaviy va innovatsion yondashuvlarning uyg‘unligi ham tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Madrasai Mir, Daxmai Shohon, Modarixon daxmasi, Xudoyorxon o‘rdasi, “Qo‘qandi Latif”, xazira.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta’kidlaganidek: «Farg‘ona viloyatining o‘ziga xos yana bir jihati bu yerda turli davrlarda barpo etilgan Madrasai Mir, Daxmai Shohon, Modarixon daxmasi, Xudoyorxon o‘rdasi kabi ko‘plab tarixiy obidalar, Poshshopirim, Bibi Ubayda, Sohibi Hidoya kabi muqaddas joylar xalqimizning yuksak me’morchilik san’ati, ajdodlarimizning yaratuvchilik salohiyatidan, piri komilligidan dalolat beradi».[1]

Olimlarning fikriga ko‘ra, Qo‘qon xonligi davrida keng ko‘lamli qurilish va irrigatsiya ishlari olib borilgan, shahar va qishloqlarni obodonlashtirishga katta ahamiyat berilgan. Bu vaqt mobaynida o‘nlab ko‘priklar, karvonsaroylar, hammomlar, yo‘llar, yuzlab masjidlar, madrasa va maqbaralar qurilgan.

[1] Каримов И. Халк ишончи олий масъулият 142-б.

Qo‘qon xonligining me’moriy obidalari va qisman ularning epigrafikasi A. Pisarchik, I. Borodina, I. Azimov, S. Vasilev, M. Yusupova, Y. Kavaxara, N. Abdulahatov va boshqa bir qator tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan.[2]

Qo‘qon xonligi davrida (1709-1876-yillar), Qo‘qon shahri Markaziy Osiyoning eng yirik siyosiy, iqtisodiy, madaniy markaziga aylandi. 1798-yili Olimxon davridan boshlab, mamlakatning nomi rasmiy ravishda “Qo‘qon xonligi” deb nomlandi va boshqaruvchi esa “Xon” deb atala boshlandi. Qo‘qon xoni Umarxon davrida, shahar “Qo‘qandi Latif” degan nisbatga ega bo‘ldi. Bu go‘zal, yoqimli va nafis shahar degan ma’noni anglatadi. Me’morchilik, hunarmandchilik, ilm-fan, savdo-sotiq nihoyatda rivojlandi[3].

Shaharsozlik madaniyati an’anaviy so‘ngi o‘rta asr shaharlari usulida shakllangan. Bitta umumiy markazga ega bo‘lgan shahriston aniq rejalangan bo‘lib, balandligi 7 metr keladigan qal’a devor bilan o‘ralgan. Devorlardan 12 ta darvoza ochilgan: Toshkent, Qudug‘lik, G‘oziyog‘lik, Xo‘jand, Afg‘on bog‘ yoki Isfara, Mo‘yimuborak, Qatag‘on, Rishton, Marg‘ilon, Tog‘lik, Namangan, Chust darvozalari. Darvozalar joylashgan joyning nomi yoki darvozadan boshlangan yo‘l qayerga olib borsa, o‘sha joyning nomi bilan nomlangan[4].

Shaharda yirik madrasalar, ko‘plab karvonsaroylar, bozorlar, hammomlar hamda boshqa jamoat binolari o‘ziga xos Farg‘ona maktabi usulida barpo etilgan. Bizning davrgacha yetib kelgan Madrasai Mir (1798), Madrasai Xishtin (1772), Jome masjidi (1817), “Dahmai shohon” maqbarasi (1824), “Modarixon dahmasi” (1824), Sohibzoda Hazrat madrasasi (1861), Xudoyorxon o‘rdasi (1870) va boshqa obidalar me’morchilik va shaharsozlik madaniyatining betakror na’munalaridir.

Shaharda hunarmandlar mahalla - mahalla bo‘lib yashar edilar. Shuning uchun ham shahar mahallarga bo‘linib, ularning nomlari shu yerda yashaydiganlarning kasb-hunarlari bilan nomlangan va hozirgi vaqtgacha saqlanib qolgan.

[2] Ўзбекистон обидаларидаги битиклар: Фаргона / Ф. Абдухолиқов, Э. Ртвеладзе, А. Ҳакимов, Б. Абдухалимов, У. Алимов, А. Мансуров, А. Маннонов, Н. Муҳамедов, А. Раззоков, С. Файзиева, А. Турдналиев. // «Uzbekistan Today» AA, 2016. – 352 б.

[3] Бабаджанов Б.М. Кокандское ханство: Власть, политика, религия. – Ташкент-Токиё: Янги нашр, 2010. – 543 с.

[4] Қодирова Т.Ф., Лавров В.А., Маматмусаев Т.Ш. Ўрта Осиё шаҳарсозлик маданияти. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2014. – Б. 102-103.

Qo‘qon xonligi shaharsozligi butun O‘rta Osiyo shaharsozlik an’analarini o‘ziga singdirishi bilan bir qatorda qadimiy Farg‘ona vodiysiga xos mahalliy madaniyat asosida yuzaga kelgan bo‘lib, shuning uchun ham XVIII asr Qo‘qon xonligi shaharlari asosan o‘rta asrlarga oid feodal shaharlarga xos ko‘rinishni o‘zida ifoda etgan. Shaharlar ark va shahristondan iborat bo‘lgan. Shahriston markazlarida, ko‘chalar kesishgan joy — chorsuda an’anaviy holatda bozor joylashgan. Bu ikki asosiy ko‘chaning kesishishi natijasida shahar to‘rt dahaga bo‘linib, dahalar o‘z navbatida bir necha mahalla va guzarlardan tashkil topgan.

Shaharning tarixiy qismi Registon maydoni hisoblanib, Chorsu chorrahasida joylashgan. Tarixiy manbalar va sayyohlarning ma’lumot berishicha, xuddi shu Chorsudan Buyuk Ipak yo‘lining ustidan Qo‘qonsoy va Oqtepasoy suv yo‘nalishlarida shahar qurila boshlagan. Chorsudagi eng muhtasham bino bu Xudoyorxon saroyi hisoblanadi. Dastlab xon qarorgohi, keyinchalik saroy ahli yashaydigan 100ga yaqin xona, zallar hamda bir necha hovli qurilgan. Xudoyorxon saroyi an’anaviy usul – har 4 tomondan xonalar qurilgan ochiq hovlidan iborat rejaviy usulni takrorlaydi.[5]

XVIII asrdan boshlab Qo‘qon xonligi me’morchiligida ham bir qator o‘ziga xos yangi yo‘nalishlar vujudga keldi. Jumladan maqbara va dahmalarning bunyod etila borishi yangi bir turdagi imorat – xaziralarning kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Madrasalar old ko‘rinishlariga turarjoylarda ishlatiladigan yog‘och ustunli ayvon va ganch shakllari qo‘llanilishi yangi yo‘nalishdagi me’moriy fikrlashlarga olib keldi. Bu yerda biz Buxoro yoki Xivadagidek alohida minora qurilishini ko‘rmaymiz. Turarjoy imoratsozligi Farg‘ona va Qoshg‘ar an’analarini uyg‘unlashtirib g‘oyat nafis yechimlarni keltirib chiqardi. Shift, ustun va boshqa yog‘och elementlarida o‘ymakorlik qatori rangli naqshinkorlik mahorati xalq amaliy san’atida o‘zgacha xususiyat va alohidalikni keltirib chiqardi.[6]

1876-yilda Qo‘qon xonligi Rossiyaga qo‘shib olinadi. Shundan keyin ikki tuzilmali “Eski shahar” va “Yangi shahar” qismlari paydo bo‘ladi. “Eski shahar” sharq ko‘hna me’morchilik obidalari bilan mashhur bo‘lsa, “Yangi shahar” yuz yillardan oshgan tarixga ega bo‘lgan kolonial davrdagi yevropacha me’morchilik obidalari bilan e’tiborni jalb etadi. Rus kapitalizmi kirib kelishi natijasida turarjoy binolari, savdo

[5] Худойқулов Т.Д. XIX асрда Қўқон хонлигининг ижтимоий – сиёсий ва маданий ҳаёти. Тарих фан. номзод. ... дис. автореферати. – Тошкент, 2009. – 24 б.
[6] М. К. Ахмедов. ЎРТА ОСИЁ МЕЪМОРЧИЛИГИ ТАРИХИ. ТОШКЕНТ. "ЎЗБЕКИСТОН". 1995.

inshootlari, yangi tipdagi maktab, cherkov kabi fuqaro inshootlari bilan bir qatorda fabrika, zavod, bank kabi binolar ham qurila boshlandi. Ularning qurilishida rus an’anaviy me’morchiligi shakllari bilan bir qatorda Yevropada taraqqiy etgan gotika, Uyg‘onish davrining barokko va klassitsizm singari uslub belgilari namoyon bo‘ladi. Yevropa me’moriy uslublariga mahalliy me’morchilik an’analari, qurilish materiallari, amaliy san’at namunalari ta’sir ko‘rsatib, o‘ziga xos yangiliklar yuzaga keldi. Xuddi shuningdek, O‘rta Osiyo me’morchiligiga Yevropa muhandislik yutuqlari ham ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatdi. Jumladan, “Rus - Osiyo banki” (hozirgi Paxta banki), “Aka-uka Vadyaevlar uyi” (hozirgi hokimlik binosi), “Rus davlat banki” (hozirgi adabiyot muzeyi), “Potelyaxovlar uyi” (hozirgi markaziy telegraf) va boshqa ko‘plab binolar shaharning “Yangi shahar” qismidagi o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turgan, shuningdek shaharsozlik madaniyatining kolonial davridagi yangi bosqichi bo‘lib tarixga kirgan.

O‘rta Osiyoga keltirilgan yevropacha turarjoy binolari nusxasi yaxlit cherdakli to‘rt burchak tom ostiga joylashgan xonalar majmuasidan iborat edi. Undagi xonalarning bir nechtasiga bitta yo‘lakdan kirilishi, tomning qulayligi, isitish sistemasi, derazalarning har tomonga chiqishi bu turdagi binolarning tez orada keng tarqalishiga sabab bo‘ldi. Taxminan bir asrlik vaqt ichida ming yilliklar davomida O‘rta Osiyoda yuzaga kelgan, atrofi o‘rab olingan hovlili uyning asosiy elementi qilib olingan imoratlar o‘rniga o‘ta noqulay tur — hovlining bir burchagigagina joylashtirilgan imorat qurish an’anaga aylanib qoldi.

Toshkent va Farg‘onadagi harbiy yig‘ilish binolari, gubernator inshoatlari, turarjoy kvartallari, markaziy ko‘chalardagi cherkovlar, savdo do‘konlari, madaniy va ma’muriy ahamiyatdagi binolar O‘rta Osiyoning an’anaviy me’morchiligi namunalaridan yaqqol ajralib turadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkin-ki, Qo‘qon xonligi shaharsozligi shahar tuzilishi va qurilish yo‘nalishi bo‘yicha Markaziy Osiyoda o‘zining o‘rniga ega bo‘ldi. XX asrga kelib o‘rta asrlar me’morchiligidagi handasaviy uyg‘unlashtirish usullari, naqsh bog‘lash san’ati, koshinkorlik, gumbaz, qanoslar bog‘lash va shu singari qator an’analar qadrsizlanib, iste’moldan chiqib ketdi. Bugungi kunda qadimiy qadriyatlar qaytadan o‘rganilib chiqilmoqda va undan foydalanish choralari qidirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Каримов И. Халк ишончи олий масъулият 142-б.
2. Ўзбекистон обидаларидаги битиклар: Фаргона / Ф. Абдухолиқов, Э. Ртвеладзе, А. Ҳакимов, Б. Абдухалимов, У. Алимов, А. Мансуров, А. Маннонов, Н. Муҳамедов, А. Раззоков, С. Файзиева, А. Турдналиев. // «Uzbekistan Today» АА, 2016. – 352 б.
3. Бабаджанов Б.М. Кокандское ханство: Власть, политика, религия. – Ташкент-Токиё: Янги нашр, 2010. – 543 с.
4. Қодирова Т.Ф., Лавров В.А., Маматмусаев Т.Ш. Ўрта Осиё шаҳарсозлик маданияти. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2014. – Б. 102-103.
5. М. К. Ахмедов. ЎРТА ОСИЁ МЕЪМОРЧИЛИГИ ТАРИХИ. ТОШКЕНТ. "ЎЗБЕКИСТОН". 1995.
6. Худойқулов Т.Д. XIX асрда Қўқон хонлигининг ижтимоий – сиёсий ва маданий ҳаёти. Тарих фан. номзод. ... дис. автореферати. – Тошкент, 2009. – 24 б.

Research Science and Innovation House

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Zamonova Manzo’ra Vali qizi. Jizzax davlat pedagogika universiteti, “Tabiiy va aniq fanlarda masofaviy ta’lim” kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada oliy ta’lim tizimida biologiya fanini o‘qitishda zamonaviy raqamli texnologiyalarning o‘rni, ularning imkoniyatlari va ta’lim samaradorligiga ta’siri tahlil etilgan. Shuningdek, talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirishda interaktiv metodlar va raqamli resurslardan foydalanishning afzalliklari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, biologiya ta’limi, interaktiv usullar, virtual laboratoriyalar, onlayn platformalar.

Bugungi raqamli davrda ta’lim tizimi ham tubdan o‘zgarib, an’anaviy uslublardan zamonaviy texnologik yondashuvlarga o‘tmoqda. Ayniqsa, tabiiy fanlar, jumladan, biologiyani o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida biologiya fanini zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari orqali o‘rgatish jarayoni nafaqat talabalarning bilim darajasini oshiradi, balki ularning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini ham kuchaytiradi. Mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimida axborotlashgan ta’lim muhitini yaratish, o‘quv fanlariga mo‘ljallangan multimediali ilovalarni keng joriy etish va umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yangi avlod o‘quv-metodik adabiyotlar bazasini xalqaro ta’lim standartlariga, ta’lim sifatini baholashning xalqaro dasturlari tizimiga moslashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Zero, O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida «Ta’limda multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish va ularni qo‘llash jarayonini tizimli tashkil etish choralarini ko‘rish»1 kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu esa umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarining biologik savodxonligini oshirish, tabiiy-ilmiy dunyoqarashini, tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarini shakllantirishda biologiya darslari, darsdan va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni interaktiv elektron ta’limiy resurslar vositasida tashkil etilishini ta’minlaydi. Bugungi kunda xalq ta’limi tizimidagi amaldagi axborotlashgan ta’lim muhitining alohida komponentlari bo‘lgan axborot tizimlari, ma’lumotlar banklari, muassasa, tashkilot,

pedagog va o‘quvchilarning veb-saytlari, axborot resurs markazlari, elektron axborot-ta’lim resurslari, virtual laboratoriyalar, media va videodarslar, elektron hujjatlar almashinuv tizimi, videokonferensiya aloqalari, intranet tarmog‘idagi on-layn tanlovlar tizimdagi barcha ishtirokchilarni faol foydalanuvchilarga aylanishiga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv-tarbiya jarayoniga keng joriy etilishiga xizmat qilmoqda. Jamiyat tarraqiyotining har bir bosqichida ta’lim sohasiga qaratilgan talab va takliflar tobora yuqorilayotgan bir davr raqamlashtirilgan Texnologiyalarga asoslangan holda ilmiylik nuqtai nazardan dars strukturalarin metodikalarini, tamoyillarini qaytadan ko’rib chiqishligimizni taqozo etayotgan bir davrda hayot kechirmoqdamiz. Ilm fan doirasida texnologik ko’nikmalarni barqarorlashtirish hamda yangicha yondashuv zarurati yuzaga kelmoqda. Maqolada raqamli ta’lim vositalari yordamida биologiya fani bo’yicha o’quv metodikalarni samarali tashkillashtirish xususida yoritilgan.

Ta’lim sohasida zamonaviy sharoitlardan foydalangan holda, zamonaviy maktablar amaliyotida “O’qitish va ta’limni axborotlashtirish, raqamlashtirish” deb ataladigan bir jarayon paydo bo’ldi. Ta’limni axborotlashtirish, Kompyuter texnologiyalari asosida raqamlashtirish deb, o’qitish jarayonidagi axborot mahsulotlari,vositalari va texnologiyalarini joriy etish va undan foydalanish, ta’lim jarayonida qo’llash, yangi zamonaviy pedogogik metodlar, usullar yig’indisi tushuniladi. Ta’limni tashkil etishning yangicha yondashuvi yuzaga kelgan bir pallada biologiya o’qituvchisi o’z amaliyotiga DOS tizimlari bilan ishlash, dars jarayonini shu tizimlarga moslagan holda moslashtirish samaradorliginining ba’zi jihatlarini ko’rib chiqamiz. Ta’limda axborot texnologiyalari – bu maxsus tizimdan foydalanish usuli, dasturiy va texnologik vositalar (kino, audio,video,kompyuter, raqamli ta’lim) Pedagogik texnologik usuldir. Ta’limda Axborot texnologiyalaridan foydalanishda, ta’lim samaradorligini oshirishda, biologiya o’qituvchisi o’z navbatida mavzuga oid materiallar ta’lim rivojlanishining umumiy tendensiyalariga asoslangan holda, integrativ jarayonlarning faollashuvi, ta’limning differensiallashuvini chuqurllashtirish, o’quv predmeti mazmuni,fundamental xususiyati, hodisotlarini o’zida aks ettirishi lozimdir. Bunga nafaqat biologiya fani darsligi ba’lki butun tabiiy fanlar o’qitish amaliyoti o’zining dars strukturasiga yangi axborot texnologiyalarini keng joriy etishi ta’lim texnologiyasi ko’p jihatdan yordam berib kelmoqda.

1. Biologiya fanining o‘ziga xosligi va o‘qitishdagi muammolar

Biologiya fani ko‘plab murakkab tushunchalar, dinamik jarayonlar va mikroskopik hodisalarni o‘z ichiga oladi. Shu boisdan uni vizual tarzda tushuntirish, tajribalar orqali mustahkamlash zarur. An’anaviy ta’limda bu har doim ham imkoni bo‘lmagan. Raqamli texnologiyalar esa bu muammolarni samarali hal etishga yordam beradi.

2. Raqamli texnologiyalarning biologiya ta’limidagi roli

Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalar fanlararo integratsiyani kuchaytirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, o‘qituvchining ishini samarali tashkil etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, **biologiya** fanida raqamli texnologiyalar murakkab va abstrakt tushunchalarni tushunarli, ko‘rgazmali va interaktiv shaklda yetkazish imkonini beradi.

Virtual laboratoriyalar. Biologiyada ko‘plab tajribalar maxsus laboratoriya uskunalarini, xavfsizlik choralarini va vaqtni talab etadi. Virtual laboratoriyalar esa bu tajribalarni raqamli muhitda xavfsiz, tez va takroriy tarzda bajarish imkonini beradi. Masalan, mikroskop orqali hujayra tuzilishini o‘rganish, genetik tajribalarni amalga oshirish yoki o‘simliklarning o‘sish jarayonini simulyatsiya qilish virtual vositalar orqali talabalarga taqdim etiladi.

3D modellar va animatsiyalar. Biologik obyektlar, masalan, yurak, o‘pka, asab tizimi yoki DNK tuzilmasi kabi murakkab tuzilmalarni 3D modellar orqali o‘rganish ularning fazoviy shaklini tushunishga yordam beradi. Animatsiyalar esa fiziologik jarayonlarning dinamikasini ko‘rsatadi: qon aylanishi, nafas olish yoki hujayra bo‘linishi kabi jarayonlarni harakatda kuzatish orqali tushunish osonlashadi.

Onlayn platformalar va LMS tizimlari. Google Classroom, Moodle, Edmodo kabi platformalar o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida samarali aloqani ta’minlaydi. Ularda dars materiallari, topshiriqlar, testlar, prezentatsiyalar joylashtiriladi, fikr almashish va baholash jarayonlari avtomatlashtiriladi. Bu esa biologiya fanining uzluksiz va moslashuvchan ta’limini ta’minlaydi.

Interaktiv o‘quv ilovalari va dasturlar. Biologiya bo‘yicha ishlab chiqilgan maxsus mobil ilovalar (masalan, **Bioman Bio**, **Khan Academy Biology**, **Visible Body**) orqali talabalar mustaqil ravishda fanlarni o‘rganishi, interaktiv testlardan o‘tishi va o‘z bilimini baholashi mumkin. Bu o‘quvchilarning individual rivojlanish sur’atiga moslashgan ta’limni ta’minlaydi.

Multimedia vositalar. Video darslar, grafik prezentatsiyalar, ovozli izohlar va interaktiv savol-javoblar biologiya darslarini jonlantiradi, e’tibor va tushunishni kuchaytiradi. Masalan, hujayra bo‘linish jarayoni haqida o‘qishdan ko‘ra, ushbu jarayonning animatsion tasvirini tomosha qilish samaraliroq bo‘ladi.

Tadqiqot va fanlararo yondashuv. Raqamli texnologiyalar yordamida talabalar onlayn tadqiqotlar olib borishi, ilmiy maqolalarni o‘qishi, ekologik muammolarni tahlil qilishi va loyihalar yaratishi mumkin. Biologiya informatika, matematika va geografiya bilan integratsiyalashgan holda o‘rgatilganda, ta’lim mazmuni chuqurlashadi.

Raqamli texnologiyalar biologiya ta’limini interaktiv, vizual va tahliliy yondashuvlar bilan boyitadi. Bu nafaqat dars sifati va samaradorligini oshiradi, balki talabalar fikrlashini, ilmiy qiziqishini va mustaqil ishlash malakasini rivojlantiradi. Kelajakda raqamli texnologiyalar biologiya ta’limining ajralmas qismiga aylanib boradi.

3. Talabalarning faolligi va mustaqil ta’limga rag‘bat

Raqamli texnologiyalar talabalarning darsga qiziqishini oshiradi, ularni faollikka chorlaydi va mustaqil ravishda bilim olishga yo‘naltiradi. Onlayn testlar, forumlar, raqamli viktorinalar orqali bilimni nazorat qilish jarayoni ham ancha samarali kechadi.

4. O‘qituvchilarning roli va malakasi

Raqamli vositalardan samarali foydalanish uchun o‘qituvchining AKT bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi muhim. Shu sababli pedagoglar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish dolzarb masalalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, biologiya fanini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish zamonaviy ta’lim talablariga to‘la javob beradi. Bu yondashuv talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularning tahliliy va tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda ta’lim samaradorligini oshiradi. Shu bois oliy ta’lim muassasalarida biologiya ta’limida raqamli texnologiyalardan keng va maqsadli foydalanish dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: Adolat, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi” to‘g‘risidagi qarori, PQ–4884-son, 2020 yil 28 fevral.
3. Biologiya fanidan namunaviy o‘quv dasturi. – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, 2022.

4. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Metodik qo‘llanma / Tahrir hay’ati: A.Azizxo‘jayev va boshq. – T.: O‘qituvchi, 2020.
5. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari: terminlar izohli lug‘ati. – T.: Fan va texnologiya, 2021.
6. Karimova D.X. “Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalarning o‘rni”. – T.: Ilm ziyo, 2021.
7. Xalmanov , U. ., & Mardonov, B. . (2025). Inshoatlarni qo’riqlash tizimini matematik modellashtirish yordamida tashkil etish. *Modern Science and Research*, *4*(3), 282–286. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/75764
8. U. Xalmanov. Smartfonlardan radiatsiya: bu qanchalik xavfli va o‘zingizni qanday himoya qilish kerak? Journal of science-innovative research in Uzbekistan. ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 ISSN 2992-8869 440-445 b
9. SH Mansurova U. Xalmanov. Ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning ahamiyati. Talabalarning ilmiyinnovatsion loyihalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari: muammo va yechimlar” Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya 119-125
10. Yuldasheva M. “Biologiyani o‘qitishda virtual laboratoriyalardan foydalanishning afzalliklari”. // Pedagogik izlanishlar jurnali, №3, 2022.
11. Mahmudov R. “Oliy ta’limda interaktiv metodlardan foydalanish metodikasi”. – T.: Iste’dod, 2020.
12. Usmonov A. “Biologik fanlarni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar: muammo va yechimlar”. // Oliy ta’lim muammolari, №5, 2023.
13. To‘laganova N. “STEM yondashuvi asosida biologiya ta’limi”. – Monografiya. – Nukus, 2022.

Research Science and Innovation House

Oliy ta’lim muassasalarida kimyo yo‘nalishi talabalari uchun biologiya fanini o‘qitish metodikasi

Zamonova Manzo’ra Vali qizi. Jizzax davlat pedagogika universiteti, “Tabiiy va aniq fanlarda masofaviy ta’lim” kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarining kimyo yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun biologiya fanini o‘qitishning metodik asoslari yoritilgan. Biologiya va kimyo fanlarining o‘zaro bog‘liqligi, dars jarayonida qo‘llaniladigan samarali usullar, laboratoriya mashg‘ulotlari va raqamli texnologiyalar orqali ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, baholash va refleksiya jarayonlarining ahamiyati haqida ham metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Biologiya, kimyo yo‘nalishi, metodika, interaktiv usullar, virtual laboratoriya, fanlararo integratsiya, amaliy mashg‘ulot, raqamli texnologiyalar, o‘qitish usullari.

Oliy ta’lim tizimida kimyo yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar uchun biologiya fani muhim umumkasbiy va tayanch fanlardan biri hisoblanadi. Biologiya – bu hayotiy jarayonlarning asosiy qonuniyatlarini o‘rgatuvchi fan bo‘lib, kimyo fanining organik va noorganik jarayonlarini yanada chuqurroq tushunishda katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun biologiya fanini kimyogarlar uchun moslashtirilgan metodika asosida o‘qitish ta’lim samaradorligini oshiradi.

Zamonaviy fanlararo integratsiya jarayonida biologiya va kimyo fanlari o‘zaro chambarchas bog‘liq holda o‘qitilishi zarur bo‘lgan sohalar sirasiga kiradi. Ayniqsa, oliy ta’lim bosqichida kimyo yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun biologik bilimlar nafaqat zaruriy nazariy tayyorgarlikni, balki amaliy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Biologiyani mazkur yo‘nalish talabalari uchun samarali, mazmunli va fanlararo yondashuv asosida o‘qitish, ularning tahliliy fikrlashi, tajriba o‘tkazish malakasi va ekologik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Biologiya va kimyo fanlari o‘zaro chuqur integratsiyalashgan bo‘lib, tirik organizmlar hayoti va tuzilishini tushunishda bir-birini to‘ldiradi. Biologiya tirik mavjudotlarning tuzilishi, funksiyasi, o‘sishi, rivojlanishi va ekologik aloqalarini o‘rgansa, kimyo esa bu jarayonlardagi molekulyar va atom darajasidagi o‘zgarishlarni tushuntiradi. Masalan, hujayradagi metabolik jarayonlar — glikoliz, Krebs tsikli,

oksidlovchi fosforlanish — biologik mazmunga ega bo‘lishi bilan birga, ular kimyoviy reaksiyalar tizimidan iboratdir. Shu bilan birga, DNK sintezi, oqsil biosintezi, fermentlarning ishlash mexanizmi kabi mavzular biokimyo orqali tahlil qilinadi. Ayniqsa, farmatsiya, biotexnologiya, tibbiy kimyo kabi sohalarda bu ikki fandagi bilimlarni integratsiyalash zaruriy hisoblanadi. Shunday ekan, biologiya va kimyo fanlarining o‘zaro bog‘liqligi, ularning integratsiyalashgan holda o‘qitilishini talab etadi, bu esa talabalarda chuqur ilmiy tafakkur va kompleks yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Biologik jarayonlarning kimyoviy asoslari – bu ikki fan o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Masalan, **modda almashinuvi**, **enzimlar faoliyati**, **fotosintez**, **DNK va RNK sintezi** kabi jarayonlar kimyoviy reaksiyalar orqali amalga oshadi. Shuning uchun biologiya darslarida kimyoviy bilimlarga tayanib tushuntirish metodik jihatdan samaralidir.

Tavsiya:

- Har bir mavzuni kimyo bilan bog‘lab o‘rganish;
- Kimyoviy formulalar yordamida biologik jarayonlarni tahlil qilish;
- Laboratoriya mashg‘ulotlarida fanlararo tajribalarni ko‘rsatish.

Biologiya va kimyo fanlarining uzviy bog‘liqligini yanada yaxshiroq tushunish uchun bir nechta amaliy misollarni keltirish mumkin:

1. Fotosintez jarayoni

Fotosintez biologik jarayon bo‘lib, o‘simliklar va ba'zi bakteriyalar quyosh nuridan energiya olishadi va uni kimyoviy energiyaga aylantiradilar. Bu jarayon quyidagi kimyoviy reaktsiyalarni o‘z ichiga oladi:

- $6CO_2 + 6H_2O +$ yorug‘lik energiyasi $\rightarrow C_6H_{12}O_6$ (glukoza) $+ 6O_2$

Fotosintezda, uglerod dioksidi (CO_2) va suv (H_2O) kimyoviy birikmalar sifatida o‘simlik tomonidan yig‘ilib, o‘zaro reaksiyaga kirishadi va ularning natijasida glukoza ($C_6H_{12}O_6$) va kislorod (O_2) hosil bo‘ladi. Biologik tomondan, bu jarayon o‘simliklarning o‘sishi va hayot faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo‘lgan energiya manbasini yaratadi, kimyo esa bu jarayondagi kimyoviy reaksiyalarni tahlil qiladi.

2. Metabolizm va fermentlar

Metabolizm — bu organizmda yuz beradigan barcha kimyoviy reaksiyalar tizimi bo‘lib, ular organizmning energiya ishlab chiqarish va resurslarni qayta ishlash jarayonlarini boshqaradi. Masalan, glikoliz jarayonini olaylik:

- $C_6H_{12}O_6$ (glukoza) $\rightarrow 2CH_3COCOOH$ (piruvat)

Bu jarayonda, glukoza molekulasi kimyoviy reaksiya orqali ikki molekula piruvatga parchalanadi. Fermentlar bu jarayonlarni tezlashtiradigan katalizatorlar sifatida ishlaydi. Fermentlar o‘zining kimyoviy xususiyatlari orqali reaksiyalarni o‘zgartiradi va ularni tezlashtiradi. Shu sababli, biologiya fermentlarning vazifalarini o‘rgansa, kimyo bu reaktsiyalarni molekulyar darajada tahlil qiladi.

3. Hujayra membranasi va ionlar almashinuvi

Hujayra membranasi, bir tomondan biologik struktura bo‘lib, hujayrani tashqi muhitdan himoya qiladi, ikkinchi tomondan, ionlar va moddalar almashinuvi uchun imkoniyat yaratadi. Membranada ionlar (masalan, Na^+, K^+, Ca^{2+}) transporti kimyoviy jarayonlar asosida amalga oshiriladi.

- Na^+/K^+ ATP-azasi — bu ferment, hujayra ichidagi Na^+ ionlarini tashqariga chiqarib, K^+ ionlarini hujayraga kirgizadi. Bu jarayon ATP molekulasi yordamida energiya ta'minlanadi, bu esa biologik jarayonlar uchun zarur energiya manbasini yaratadi.

Bu misolda, biologiya hujayra membranasining tuzilishi va uning vazifalarini o‘rganadi, kimyo esa bu jarayondagi ionlar va molekulyar o‘zgarishlarni, shuningdek, energiya sarfini tahlil qiladi.

4. Ekologiya va kimyoviy ifloslanish

Kimyo va biologiya o‘rtasidagi bog‘liqlik ekologik jarayonlarda ham o‘z aksini topadi. Misol uchun, suv manbalarining kimyoviy ifloslanishi:

- Amonyak (NH_3), nitratlar (NO_3^-) va fosfatlar (PO_4^{3-}) ifloslantiruvchi moddalar sifatida suv resurslarini ifloslantiradi.

Bu kimyoviy moddalar suvda o‘zgarishlarga olib keladi va biologik turdagi hayotga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Kimyo bu moddalarni suvda qanday reaktsiyalarga kirishishini o‘rganadi, biologiya esa ularning ekosistemdagi ta'sirini — o‘simliklar va hayvonlar turmush tarziga qanday ta’sir qilishini tahlil qiladi.

5. Genetika va kimyoviy reaksiya

Genetik material — DNK va RNK molekulalari kimyoviy birikmalar bo‘lib, ular genetik ma’lumotlarni saqlaydi va uzatadi. Masalan, DNKning replikatsiya jarayonini ko‘rib chiqaylik:

- DNK heliksini ochish va uning yangi zanjirlarini sintez qilish reaksiyalarini katalizlaydigan fermentlar (masalan, DNA polimeraza) kimyoviy reaktsiyalarni boshqaradi.

Bu jarayonda, kimyo va biologiya o‘zaro bog‘liq bo‘lib, biologiya organizmdagi genetik jarayonlarni o‘rganadi, kimyo esa molekulalarning qanday reaksiyaga kirishishini va energiya oqimini tushuntiradi.

Biologiya va kimyo fanlari bir-birini to‘ldiruvchi va uzviy bog‘liq sohalar hisoblanadi. Kimyo biologik jarayonlar, molekulalar va moddalar o‘rtasidagi reaksiyalarni tahlil qiladi, biologiya esa bu jarayonlarning organizm va ekosistemdagi rolini o‘rganadi. Shu sababli, ikki fanni birgalikda o‘rganish talabalar uchun yanada to‘liqroq ilmiy tafakkur va ilmiy yondashuvni shakllantiradi.

2. Dars jarayonida qo‘llaniladigan metodlar

Biologiya fanini o‘qitishda quyidagi metodlar yuqori natija beradi:

- Ko‘rgazmali metodlar: mikroskop, preparatlar, 3D modellar, biologik sxemalar orqali tushuntirish.
- Interfaol metodlar: “Fikrlar jarchisi”, “B-B-B” (Bilaman – Bilmoqchiman – Bildim), klaster, “Insert” usuli.
- Problemali ta’lim: talabalarni ilmiy savollarga javob topishga yo‘naltiradigan topshiriqlar asosida darsni tashkil etish.
- Mustaqil tadqiqotlar: kichik loyihalar, referatlar va laboratoriya ishlarini mustaqil bajarish.

3. Laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar metodikasi

Biologiya fanini samarali o‘zlashtirishda tajriba va kuzatuvlar muhim ahamiyatga ega. Kimyo yo‘nalishi talabalari uchun quyidagi laboratoriya ishlari foydalidir:

- Hujayra tuzilishini mikroskopda kuzatish;
- Fermentlar ishtirokidagi kimyoviy reaksiyalarni o‘rganish;
- DNK va oqsillar bilan bog‘liq tajribalar;
- Fotosintez va nafas olish jarayonlarini modellashtirish.

Amaliy mashg‘ulotlar nazariy bilimlarni mustahkamlabgina qolmay, talabalarda ilmiy izlanish qobiliyatini rivojlantiradi.

4. Raqamli va interaktiv vositalardan foydalanish

Zamonaviy biologiya ta’limida quyidagi raqamli resurslar keng qo‘llaniladi:

- BiomanBio, Visible Body, Khan Academy Biology kabi ilovalar;
- Virtual laboratoriyalar: simulyatsiya asosida tajribalar;
- Prezentatsiyalar, video darslar va test platformalari (Google Classroom, Moodle).

Bu vositalar talabalarni fan bilan mustaqil ishlashga, vizual anglash va amaliyotga tayyorlashga xizmat qiladi.

5. Baholash va refleksiya metodikasi

Baholash jarayoni faqat nazorat emas, balki rivojlantiruvchi vazifani ham bajarishi lozim. Kimyo yo‘nalishi talabalari uchun biologiya fanini baholashda:

- Testlar (ko‘p variantli, situatsion);
- Og‘zaki savol-javob;
- Amaliy topshiriqlar va loyiha ishlari;
- Portfolio (darslik, konspekt, mustaqil ishlar to‘plami)

kabi usullar qo‘llaniladi. Dars yakunida refleksiya orqali talabalar o‘z fikr-mulohazalarini bildiradilar, bu esa o‘qituvchiga darsni tahlil qilishga yordam beradi.

Oliy ta’lim muassasalarida kimyo yo‘nalishi talabalariga biologiya fanini o‘qitish fanlararo yondashuv, interaktiv metodlar va amaliyotga yo‘naltirilgan darslar asosida tashkil etilishi lozim. To‘g‘ri metodika tanlansa, talabalar nafaqat biologiyani o‘zlashtiradi, balki uni kasbiy faoliyatlarida samarali qo‘llay olishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Biologiya fanidan namunaviy dastur. – Toshkent: O‘MO‘TV, 2022.
3. Mahmudova N.A., Abduvaxobova G.T. Biologiya fanini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
4. Xalmanov , U. ., & Mardonov, B. . (2025). Inshoatlarni qo’riqlash tizimini matematik modellashtirish yordamida tashkil etish. *Modern Science and Research*, *4*(3), 282–286. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/75764
5. U. Xalmanov. Smartfonlardan radiatsiya: bu qanchalik xavfli va o‘zingizni qanday himoya qilish kerak? Journal of science-innovative research in Uzbekistan. ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 ISSN 2992-8869 440-445
6. SH Mansurova U. Xalmanov. Ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning ahamiyati. Talabalarning ilmiyinnovatsion loyihalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari: muammo va yechimlar” Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya 119-125

7. Axmedov B.A., Yusupova G. Biologiya darslarida innovatsion texnologiyalar. – Samarqand, 2020.
8. Karimova N.T. Raqamli pedagogika va interaktiv metodlar. – Toshkent: Innovatsiya, 2023.
9. Khan Academy. Biology [Onlayn manba]. https://www.khanacademy.org
10. Qosimov J. Oliy ta’limda fanlararo integratsiya asoslari. – Toshkent, 2022.

Research Science and Innovation House

AKSIOLOGIK YONDASHUVLAR HARBIY XIZMATCHILARNING EMPATIK SALOHIYATINI OSHIRISHDAGI ROLI.

Toshmatov Rustamjon Muydinjon o’g’li
Namangan pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola doirasida empatiyaning mohiyati, uning harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatidagi o‘rni, shuningdek, millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik qadriyatlarini shakllantirishda empatiyaga asoslangan ta’lim uslublarining samaradorligi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, aksiologik yondashuv, bo’lajak harbiy xizmatchi, harbiy xizmat, jamoa, totuvlik, bag’rikenglik, , baynalminal diniy erkinlik, tinchlik halollik, poklik.

Abstract: This article examines the essence of empathy, its role in the professional activities of military personnel, as well as the effectiveness of educational methods based on empathy in forming the values of interethnic harmony and tolerance.

Keywords: globalization, future military personnel, military service, community, harmony, tolerance, international religious freedom, peace, honesty, purity.

Аннотация: В данной статье рассматривается сущность эмпатии, ее роль в профессиональной деятельности военнослужащих, а также эффективность образовательных методов, основанных на эмпатии, в формировании ценностей межэтнического согласия и толерантности.

Ключевые слова: глобализация, будущий военнослужащий, военная служба, сообщество, гармония, толерантность, международная религиозная свобода, мир, честность, чистота,

Globallashuv sharoitida diniy bag‘rikenglik, dinlararo totuvlik va hamkorlik jamiyatlarning tinchligi va barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tamoyillar aksiologik yondashuv nuqtai nazaridan inson qadriyatlari, e’tiqod erkinligi va o‘zaro hurmat kabi fundamental qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Tarixan O‘zbekiston turli madaniyatlar, tillar, urf-odatlar va dinlarga e’tiqod qiluvchi xalqlar vatani bo‘lib kelgan. Bu xususiyat mamlakatimizning ko‘p madaniyatli va ko‘p konfessiyali jamiyat sifatida shakllanishiga zamin yaratgan. O‘zbekiston

Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, milliy qadriyatlarimiz umuminsoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq. Asrlar davomida xalqimiz umuminsoniy qadriyatlar rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. Turli millat vakillariga hurmat, ular bilan hamjihatlikda yashash, diniy bag‘rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, boshqa xalqlarning ilg‘or tajribasi va madaniyatini o‘rganish kabi fazilatlar xalqimizga xos bo‘lgan qadriyatlardir. Aksiologik nuqtai nazardan, diniy bag‘rikenglik insonning e’tiqod erkinligi huquqini hurmat qilish, boshqa dinlarga nisbatan tolerantlik va o‘zaro tushunishni anglatadi. Dinlararo totuvlik esa turli din vakillari o‘rtasida tinchlik va hamkorlik muhitini yaratish, diniy aqidaparastlik va ekstremizmga qarshi kurashishni nazarda tutadi. O‘zaro hamkorlik esa turli din vakillari o‘rtasida o‘zaro manfaatli aloqalarni o‘rnatish, umumiy muammolarni birgalikda hal etish va jamiyat rivojiga hissa qo‘shishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining tarixiy tajribasi va milliy qadriyatlariga tayanib, diniy bag‘rikenglik, dinlararo totuvlik va o‘zaro hamkorlikni ta’minlash borasida izchil siyosat olib bormoqda. Mamlakatimizda barcha dinlarga teng huquqlar berilgan, fuqarolarning vijdon erkinligi kafolatlangan. Ushbu siyosat natijasida O‘zbekistonda turli din vakillari tinch-totuv hayot kechirmoqda va jamiyat rivojiga munosib hissa qo‘shmoqda.O'zbekistonda yashovchi turli millat vakillarining madaniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida tashkil etilgan milliy madaniy markazlar (MMK) ushbu siyosatning amaliy ifodasidir. Dastlabki MMKlar koreys, qozoq, yahudiy va arman millat vakillari tashabbusi bilan 1989-yilda tashkil etilgan bo'lib, mustaqillik yillarida ularning soni keskin o'sdi. Hozirda O'zbekistonda 138 ta MMK faoliyat yuritmoqda. Bu esa, O'zbekiston davlati millatlararo totuvlikni ta'minlashga, madaniy xilma-xillikni saqlashga va har bir millat vakilining o'z madaniy ehtiyojlarini qondirishga alohida e'tibor qaratayotganligini ko'rsatadi..

Yurtimizda bugungi kunda xavfsizlik, barqarorlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohalarida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va strategik chora-tadbirlarning asosiy zamini O'zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida o'z ifodasini topgan [1]. Ushbu strategiya doirasida, jamiyatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni mustahkamlashga qaratilgan kompleks vazifalar belgilangan bo'lib, bu borada davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosatning ustuvorligini tasdiqlaydi. O'zbek xalqiga xos bo'lgan bag'rikenglik nafaqat an'anaviy islomiy fazilat, balki samimiyat, ochiq muloqot, vijdon erkinligi va har bir insonning o'z e'tiqodiga

sodiq qolish huquqi kabi muhim tamoyillarga asoslangan. Shunday ekan, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash nafaqat ma'naviy burchimiz, balki barqaror va demokratik jamiyat qurish, huquqiy davlatni mustahkamlash, xalqaro hamjamiyatda munosib o'rin egallash yo'lidagi muhim siyosiy va huquqiy ehtiyojimizdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [2] Farmoniga muvofiq, Respublika baynalmilal madaniyat markazi va O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi negizida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari Qo'mitasi (Qo'mita) tashkil etildi. Hozirda Qo'mita qoshida 138 ta milliy madaniy markaz (MMK) faoliyat yuritadi, bu esa mamlakatda milliy madaniy xilma-xillikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Bo'lajak harbiy xizmatchilar, ayniqsa, ushbu tamoyillarga sodiq bo'lishlari shart, chunki ularning zimmasiga Vatanimizning xavfsizligini ta'minlashdek mas'uliyatli vazifa yuklatilgan. Empatiya – o'zgalarning his-tuyg'ularini tushunish va hamdardlik qilish qobiliyati bo'lib, turli millat vakillari bilan muloqotda bo'lishda, ular o'rtasida o'zaro hurmat va ishonchni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Empatiyaga ega bo'lgan harbiy xizmatchi, milliy kelishmovchiliklarni bartaraf etishda, adolatli va xolis qarorlar qabul qilishda, o'z xizmat vazifasini samarali bajarishda ko'proq muvaffaqiyatga erishadi. Ayni paytda, mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek, teng huquqlilik hamda o'zaro hamjihatlik sharoitida yashab kelishmoqda. Ularning huquq va erkinliklari, manfaatlarini ta'minlash, ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, an'ana hamda qadriyatlarini saqlash va rivojlantirishlari uchun barcha zarur sharoitlar yaratib berilgan. Bunday e'tibor natijasida ko'p millatli xalqimizning boy tarixiy-madaniy merosi qayta tiklandi va qadr topdi. Bo'lajak harbiy xizmatchilar ushbu merosni asrab-avaylashga, millatlararo totuvlikni mustahkamlashga, har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qilishga o'z hissasini qo'shishlari darkor.

Empatiya — bu boshqalarning his-tuyg'ularini, fikrlarini va tajribalarini tushunish qobiliyatidir. Bu sohada o'zaro aloqa va hissiy bog'lanishning o'rni katta. Smitning ta'kidlashicha, tasavvur orqali biz "o'zimizni uning o'rniga qo'yamiz... go'yo uning tanasiga kirib, qandaydir ma'noda u bilan bir xil odamga aylanamiz". Tasavvur

yordamida biz odatda boshqa odamnikiga o'xshash, lekin odatda undan kuchsizroq bo'lgan sezgilarni boshdan kechiramiz [3]. Yana bir ta'sirchan empatiya tushunchasi, bir asrdan ko'proq vaqt o'tgach, Herbert Spencerning (1870) "Psixologiya Printsiplari" asarida paydo bo'ldi. Spencer, ko'plab turlarda, jumladan, insonlarda mavjud bo'lgan ijtimoiylik asosida o'z fikrini boshladi. Spencerning fikricha, turdoshlar bilan aloqada bo'lishga bo'lgan tendensiya, xususan o'zini himoya qilish sohasida, xavfsizlikni ta'minlash uchun moslashuvchanlik vazifasini bajaradi. Vaqt o'tishi bilan, bunday turlarda aloqada bo'lishdan qoniqish his qilish va ijtimoiy o'zaro ta'sirdan mahrum bo'lganda noxushlik his qilish rivojlandi, deb o'yladi. Bu hislar natijasida, bunday turlarda yuqori darajada ijtimoiy aloqa yuzaga keldi. Ushbu yuqori darajadagi ijtimoiy aloqa tufayli, empatiya takroriy aloqalar natijasida rivojlandi. Bo'lajak harbiy xizmatchilar uchun empatiya nafaqat shaxsiy munosabatlar, balki guruh dinamikasi va millatlararo aloqalar o'rnatish uchun muhimdir.

Empatiya orqali millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni mustahkamlashda individual farqlar ham muhim ahamiyatga ega. Har bir harbiy xizmatchida empatiyaga oid jarayonlarda ishtirok etish yoki empatik natijalarni tajribaga ega bo'lish tendentsiyasi farq qiladi. Yillar davomida empatiya bilan bog'liq doimiy xususiyatlarni baholash maqsadida turli o'lchovlar ishlab chiqilgan (masalan, Davis, 1980; Hogan, 1969). Ushbu o'lchovlar shaxsning empatiyaga oid jarayonga ishtirok etish ehtimolini ta'sir qiluvchi barqaror xususiyatlarini ifodalaydi. Bo'lajak harbiy xizmatchilarda millatlararo totuvlik va bag'rikenglik qadriyatlarini shakllantirishda empatiya muhim rol o'ynaydi. Empatiya nafaqat shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarni kuchaytiradi, balki turli madaniyatlar va millatlar o'rtasida o'zaro tushunishni mustahkamlashga yordam beradi. Buni amalga oshirish uchun, harbiy tayyorgarlik jarayonida empatiya va his-tuyg'ularni tushunishga qaratilgan treninglar va ta'lim dasturlari muhimdir.

Millatlararo totuvlik g'oyasi – sayyoramizda istiqomat qilayotgan 1600 dan ortiq etnik guruhlarning teng huquqlilik, o'zaro hurmat va hamkorlik prinsiplari asosida tinch-totuv yashash idealidir. Bu g'oya nafaqat etnik xilma-xillikni e'tirof etishni, balki har bir millat vakillarining o'ziga xos madaniy merosini saqlab qolish va rivojlantirish uchun teng sharoitlar yaratishni ham nazarda tutadi. Millatlararo totuvlik, jamiyatning ijtimoiy barqarorligini, madaniy boyligini va innovatsion salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Bag'rikenglik (Tolerantlik) – ijtimoiy-axloqiy kategoriya sifatida boshqa insonlarning dunyoqarashi, turmush tarzi, xulq-atvori va odatlariga nisbatan sabr-

toqatli, hurmatli va tushunish bilan munosabatda bo'lishni anglatadi. Bag'rikenglik, boshqa odamlarning fikrlari va e'tiqodlari o'zimiznikidan farq qilgan taqdirda ham, ularni qabul qilish, tan olish va hurmat qilishni nazarda tutadi.

Harbiy xizmat sohasida millatlararo totuvlikni ta’minlashda empatiya muhim ahamiyat kasb etadi. Aksiologik yondashuv nuqtai nazaridan empatiya insoniy qadriyatlarning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, boshqalarning his-tuyg‘ularini anglash, ularga hamdardlik bildirish va o‘zaro hurmatni ifodalaydi. Harbiy xizmatchilar uchun empatiya nafaqat shaxsiy fazilat, balki kasbiy kompetensiya sifatida ham muhimdir. Empatiya harbiy xizmatchilarga turli madaniy va etnik kelib chiqishga ega bo‘lgan odamlar bilan samarali muloqot qilish, ularning qadriyatlari va e’tiqodlarini tushunish va hurmat qilish imkonini beradi. Bu esa o‘zaro ishonch va hamkorlik muhitini yaratishga, nizolarni oldini olishga va tinchlikni saqlashga xizmat qiladi. Aksiologik jihatdan empatiya rivojlangan harbiy xizmatchilar o‘z xizmat vazifalarini bajarishda adolatli va xolis bo‘ladilar, inson huquqlarini hurmat qiladilar va boshqalarga nisbatan bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘ladilar. Ular turli madaniyat va din vakillari bilan muloqotda madaniy sezgirlikni namoyon etadilar va stereotiplardan qochadilar. Shuning uchun ham bo‘lajak harbiy xizmatchilarni tayyorlashda empatiyani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Buning uchun rolli o‘yinlar va simulyatsiyalar, muhokama va munozaralar, adabiyot va san’at, o‘z-o‘zini anglash va refleksiya kabi usullar qo‘llanilishi mumkin. Rolli o‘yinlar va simulyatsiyalar orqali kursantlar turli millat vakillari bilan muloqot qilish vaziyatlarini modellashtirishlari va empatiya ko‘nikmalarini amalda qo‘llashlari mumkin. Turli madaniyat va qadriyatlar haqida muhokama qilish orqali kursantlarda bag‘rikenglik va o‘zaro tushunishni rivojlantirish mumkin. Badiiy asarlar va filmlar orqali kursantlar boshqa madaniyatlar bilan tanishishlari va ularga nisbatan empatiya hissiyotlarini rivojlantirishlari mumkin. Kursantlar o‘zlarining qadriyatlari, e’tiqodlari va xurofotlarini anglashlari va ularning boshqalarga bo‘lgan munosabatiga qanday ta’sir qilishini tahlil qilishlari kerak. Xulosa qilib aytganda, empatiya harbiy xizmatchilar uchun muhim kasbiy ko‘nikma bo‘lib, millatlararo totuvlikni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Empatiyani rivojlantirish bo‘lajak harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligining ajralmas qismi bo‘lishi va ularning xizmat faoliyati davomida ham takomillashtirib borilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (1999). Learning together and alone: Cooperative, competitive, and individualistic learning
2. O‘zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘grisidagi Prezident Farmoni PF–47-49-son. 07.02.2017.
3. Empathy: A Social Psychological Approach, Mark H. Davis

Research Science and Innovation House

HARBIY XIZMATCHILARDA INSONPARVARLIK QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISH ORQALI EMPATIK MUNOSABATNI RIVOJLANTIRISH

Toshmatov Rustamjon Muydinjon O’g’li
Namangan pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola harbiy xizmatchilarda insonparvarlik qadriyatlarini shakllantirish orqali empatik munosabatni rivojlantirish masalalarini o'rganadi. Maqolada nazariy tahlillar va amaliy tadqiqotlar asosida harbiy xizmatchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashning samarali usullari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Harbiy xizmatchilar, insonparvarlik qadriyatlari, empatiya, empatik munosabat, axloqiy ta'lim, adabiyot va san'at, rolli o'yinlar, muhokamalar, interfaol metodlar, jangovar tayyorgarlik, millatlararo totuvlik.

Abstract: This article examines the issues of developing empathetic attitudes through the formation of humanitarian values in military personnel. The article considers effective methods of educating military personnel in the spirit of humanity based on theoretical analysis and practical research.

Keywords: Military personnel, humanitarian values, empathy, empathetic attitude, moral education, literature and art, role-playing games, discussions, interactive methods, combat training, interethnic harmony.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы развития эмпатийных установок посредством формирования гуманитарных ценностей у военнослужащих. В статье на основе теоретического анализа и практических исследований рассматриваются эффективные методы воспитания военнослужащих в духе гуманизма.

Ключевые слова: Военнослужащие, гуманитарные ценности, эмпатия, сопереживающее отношение, нравственное воспитание, литература и искусство, ролевые игры, дискуссии, интерактивные методы, боевая подготовка, межнациональное согласие.

Xozirgi kunda jamiyatimizning barcha sohalari kabi, harbiy ta’lim-tarbiya tizimida ham innovatsion yangilanishlar zarur. Ayniqsa, harbiy xizmatchilarda insonparvarlik qadriyatlarini shakllantirish va empatik munosabatni rivojlantirishda

zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Yillar davomida shakllangan an’anaviy tizim, ta’lim jarayonidagi eskirgan yondashuvlar va tarbiyadagi biryoqlamalik bu borada katta yutuqlarga erishishga to‘sqinlik qilmoqda. Bo‘lajak harbiy xizmatchilarni, ayniqsa ofitserlarni, nafaqat jismonan baquvvat, balki ma’nan va ruhan barkamol, insonparvarlik qadriyatlariga ega, tinchlik va jamoat tartibini ta’minlashga qodir, nostandart vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan, chidamli va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, harbiy pedagogik tarbiyada innovatsion talablarni qo‘llashni, xususan, insonparvarlik va empatiyani rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy metodlarni joriy etishni taqozo etadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari, interfaol o‘yinlar, simulyatsiyalar, virtual va kengaytirilgan reallik kabi vositalardan foydalanish orqali harbiy xizmatchilarda insoniylik, mehr-shafqat, bag‘rikenglik kabi insonparvarlik qadriyatlarini singdirish, ularni Vatanga sadoqat, burch va mas’uliyat ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish mumkin. Masalan, virtual reallik texnologiyalari orqali harbiy xizmatchilar turli xil konfliktli vaziyatlarni modellashtirishlari va ushbu vaziyatlarda insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishlari mumkin. Interfaol o‘yinlar orqali esa jamoa bilan ishlash, hamkorlik va o‘zaro yordam kabi qadriyatlarni rivojlantirish mumkin. Shuningdek, harbiy xizmatchilarda empatiyani rivojlantirish uchun adabiyot, san’at, tarix va falsafadan keng foydalanish, turli madaniyat va din vakillari bilan muloqot qilish imkoniyatlarini yaratish lozim. Bu ularga boshqa odamlarning his-tuyg‘ularini tushunish, ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lish va millatlararo totuvlikni ta’minlashda yordam beradi. Harbiy xizmatchilarda insonparvarlik qadriyatlari va empatik munosabatni rivojlantirish uchun harbiy ta’lim-tarbiya tizimini innovatsion texnologiyalar va zamonaviy metodlar bilan boyitish, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan kompleks yondashuvni qo‘llash zarur. Shuningdek, tanqidiy fikrlash, axborot xavfsizligi va media savodxonligini rivojlantirish ham bo‘lajak harbiy xizmatchilarni tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. Bu maqsadga erishish uchun eng zamonaviy pedagogik, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan, jumladan, yetakchi jamoat tashkilotlari, olimlar, mutaxassislar, yoshlar ittifoqi, madaniyat va san’at namoyandalarining kuch va imkoniyatlaridan keng foydalanish lozim. Milliy gvardiya ta`lim muassasalarining kursant va tinglovchilarini ma’naviyaxloqiy jihatdan yetuk, intellektual salohiyatli va jismonan baquvvat vatanparvar qilib tarbiyalashda eng avvalo ularda o‘z tarixini mukammal o‘rganish, Vatan himoyachisi ekanligidan g‘urur tuyg‘usini uyg‘otish,

jangovar qobiliyati va tafakkurini yuksaltirishga erishish lozim. Shu maqsadda Respublikamiz Prezidentining 2018-yil 4-avgustda “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi maxsus qarori imzolandi. Bu qarorda asosan tizimda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘unlashgan zamonaviy ta’limtarbiyani innovatsion usullarini joriy etish va eng muhimi har qanday ta’sirlarga chidamli, burchiga sadoqatli, yuqori professional harbiy xizmatchi va xodimlarni, barkamol kadrlarni tarbiyalash maqsad qilib qo‘yilgan. Ushbu qarorga ilova tarzida tizimda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Konsepsiyada “Vatan – muqaddas, uni himoya qilish sharafli burchdir!” degan tayanch konseptual g‘oya asosida barcha ma’naviy-ma’rifiy ishlar tashkillashtirilishi nazarda tutilgan. Konsepsiyada harbiy xizmatchi hamda xodimlarning, xususan, kursantlar va tinglovchilarning ma’naviy saviyasi va aqliy salohiyatini yuksaltirish va boy madaniy merosimiz, qadriyatlarimiz va an’analarimiz singdirilgan dunyoqarashni shakllantirishga yo‘naltirilgan yagona tizimni yaratish asosiy vazifalardan bo‘lib, bu ta’lim-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirishni talab etadi. O‘z milliy qadriyatlarini e’zozlamaslik, tarixini mukammal bilmaslik shaxsda menlik qadrqimmatini susaytiradi. Bugun butun dunyoda kechayotgan globallashuv jarayoni yoshlarimiz tafakkuri, ong-shuurida o‘zgarishlar qilib, ommaviy madaniyat yoppasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatib ulgurdi. Internet tarmoqlarining salbiy ta’siri yoshlar psixikasiga o‘z bosimini o‘tkazdi. Milliy o‘zlikni anglash anchagina susaydi. Buning natijasi o‘laroq, yoshlar dunyoqarashi qashshoqlashdi. Ma’lumotlar rang barang, ko‘p. Ammo saviyasi pasaydi. Bu esa ularda beqarorlik, yuzaki fikrlash, fidoiylik, g‘urur, sha’n tushunchalarini pasayishi kabi muammolarni keltirib chiqardi. Harbiy xizmatchi va xodimlarning yelkasiga Vatan himoyasi, xalq qalqoni kabi mas’uliyatni olgan, qo‘lida quroli bor shaxs. U qanchalar jismonan baquvvat bo‘lmasin, ma’nan, ruhan kuchli bo‘lmasa, dunyoqarashida vatanparvarlik ustivor bo‘lmasa, nostandart holatlar uchun tayyor hisoblanmaydi, demakki bugungi beqaror dunyo siyosati, zamonaviy urushlar talabiga javob bermaydi. Shuning uchun harbiy ta’limda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishni takomillashtirish, rejadan tashqari ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni ko‘paytirish va albatta ularning ta’sirini kuchaytirishga e’tibor qaratilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tizimida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchi va xodimlarning o‘z kasbi va vazifasi bilan faxrlanishi va ularda

mamlakatimiz himoyasini mas’uliyat bilan amalga oshirish tuyg‘ularini tarbiyalash kerak. Mamlakatimizda kechayotgan o‘zgarishlar, islohotlar va yon-atrofimizda bo‘layotgan siyosiy, ijtimoiy o‘zgarishlarni ongli ravishda tahlil qilib, munosabat bildira olish, eng e’tiborlisi, tafakkuri ila o‘zini va jarayonlarni tahlil qilish va faoliyat yuritish, o‘z fikriga ega bo‘lish va uni ilgari sura bilish qobiliyatlari rivojlantirilishi talab etilmoqda. Jangovar va safarbarlik tayyorgarligini, har qaysi harbiy xizmatchi va xodim ongida uning o‘z fikri, atrofida kechayotgan voqealarga daxldorlik tuyg‘usini mustahkamlash, yuksak axloqiy va ma’naviy fazilatlarni, faol hayotiy pozitsiyaga egalik va vatanparvarlik hissini tarbiyalash, “O‘zbekiston xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi!” degan e’tiqodga ega bo‘lishlari uchun milliy ilmiy merosimiz, tarbiyaviy an’analarimiz, jahonga mashhur xalq qahramonlarimiz tarixini o‘rganib, ulardek mard, jasur bo‘lishga intilish sifatlarini rivojlantirish lozimdir. “O‘zini Vatan farzandi deb hisoblovchi odam butun tanu joni bilan unga xizmat qilishi kerak” [1]. Demakki Bo’lajak harbiy xizmatchilarga aynan “Vatan farzandi” g‘oyasini singdirishimiz lozim.

Bo’lajak harbiy xizmatchilarni harbiy vatanparvarlik tarbiyasiga yangicha yondashish lozim. Harbiy xizmatchi va xodimlar uchun adabiyot emas, jangni o‘rganish zarur, degan qarashlarni o‘zgartirish kerak. Negaki urushlar qiyofasi o‘zgarmoqda. Zamonaviy urushlarning har qanday turi bevosita shaxsning ma’naviyati, dunyoqarashi va ruhiyati bilan bog‘liq. Harbiy xizmatchi va xodimlarning ruhiy jihatdan chidamli bo‘lishi qanchalar ahamiyatli ekanligi haqida mamlakatimiz Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoev Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tartibdagi majlisida alohida urg‘u berib: “..shaxsiy tarkib ma’naviy jihatdan zaif bo‘lsa, ya’ni askar va ofitserlarimizda jangovar ruh, Vatanga mehr va sadoqat, uning taqdiri uchun mas’uliyat bo‘lmasa yoki ularning o‘rtasida beparvolik hukm sursa, bunday holat nihoyatda noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin” [2] deya e’tibor qaratdilar. Darhaqiqat, jismonan qanchalar kuchli bo‘lmasin, qo‘lida eng yaxshi qurol bo‘lmasin, ruhan va ma’nan qurollanmagan askar jangda nafaqat ish bermaydi, hatto zarar keltiradi. Demak ma’naviyatni boyitish eng asosiy ishimiz hisoblanadi. Ma’naviyatni ozuqasi bu birinchi o‘rinda badiiy adabiyot va diniy bilim hisoblanadi [3]. Badiiy adabiyot: asotiru ertaklardan boshlab romanlargacha insonni to‘g‘ri yashashga, insoniy fazilatlarni rivojlantirishga, vatanparvarlik, mardlik tuyg‘ularini mukammallashuviga bebaho ta’sir kuchiga ega. Bu kuch hech qachon susaymaydi. Shuning uchun yoshlarda kitobga mehr va ishonchni berish zarur.

Adabiyot milliy armiyamiz saflarida xizmat qilayotgan barcha harbiy xizmatchi va xodimlarni ruhlantiruvchi, milliy g‘ururni yuksaltiruvchi, shuning barobarida, vatanparvar sodiq himoyachini tarbiyalovchi kuchga ega. Bu kuchdan esa o‘z o‘rnida foydalanish har zamonda har sohada o‘z natijasini bergan [4].

Xulosa qilib aytganda, Vatan taqdiri, uning tinchligi va xavfsizligi ko‘p jihatdan Vatan himoyachilarining, ya’ni harbiy xizmatchilarning ma’naviy-ruhiy kamoloti, kasbiy mahorati va insonparvarlik fazilatlariga bog‘liq. Milliy davlatchilik an’analarimizni asrab-avaylash, mamlakatimiz sarhadlari daxlsizligi va xavfsizligini ta’minlashdek sharafli burchni ado etishda harbiy xizmatchilarda insonparvarlik qadriyatlari va empatik munosabatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarimizda, bo‘lg‘usi harbiy xizmatchilarda yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ularni erkin fuqarolik jamiyati barpo etish yo‘lida birlashtirish, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi yo‘lida sadoqat bilan xizmat qilish sharafli burch ekanligini singdirish bilan birga, ularning qalbida insonparvarlik tuyg‘ularini uyg‘otish, boshqalarga nisbatan hamdardlik va mehr-oqibat hissini kuchaytirish, empatiya qobiliyatini rivojlantirish zarur. Zero, insonparvarlik va empatiya harbiy xizmatchilarga o‘z xizmat vazifalarini bajarishda adolatli va xolis bo‘lish, inson huquqlarini hurmat qilish, turli millat va elat vakillari bilan bag‘rikenglik va o‘zaro hurmat asosida muloqot qilish imkonini beradi. Bu esa, nafaqat armiya saflarida, balki butun jamiyatda millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Demak, harbiy xizmatchilarni tayyorlashda insonparvarlik qadriyatlari va empatiyani rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, ularning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga alohida e’tibor qaratish bizning oliy maqsadimiz bo‘lishi lozim.

Foydalanilggan adabiyotlar:

1. Sh.Mardonov, B.Xodjayev, Sh.Taylanova, D.Xojimuxamedova. Pedagogik aksiologiya *(o'quv qo'llanma)* -T.: «Fan va texnologiya», 2013, b-184

2. Shavkat Mirziyoyev, Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tartibdagi majlisidagi nutq. Vatanparvar, 13 yanvar 2018 yil.

3. G.Shoumarov, B.Umarov, F.Akromova. Yoshlarda xulq ogishi va tarbiya buzilishining oldini olish bo`yicha psixologik maslahatlar. Uslubiy qo`llanma. T- 2015

4. Reason and Being (Boston Studies in the Philosophy of Science, Vol. 17). By B. G. Kuznetsov. ISBN 90 277 21815. Reidel, Dordrecht, 1987. xx + 442 pp.

MIGRATSIYA JARAYONIDA BOLALARNING MOSLASHUVCHANLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Eshonjonov Bobir Zafarjonovich
Guliston Davlat Universiteti tadqiqotchisi
eshonjonovbobur@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola migratsiya jarayonida bolalarning moslashuvchanlik kompetensiyalarini shakllantirish masalasiga bag'ishlangan. Migratsiya bolalar hayotida sezilarli o'zgarishlarga olib kelishi, ularning psixologik va ijtimoiy holatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Maqolada moslashuvchanlik kompetensiyasining mohiyati, uning tarkibiy qismlari, migratsiya jarayonida bolalarga ta'sir etuvchi omillar va moslashuvchanlikni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Migratsiya, bolalar, moslashuvchanlik, kompetensiya, psixologik moslashuv, ijtimoiy moslashuv, ta'lim, oila, madaniyat.

Abstract: This article is devoted to the issue of the formation of children's adaptive competencies in the process of migration. Migration can lead to significant changes in the lives of children, affecting their psychological and social state. The article considers the essence of adaptive competencies, its components, factors affecting children in the process of migration, and recommendations for developing adaptive competencies.

Keywords: Migration, children, adaptive competencies, psychological adaptation, social adaptation, education, family, culture.

Аннотация: Статья посвящена проблеме формирования адаптивных компетенций детей в процессе миграции. Миграция может внести существенные изменения в жизнь детей, повлияв на их психологическое и социальное благополучие. В статье рассматривается сущность компетенции жизнестойкости, ее компоненты, факторы, влияющие на детей в период миграции, и рекомендации по формированию жизнестойкости.

Ключевые слова: Миграция, дети, адаптивность, компетентность, психологическая адаптация, социальная адаптация, образование, семья, культура.

XX asr oxiri – XXI asr boshlari jahon migratsiya jarayonlarining eng rivojlangan davri bo‘lib, migratsiyaning nafaqat turli yo‘nalishlari, balki shakllari ham tubdan o‘zgarib, ko‘pgina mamlakatlarda taraqqiyotning chuqurlashishida ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik, huquqiy omillarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsata boshladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining UNICEF bolalar jamg‘armasi tomonidan 2018-2020-yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, bolalarning 33 % ga yaqini ota-onalarining migratsiyaga chiqib ketishlari bilan o‘zlarini baxtsiz, 21 % i esa xavotirlanish tuyg‘usini his qiladilar. Mehnat migrantlari oilalarida kamida 2 ta bola (45 %) vasiylikda qoldiriladi, 63 % holatda bunday oilalarda bolalar onalari bilan yashaydilar. Ota-onasi yoki ulardan biri mehnat migratsiyasiga chiqib ketgan bolalarning 33 % ida uydagi majburiyatlari ortganligini ko‘rsatgan [1]. Bu esa migrant oilada tarbiyalanayotgan bolalarning qator individual-psixologik, individual-tipologik xususiyatlarini, ularning psixofiziologik rivojlanish dinamikasini, hissiy-irodaviy hamda bilish jarayonlarining norentabelligining psixologik oqibatlarini, bolalarda o‘zini anglash va hissiy beqarorlikning shakllanib qolishini, kundalik kayfiyatning o‘zgaruvchanligini hamda psixoemotsional zo‘riqishlarga beriluvchanlikni hamda o‘z yaqinlariga nisbatan frustratsiyaning shakllanish mexanizmlarini psixologik tahlil etish zaruratini yuzaga keltiradi. Bunday vaziyatlarda bolalarning moslashuvchanlik kompetensiyalarini shakllantirish, ularning psixologik barqarorligini ta'minlash va yangi sharoitlarga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga ko'maklashish muhim ahamiyatga ega. O’zbekiston o’zining demografik xususiyatlari va ko’p yillik an’analari tufayli bugungi kunda aholining 60 foizdan ortig’ini bolalar va yoshlar tashkil etadigan mamlakat hisoblanadi. Bolalar va oilalarga har tomonlama yordam ko’rsatish uchun safarbar etilgan vazirliklar va idoralarning keng tarmoqli tizimi orqali bolalar himoya qilinadi. Shu nuqtai nazardan, migratsiya jarayonida bolalarning moslashuvchanlik kompetensiyalarini shakllantirish O’zbekiston uchun ham dolzarb masala hisoblanadi. Bu borada ta’lim muassasalari, psixologik xizmatlar va ijtimoiy tashkilotlar hamkorlikda ish olib borishi, bolalarga psixologik yordam ko’rsatish, ularning ijtimoiy aloqalarini qo’llab-quvvatlash va madaniy integratsiyalashuviga ko’maklashishi zarur.

F.Parmonov olib borgan tadqiqot ishida migratsiya jarayoni qadriyatlar taransformatsiyasiga sabab bo‘lishini ta’kidlagan [2]. Ma’lumki, har bir xalqning diniy, axloqiy va milliy qadriyatlar tizimi mavjud. O‘zbekiston aholisining ham o‘z milliy qadriyatlar tizimi mavjudligiga qaramay, migratsiyaga ketgan erkak yoki ayol o‘zga millat qadriyatlar tizimini qisman xulq-atvorida shakllantiradi. Migrant vataniga qaytgach, albatta, o‘zlashtirgan qadriyatlar tizimini oilasida joriy qila boshlaydi. O‘zlashtirilgan qadriyatlar kelajak avlod uchun salbiy ta’sir qilayotgan globallashuv davrida o‘zini ko‘rsatmoqda [3]. Hozirgi kunda yurtimizda nafaqat mehnat migratsiyasi, balki ta’lim, sog‘liqni tiklash, kasb egallash maqsadida va hatto nikoh migratsiyasi ham rivojlanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligima’lumotlariga ko‘ra, 2022-yil 1-mart holatida 2 million 356 nafar yurtdoshimiz mehnat muhojirisifatida chet elda mehnat qilmoqda. Biroq bu sonlarni migrantlarni haqiqiy, deb ayta olmaymiz, chunki noqonuniy migrantlar ham juda ko‘pchilikni tashkil qiladi [4].

Oila yoki jamoat doirasida bolalar migratsiya jarayonida turli ijtimoiy omillar bilan bog‘liq qiyinchiliklarga duch keladilar. Ushbu jarayonning murakkabligi va bolaning ijtimoiy muhitga moslashishidagi quyidagi jihatlarni alohida ta'kidlash lozim:

• Yangi muhitga ko'chish bolalarda stress va tashvishni oshirishi mumkin. Ular o'zlarining tanish muhitidan ajralishi va yangi do'stlar orttirishdagi qiyinchiliklarni his qilishlari mumkin. Bu ularning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va moslashuvchanlik qobiliyatini susaytirishi mumkin.

• Bolalar yangi madaniyat va til bilan tanishishda o'z kimligini qanday saqlashni o'ylashlari mumkin. Bu ularning shaxsiyati va o'ziga bo'lgan ishonchiga ta'sir qilishi mumkin. Madaniy o'zlikni saqlash va yangi madaniyatga integratsiyalashuv o'rtasidagi muvozanatni topish bolalar uchun muhim vazifa hisoblanadi.

• Bolalar uchun yangi muhitda do'stlar orttirish qiyin bo'lishi mumkin. Ular ijtimoiy muhitdagi tarzdosh yoki madaniy farqlarni qabul qilish, jalb etish va hamkorlikni boshqarish uchun astoydil harakat qilishlari kerak [5]. Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish va tengdoshlar bilan munosabatlarni o'rnatish bolalarning moslashuvchanlik kompetensiyasini oshirishga yordam beradi.

• Yangi maktabga kirish, yangi o'qituvchilar va sinfdoshlar bilan tanishish mushkul bo'lishi mumkin. Ta'lim jarayoniga moslashish va o'z bilimlarini rivojlantirish bolalarning ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli kirishlari uchun muhimdir. Ta'lim

muassasalarida bolalarning moslashuvchanlik qobiliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish zarur.

• Bolalar har doim yangi madaniyatni qabul qilmasliklari mumkin, shuning uchun bu jarayon gradual bo'lishi zarur. Ular o'z madaniyatlarini saqlab qolishni xohlagan holda, yangi madaniyatni qabul qilish uchun qulay sharoit yaratish muhimdir. Madaniy bag'rikenglikni targ'ib qilish va turli madaniyatlarning o'zaro hurmatini ta'minlash bolalarning moslashuvchanlik qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

• Ota-onalar va jamiyat bolalarning ijtimoiy moslashishida muhim rol o'ynaydi. Oila va jamiyatning qo'llab-quvvatlashi bolalarning yangi muhitga moslashishini osonlashtirishi mumkin. Ota-onalarni qo'llab-quvvatlash, ularga maslahatlar berish va ularni ta'lim dasturlariga jalb qilish bolalarning muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlashga yordam beradi.

• Bolalarga ijtimoiy muhitga moslashish jarayonida psixologik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash zarur. Guruh mashg'ulotlari, psixologik konsultatsiyalar va do'stlar bilan muloqot ularga yordam berishi mumkin. Maktab psixologlari va ijtimoiy xodimlarning xizmatlari bolalarga stressni yengishga, o'ziga ishonchni oshirishga va ijtimoiy aloqalarni o'rnatishga yordam beradi.

• Maktabdagi til ta'limi orqali bolalar yangi tilni o'rganish va ijtimoiy muhitga kirishni osonlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Til bilish qobiliyati bolalarga yangi do'stlar orttirishga, ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishga va jamiyat hayotida faol ishtirok etishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, migratsiya jarayonida bolalarning moslashuvchanlik kompetensiyalarini shakllantirish – bu ko'p qirrali va murakkab vazifa bo'lib, bolaning psixologik, ijtimoiy, madaniy va ta'lim sohalaridagi ehtiyojlarini inobatga olishni, shuningdek, oila, ta'lim muassasalari va jamiyatning keng ko'lamli hamkorlikdagi harakatlarini talab qiladi. Ushbu sa'y-harakatlar bolalarning yangi muhitga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta'minlashga, ularning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga va ularning jamiyatga to'laqonli a'zo bo'lishlariga imkon yaratishga qaratilgan bo'lishi lozim.Xulosa qilib aytganda, migratsiya jarayonida bolalarning ijtimoiy muhitga moslashishi murakkab va ko‘p qirralidir. Ota-onalar, o'qituvchilar va jamiyatning faol ishtiroki, mahalliy jamiyat va tashkilotlar migrant bolalarga yordam berish va ularni ijtimoiy hayotga integratsiyalashish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqishlari bolalarning yangi sharoitda o'zlarini qulay his etishlari va ijtimoiy jihatdan muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun muhim hisoblanadi. Ijtimoiy

moslashuv jarayoni bolalarni yanada kuchli va moslashuvchan shaxslar qilib tarbiyalashda yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdusamatov H.U. Migrant Oilalarning ijtimoiy-psixologik muammolari va yechimlari. –Toshkent,2022.
2. Parmonov F., To‘rayev Sh., Daminov I. Migratsiya: musofir vatangadolar. – Toshkent: “Sano-standart” nashriyot, 2015. – 112 b.
3. Xodjayev B.X. “Pedagogik aksiologiya” o’quv qo’llanma. T. “Fan va texnologiya”, 2011. - 156 bet.
4. Majidova D.A., Xusanova D.F., Bazarov A.A. Mehnat migrantlari olilalarida shaxslararomunosabatlarning pedagogik-psixologik omillari. – Toshkent: “Fan va texnalogiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2021.
5. Alimov S. Aholi migratsiyasi ijtimoiy-axloqiy muhit transformatsiyasi omili sifatida. –Toshkent,2022.

Research Science and Innovation House

MIGRANT O’QUVCHILARDA PEDAGOGIK QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA TA’LIM MUASSASASINING O’RNI.

Eshonjonov Bobir Zafarjonovich
Guliston Davlat Universiteti tadqiqotchisi
eshonjonovbobur@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola migrant o'quvchilarda pedagogik qadriyatlarni shakllantirishda ta'lim muassasasining o'rnini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada pedagogik qadriyatlarning mohiyati, migrant o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim muassasasining vazifalari va pedagogik qadriyatlarni shakllantirish bo'yicha tavsiyalar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Migrant o'quvchilar, pedagogik qadriyatlar, ta'lim muassasasi, madaniy integratsiya, ta'lim, tarbiya, o'qituvchi, madaniy xilma-xillik, ijtimoiy moslashuv.

Abstract: This article is devoted to the study of the role of the educational institution in the formation of pedagogical values in migrant students. The article considers the essence of pedagogical values, the specific characteristics of migrant students, the tasks of the educational institution and recommendations for the formation of pedagogical values.

Keywords: Migrant students, pedagogical values, educational institution, cultural integration, education, upbringing, teacher, cultural diversity, social adaptation.

Аннотация: Статья посвящена изучению роли образовательного учреждения в формировании педагогических ценностей у студентов-мигрантов. В статье рассматриваются сущность педагогических ценностей, специфика студентов-мигрантов, задачи образовательного учреждения, рекомендации по формированию педагогических ценностей.

Ключевые слова: Студенты-мигранты, педагогические ценности, образовательное учреждение, культурная интеграция, образование, воспитание, учитель, культурное разнообразие, социальная адаптация.

Jahondagi ishchi kuchi donorlari va retsipientlarining iqtisodiy rivojlanishida muhim omillardan biri bo‘lgan xalqaro mehnat migratsiyasi mamlakatlarda mehnat resurslari balansini optimallashtirish va mahalliy mehnat bozordagi bosimni

yumshatishda muhim rol o‘ynamoqda. Migratsiya bo‘yicha xalqaro tashkilot 2022-yilda 281 mln kishi o‘z vatanidan tashqarida yashashini, ularning 169 mln.i aynan mehnat migrantlari ekanligini hamda ularning 67,9 foizi yuqori daromadli va 18,6 foizi o‘rta daromadli mamlakatlarda to‘planganligini ma’lum qiladi [1]. Xalqaro migrantlar tarkibida yakka o‘zi migratsiyani amalga oshirgan insonlar bilan birgalikda, oila a’zolari bilan migratsiya qilgan migrantlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Oila a'zolari bilan migratsiya qilgan migrantlar orasida esa migrant o'quvchilar alohida o'rin tutadi. Migrant o'quvchilarning yangi ta'lim muhitiga moslashuvi, ularning pedagogik qadriyatlarni o'zlashtirishi va sifatli ta'lim olishi ta'lim muassasalarining diqqat markazida bo'lishi lozim. Ta'lim muassasalari migrant o'quvchilarning madaniy o'ziga xosligini hurmat qilgan holda, ularga mahalliy pedagogik qadriyatlarni singdirishi, jamiyatga integratsiyalashuviga ko'maklashishi va kelajakda jamiyatga foydali a'zo bo'lib yetishishlari uchun sharoit yaratishi zarur. Shu nuqtai nazardan, migrant o'quvchilarda pedagogik qadriyatlarni shakllantirishda ta'lim muassasasining o'rnini o'rganish dolzarb ahamiyatga ega.Xalqaro migratsiya tashkiloti hisobotiga ko‘ra, 2022-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) mamlakatlariga tashrif buyurgan migrantlarning 40 foizi aynan oilaviy sabablarga ko‘ra tashrif buyurgan va ushbu ko‘rsatkich 2,2 mln. migrantni tashkil qildi[1].

Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot» nomli ilmiy ishlar to'plamida “Qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlaming manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim”, deb ta'kidlab o'tilgan [3]. Bolalar asosiy vaqtini ta’lim dargoxida o’tkazganligi uchun ularda qadryatlarning shakllanib borishi ta’lim olayotgan dargohi va ta’lim berayotgan pedagoglarga chambarchas bog‘liqdir. Bunda pedagogning migrant oilalar farzandlarida qadriyatlarni shakllantirishdagi roli:

- Madaniyatlararo vositachi: Pedagog o'quvchilar o'rtasida o'zaro tushunishni mustahkamlashga, turli madaniyatlarga hurmat bilan qarashga yordam berishi kerak. Bu borada yurtimizda baynalminal madaniyat markazi tashkil etilgan bo’lib bu markaz har yili ko‘p millatli O’zbekiston aholisi uchun turli xil tadbirlarni tashkil eadi.

[1] IOM GMDAC 2023, migrationdataportal.org

• Psixologik qo'llab-quvvatlash: Pedagog bolalarning psixologik holatini kuzatishi, ularga stressni yengishda, o'ziga ishonchni shakllantirishda va ijtimoiy moslashuvda yordam berishi kerak.

• Til o'rgatuvchi: Pedagog bolalarga yangi tilni o'rganishda yordam berishi, ularning til ko'nikmalarini rivojlantirishlari uchun sharoit yaratishi kerak.

• Ota-onalar bilan hamkor: Pedagog ota-onalar bilan muntazam ravishda aloqada bo'lishi, ularning madaniy va ta'limiy ehtiyojlarini tushunishi, bolalarni tarbiyalashda ularga maslahatlar berishi kerak.

• Qadriyatlarni singdiruvchi: Pedagog o'quvchilarga milliy, diniy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishi, ularning axloqiy kompasini shakllantirishda yordam berishi kerak.

Pedagoglar tomonidan quyidagi texnologiyalar va metodlar orqali ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo’ladi:

• Interaktiv metodlar: Guruhlarda ishlash, munozaralar, loyihalar, o'yinlar va boshqa interaktiv metodlar o'quvchilarni faol ishtirok etishga, o'z fikrlarini ifoda etishga va boshqalarning fikrlarini hurmat qilishga o'rgatadi.

• Madaniyatlararo ta'lim: Turli madaniyatlar haqida ma'lumot berish, ularning o'xshash va farqli jihatlarini o'rganish, o'quvchilarda tolerantlik va hurmat hissini uyg'otadi. Tarix, geografiya, tarbiya darslarida boshqa millatlar madaniyatlariga darslarni bog’lab o’tish, migrant bolalarda qadryatlarga bo’lgan qiziqishni uyg’otadi.

• Integratsiyalashgan ta'lim: O'quv dasturiga milliy madaniyat elementlarini kiritish, o'quvchilarda o'z milliy o'zligini saqlashga va yangi madaniyatga moslashishga yordam beradi.

• Multimedia vositalari: Filmlar, videolar, prezentatsiyalar va boshqa multimedia vositalari o'quvchilarga turli madaniyatlar bilan tanishishga, ularning qadriyatlarini tushunishga va vizual tasavvurga ega bo'lishga yordam beradi.

Muvaffaqiyatli tajribalar:

• Turli mamlakatlarda migrant oilalar farzandlari bilan ishlaydigan muvaffaqiyatli ta'lim dasturlari va loyihalari mavjud. Ushbu dasturlarning tajribasini o'rganish va O'zbekiston sharoitiga moslashtirish mumkin.

• Migrant oilalar farzandlari uchun maxsus maktablar va sinflar tashkil etish, ularning ta'lim olishlari uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish mumkin.

• Migrant oilalar bilan ishlaydigan pedagoglarni tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha maxsus kurslar tashkil etish mumkin.

Migrant oilalar farzandlari bilan ishlaydigan muvaffaqiyatli ta'lim dasturlari va loyihalari quyidagilardan iborat.

1. Ikki tilli ta’lim dasturlari (Bilingual Education Programs): Migrant bolalarning ona tilini saqlagan holda yangi tilni (yashab turgan davlat tili) o'rganishlariga yordam berish. Bolalar o'z madaniy merosidan uzilib qolmaydilar, yangi tilni osonroq o'zlashtiradilar va maktabda yaxshiroq natijalarga erishadilar. Masalan, AQSh: Ko'plab shtatlarda ispan tilida so'zlashuvchi bolalar uchun ikki tilli ta'lim dasturlari mavjud. Kanada: Fransuz va ingliz tillarida ta'lim beradigan maktablar mavjud bo'lib, immigrant bolalar uchun ham imkoniyatlar yaratilgan [4].

2. Madaniy moslashuv dasturlari (Cultural Adaptation Programs): Migrant bolalarning yangi madaniyatga moslashishlariga yordam berish, ularning o'ziga ishonchini oshirish va diskriminatsiyaga qarshi urashishi: Bolalar yangi jamiyatda o'zlarini qulay his qiladilar, tengdoshlari bilan munosabatlarni oson o'rnatadilar va madaniy to'siqlarni yengadilar. Ko‘pgina migratsiya rivojlangan mamlakatlarda migrant bolalarni ijtimoiy muxitga moslashtirish uchun tadbirlar o’tkaziladi va bu tadbirlar o’z samarasini bergan. Masalan, Avstraliya: "Harmony Day" kabi tadbirlar o'tkazilib, turli madaniyatlar vakillari o'zaro hamjihatlikda yashashga o'rgatiladi [5]. Yevropa Ittifoqi: "Erasmus+" dasturi orqali talabalar va o'qituvchilar turli mamlakatlarga borib, madaniy tajriba almashadilar.

3. Qo'llab-quvvatlash va mentorlik dasturlari (Support and Mentoring Programs): Migrant bolalarga maktabda va jamiyatda muvaffaqiyatga erishishlariga yordam berish, ularga rol o'rnagi bo'ladigan mentorlar biriktirish. Bolalar o'ziga ishonadilar, maqsadlar qo'yadilar va ularga erishish uchun harakat qiladilar, muammolarni yechishda yordam oladilar. Misol uchun, Big Brothers Big Sisters (AQSh): Kattalar ko'ngillilar bolalarga do'st bo'lib, ularga o'rnak ko'rsatadilar va hayotiy masalalarda yordam beradilar [6].

4. Ota-onalarni jalb qilish dasturlari (Parent Involvement Programs): Migrant ota-onalarni bolalarning ta'lim jarayoniga jalb qilish, ularning maktab bilan hamkorligini mustahkamlash va farzandlarining muvaffaqiyatiga ko'maklashish. Ota-onalar bolalarning ta'limiga ko'proq e'tibor beradilar, maktab bilan yaxshiroq aloqa o'rnatadilar va farzandlarining o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradilar. Masalan HIPPY (Home Instruction for Parents of Preschool Youngsters): Ota-onalarga bolalarni maktabga tayyorlash uchun materiallar va o'yinlar bilan ta'minlaydi. PTA (Parent

Teacher Association): Ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi va maktabni qo'llab-quvvatlaydi.

5. Resurs markazlari (Resource Centers): Migrant oilalarga ta'lim, sog'liqni saqlash, huquqiy maslahatlar va boshqa zarur xizmatlar bo'yicha ma'lumot berish. Migrant oilalar o'zlariga kerakli ma'lumotni oson topadilar, yangi jamiyatga tezroq moslashadilar va muammolarni yechishda yordam oladilar. Misol uchun Welcome Centers (Germaniya): Migrantlarga Germaniyada yashash va ishlash bo'yicha maslahatlar beradi. Community Centers (AQSh): Mahalliy aholi va migrantlar uchun turli xil xizmatlar ko'rsatadi, jumladan, ta'lim, til kurslari va ish topishga yordam.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda pedagogik qadriyatlarni shakllantirishda ta'lim muassasasining o'rni beqiyosdir. Ta'lim muassasalari o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularda insoniylik, adolat, hurmat, mas'uliyat va vatanparvarlik kabi muhim qadriyatlarni singdirish orqali ularni jamiyatga munosib a'zo bo'lishga tayyorlaydi. Pedagogik qadriyatlar o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, ularning o'zaro munosabatlariga va jamiyatga bo'lgan munosabatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Alimov Sardor Komil o‘g‘li. Aholi migratsiyasi ijtimoiy-axloqiy muhit transformatsiyasi omili sifatida. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. 2022. http://library.ziyonet.uz/uz/book/123332
2. IOM GMDAC 2023, migrationdataportal.org
3. Sh.Mardonov, B.Xodjayev, Sh.Taylanova, D.Xojimuxamedova. Pedagogik aksiologiya *(o'quv qo'llanma)* -T.: «Fan va texnologiya», 2013, b-184
4. Abdusamatov, X., Jurayeva, Sh., Yangiboyeva, D. Migrant oila farzandlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari [Matn]: ilmiy-uslubiy qo‘llanma / X.Abdusamatov, Sh.Jurayeva, D.Yangiboyeva. – Toshkent: “Mahalla va oila nashriyoti”, 2022. – 92 b.
5. Мусурманова А. The scientific and pedagogic foundation of training social activeness of youth. “Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмий-методик электрон журнали. – Тошкент, 2017 йил, № 3. 168-172 pp.

Research Science and Innovation House

БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА ТАФАККУР ФАОЛЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ШАРТ-ШАРОИТЛАРИ

Ахмедова Наргиза Тойчибековна
Мирзо Улугбек номидаги УзМУ таълим тарбия маслахатчиси

Аннотация

Ушбу мақолада бошланғич синф ўқувчиларида тафаккур фаоллигини шакллантириш ва ривожлантиришга хизмат қилувчи педагогик шарт-шароитларнинг мазмуни очиб берилган. Тафаккур фаоллигининг педагогик моҳияти, уни рағбатлантирувчи омиллар, таълим муҳити, ўқув жараёнини ташкил этишдаги ёндашувлар таҳлил қилинган. Муаллиф таълимда ижодий фикрлашни қўллаб-қувватловчи, мустақил хулосалар чиқара оладиган шахс тарбиялашга йўналтирилган стратегик ёндашувларни асослаб беради.

Калит сўзлар:*тафаккур фаоллиги, бошланғич таълим, педагогик шарт-шароитлар, фикрлаш жараёни, методика, креативлик, мустақиллик.*

Кириш

Таълим тизимидаги ислоҳотлар ва миллий таълим дастурларида таъкидланган асосий вазифалардан бири – шахсни мустақил фикрлайдиган, тўғри ва мантиқий хулосалар чиқарадиган, муаммоларни ҳал этишга қодир инсон сифатида тарбиялашдир. Бу эса таълим жараёнида ўқувчининг тафаккур фаоллигини юксалтиришни талаб қилади. Бошланғич синф – шахсда фикрлаш асосларини шакллантиришда энг муҳим босқич ҳисобланади. Шу боис, ушбу босқичда олиб бориладиган педагогик ишларда тафаккур фаоллигини ривожлантиришга қаратилган методик ёндашувлар, ўқитиш муҳити ва ўқитувчи фаолияти муҳим аҳамиятга эга.

Асосий қисм

Бошланғич таълимда тафаккур фаоллигини ривожлантириш таълим методикасидаги долзарб масалалардан биридир. Тафаккур фаоллиги – бу ўқувчининг билимларни фаол ўзлаштириши, таҳлил қилиши, солиштириши, синтез қилишга интилиши, муаммоли ҳолатларга ижодий ёндашиши ва ўз нуқтаи назарини шакллантириши билан намоён бўлади.

Бундай фаолликни юксалтириш учун, аввало, таълим жараёни интерактив ва ижодкорликка асосланган бўлиши керак. Таълимнинг фаол усуллари, хусусан, “Ақлий ҳужум”, “Фикрлар хараитаси”, “Муаммоли вазият”, “Ролли ўйинлар”, “Кейс-метод” каби ёндашувлар болаларнинг фикрлаш қобилиятини фаоллаштиради. Шунингдек, фанлараро боғлиқликни таъминлаш, дарс жараёнини ҳаётий мисоллар билан бойитиш ва савол-жавоблар орқали муаммоли фикрлашни шакллантириш керак.

Педагогик шароит сифатида дарсда яратилган психологик муҳит ҳам муҳим ҳисобланади. Болада хатоликдан қўрқмаслик, эркин ифода қилиш, мустақил қарор қабул қилиш имконияти бўлмаса, унинг тафаккур фаоллиги тўлиқ ривожланмайди. Ўқитувчи болани рағбатлантирувчи, баҳоламасдан қўллаб-қувватловчи, жамоада ишлашга ўргатувчи тажрибаларни яратиши лозим.

Шунингдек, ота-оналар билан ҳамкорлик, уйдаги фаолият билан мактабдаги билимларни боғлаш орқали бола дунёқарашини кенгайтириш мумкин. Мисол учун, болага уйда турли машғулотлар (масалан, болаларга мўлжалланган квест-ўйинлар, мантиқий топишмоқлар, креатив бошқотирмалар) ташкил этиш орқали таълим жараёнини давом эттириш мумкин.

Таълимда ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш ҳам боланинг тафаккур фаоллигига ижобий таъсир кўрсатади. Масалан, интерактив доскалар, мультимедиа қурилмалари, таълимий платформалар (LearningApps, Wordwall, Kahoot ва бошқалар) орқали ўқувчиларда визуал, мантиқий ва ижодий фикрлашни уйғунлаштириш мумкин.

Таълим мазмуни ҳам тафаккур фаоллигига хизмат қилувчи тарзда янгиланиши лозим. Ўқув дастурлари фақат фактларни ўзлаштиришга эмас, балки анализ, синтез, қиёслаш ва баҳолаш кўникмаларини шакллантиришга қаратилган бўлиши талаб этилади.

Хулоса

Бошланғич синфда тафаккур фаоллигини ривожлантириш келажакда мустақил фикрловчи, ижтимоий фаол шахсни вояга етказишда муҳим пойдевор вазифасини ўтайди. Бу жараённи самарали ташкил этиш учун педагогик шарт-шароитларни яратиш, ўқитувчиларни замонавий методика ва технологиялар билан таъминлаш, таълим муҳитини интерактив ва ижодий руҳда ташкил этиш муҳим аҳамиятга эга. Педагог ўз фаолиятида бола марказидаги ёндашувни амалга ошириши, ҳар бир ўқувчида фикрлашга бўлган қизиқишни уйғотиши лозим.

Тафаккур фаоллигини юксалтириш бугунги таълимнинг асосий вазифаларидан бири сифатида қаралиши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. В.В. Давыдов. Проблемы развивающего обучения. – Москва: Педагогика, 1996.
2. Жонмахмудова Ш. Бошланғич таълимда методик ёндашувлар. – Тошкент: TDPU, 2021.
3. Элконин Д.Б. Психология развивающего обучения. – Москва: Академия, 1995.
4. Гуломова З. Бошланғич синфларда педагогик технологиялар. – Тошкент: Fan, 2018.
5. Ўзбекистон Республикаси “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент, 2020.

Research Science and Innovation House

UMUMTA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARINI TEXNOLOGIYA DARSLARIDA KASBGA YO'LLASH

Urganch davlat pedagogika instituti
Texnologik ta'lim kafedrasi o'qituvchisi
Otajanova Shohista

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta'lim maktablari o'quvchilarini texnologiya darslarida kasbga yo'llash masalalari tahlil qilingan. O'zbekistondagi ta'lim islohotlari doirasida texnologiya fanlarini o'qitish va kasbiy yo'naltirish jarayonlarining samaradorligini oshirish, zamonaviy yondashuvlar, xususan STEAM ta'lim strategiyalarini joriy etish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, maktab, oila va mahalla hamkorligida o'quvchilarning kasb tanlashga ongli yondashuvini shakllantirish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, amaliy mashg'ulotlar o'tkazish va kasbiy yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kasbga yo'naltirish, texnologiya darslari, STEAM ta'lim, kasbiy kompetensiyalar, ta'lim islohotlari, umumta'lim maktablari, kasb tanlash, axborot texnologiyalari.

ПРОФОРИЕНТАЦИЯ УЧАЩИХСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы профориентации учащихся общеобразовательных школ на уроках технологии. В рамках образовательных реформ в Узбекистане были рассмотрены возможности повышения эффективности процессов преподавания и профессиональной ориентации технологических дисциплин, внедрения современных подходов, в частности образовательных стратегий Steam. По результатам исследования разработаны рекомендации по формированию осознанного подхода учащихся к выбору профессии, использованию современных информационных технологий, проведению практических занятий и совершенствованию научно-педагогических основ профессиональной ориентации при сотрудничестве школы, семьи и района.

Ключевые слова: профориентация, уроки технологий, образование Steam, профессиональные компетенции, реформа образования, общеобразовательные школы, выбор профессии, информационные технологии.

REFER STUDENTS OF SECONDARY SCHOOLS TO THE PROFESSION IN TECHNOLOGY CLASSES

Abstract. This article analyzes the issues of professional orientation of students of secondary schools in technology classes. Within the framework of educational reforms in Uzbekistan, the possibilities of improving the effectiveness of the processes of teaching and professional orientation of technology disciplines, the introduction of modern approaches, in particular STEAM education strategies, are considered. According to the results of the study, in cooperation with the school, family and neighborhood, recommendations have been developed on the formation of a conscious approach of students to choosing a profession, the use of modern information technology, conducting practical classes and improving the scientific and pedagogical foundations of professional orientation.

Keywords: vocational guidance, technology classes, STEAM education, professional competencies, education reform, comprehensive schools, career selection, Information Technology.

KIRISH

Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining tezkor o'zgarishi, yangi kasblarning paydo bo'lishi va mavjud kasblarning transformatsiyasi yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlashda yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari doirasida umumta'lim maktabi o'quvchilarini ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda Jahonning rivojlangan davlatlari qatori mamlakatimizda ham ta'limdagi islohotlar jarayonida mustaqil ta'limni rag'batlantirish muhim yo'nalish sifatida kelmoqda [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi "Xalq ta'limi tizimini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni asosida umumta'lim maktablari o'quvchilarini kasbga yo'naltirish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish vazifasi qo'yilgan [2]. Texnologiya darslari o'quvchilarda nafaqat amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda, balki ularda kasbiy bilimlarni o'zlashtirishda ham muhim o'rin tutadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi umumta'lim

maktablari o'quvchilarini texnologiya darslarida kasbga yo'llash jarayonini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqotda O'zbekiston va xorijiy davlatlarning kasbga yo'naltirish tajribasi, texnologiya ta'limi sohasidagi ilg'or amaliyot va ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Xususan, adabiyotlar tahlili quyidagi yo'nalishlarda olib borildi: kasbga yo'naltirishning nazariy asoslari, texnologiya darslarida kasbga yo'naltirish metodikasi, O'zbekistondagi ta'lim islohotlari doirasida STEAM ta'limning joriy etilishi, xorijiy tajribada kasbga yo'naltirish strategiyalari.

Kasbga yo'naltirish bo'yicha tadqiqotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda kasb tanlash ko'nikmalarini shakllantirish murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida insonlarning yaxshi yashashida, faoliyatida to'g'ri kasb tanlashning ahamiyatini turli xil kasblarning insonga qo'yadigan talablarini; kasblar olami, kasblar shajarasi, O'zbekiston xalq xo'jaligidagi muhim kasblar, kasblar tasniflagichi to'g'risida bilimlar berish muhim hisoblanadi [3].

STEAM ta'lim yondashuvi bu kontekstda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu kontekstda, STEAM tizimi (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) ta'lim tizimining asosiy tamoyili sifatida qabul qilingan [4]. Biroq, bu sa'y-harakatlar asosan yuqoridan pastga qarab amalga oshirilayotganligi sababli, maktablarda va norasmiy muhitlarda STEAM ta'limi haqidagi bilimlar hali yaxshi ma'lum emas [5].

O'zbekistonda kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish bo'yicha izlanishlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ta'lim islohotlari o'quv dasturlarida kasbiy yo'nalishlarni ta'kidlaydi, va endi talabalar onlayn testlar va o'quv mashqlari orqali o'zlarining kasb tanlovlarini baholashlari mumkin [6]. Bu jarayonda axborot texnologiyalarining roli ortib bormoqda.

Xalqaro tajribaga ko'ra, samarali kasbiy yo'naltirish dasturi o'quvchilarga o'z motivatsiyalari va qobiliyatlarini tushunish kabi karyera tayyorligining jihatlarini rivojlantirish imkonini beradi [7]. Bundan tashqari, karyeraga tayyorlik kasbiy yo'naltirish faoliyatining muhim qisqa muddatli natijasi hisoblanadi [8].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalariga ko'ra, texnologiya darslarida kasbga yo'llash ishlarining samaradorligi bir qator omillarga bog'liq bo'lib, ular quyidagilardir:

O'zbekistonda o'qituvchilar STEAM ta'limi bo'yicha o'qitish metodlarini rivojlantirish va STEAM bo'yicha ma'ruzalar yaratishni eng dolzarb masalalar deb

hisoblashadi. Texnologiya o'qituvchilari zamonaviy kasblar haqida chuqur bilimga ega bo'lishi va o'quvchilarni ushbu kasblarga yo'naltira olishi kerak.

Axborot texnologiyalarining barkamol shaxsni rivojlantirish, uning mustaqil kasb tanlashi va kasbiy jihatdan o'z-o'zini shakllantirish, kasbiy mahoratini o'stirishda tutayotgan o'rni va ta'siri ortib borayotganligini inkor etib bo'lmaydi [9]. Texnologiya darslarida virtual laboratoriyalar, simulyatorlar va boshqa raqamli vositalardan foydalanish o'quvchilarni zamonaviy kasblarga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

STEAM yondashuvi bu qat'iy belgilangan o'quv dasturi emas, balki qiziquvchanlikni rag'batlantirish, katta savollarni berish va muammolarni hal qilish yo'llarini izlashda ijodkorlikni qo'zg'atish uchun mo'ljallangan. O'zbekistonda 2022-yilda yigirma sakkizta STEAM maktablari yaratilishi rejalashtirilgan. Bu maktablarda o'quvchilar fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika fanlarini integratsiyalashgan holda o'rganadilar.

Umumta'lim maktablari o'quvchilarini aniq bir kasb egasi bo'lishida umumta'lim maktablari davridan kasbga o'qitishda maktab, oila va mahallani o'rni nazarda tutilgan. Ota-onalar va mahalla faollarining kasbga yo'naltirish jarayoniga jalb etilishi o'quvchilarning kasb tanlash haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga yordam beradi.

O'quvchilar o'zlariga ochiq bo'lgan yo'llar haqida nuqtai nazarga ega bo'lishlari, har bir yo'lni tanlash uchun talab qilinadigan vaqt, harakat, tajriba va boshqa talablarni bilishlari kerak. Texnologiya darslari o'quvchilarda amaliy ko'nikmalar bilan birga, kelgusida zarur bo'ladigan kasbiy kompetensiyalarni ham shakllantirishi lozim.

Kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis ishlari holatini nazorat qilish, uni takomillashtirish choralarini ko'rish, tegishli dasturlar, me'yoriy hujjatlar va tavsiyalar ishlab chiqish orqali yagona yondashuvni shakllantirish muhim hisoblanadi.

XULOSA

Umumta'lim maktablari o'quvchilarini texnologiya darslarida kasbga yo'llash – bu murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u o'quvchilarning individual qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, maktab, oila va mahalla hamkorligida amalga oshirilishi lozim.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda texnologiya darslarida kasbga yo'naltirish jarayonini takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish tavsiya etiladi:

1. Texnologiya fanini o'qitishda STEAM yondashuvini joriy etish orqali o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;

2. O'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish;

3. Xalqaro tajribani o'rganib, milliy xususiyatlar va ehtiyojlarni hisobga olgan holda uni amaliyotga joriy etish.

Ushbu tadqiqot natijalari O'zbekistonda ta'lim islohotlari doirasida texnologiya darslari orqali kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rasulov, B. (2022). Kasbga yo'naltirishning zamonaviy usullari. Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.5919902

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2019). Xalq ta'limi tizimini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. PF-5712. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.

3. Mahmudov, M. (2021). Kasbga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Namangan: NamDU.

4. Lee, S. (2021). Examining the Impact of STEAM Education Reform on Teachers' Perceptions about STEAM in Uzbekistan. Asia-Pacific Science Education, 7(1), 34-54.

5. Lee, S., & Kim, H. (2021). STEAM ta'lim islohotlari va O'zbekistonda o'qituvchilarning STEAM haqidagi tushunchalari. Brill.

6. Karimjonov, R. (2021). Rustam Karimjonov: O'zbekistonda ta'lim va texnologiyalarga kirish bo'yicha yetakchi. AACSB International.

7. Department for Education. (2023). Independent review of careers guidance in schools and further education and skills providers. GOV.UK.

8. Dodd, V., & Hanson, J. (2021). Increasing students' career readiness through career guidance: measuring the impact with a validated measure. British Journal of Guidance & Counselling.

9. Abdullayev, A. (2021). Ta'lim sohasida internet-texnologiyalaridan foydalanish. ResearchGate.

Research Science and Innovation House

Endokrin kasalliklar kontekstida bolalarda qandli diabetning erta diagnostikasi va profilaktikasi

Sh.S. Safaraliyeva, D.Y.Alikulova, B.X.Abdullayeva

Kirish

So‘nggi yillarda pediatriyada 1-tur qandli diabet bilan og‘rigan bolalar sonining ortib borishi butun endokrin tizim faoliyatining izdan chiqishiga olib kelmoqda. Erta aniqlanmagan holatlar og‘ir asoratlar — diabetik ketoatsidoz, o‘sish retardatsiyasi, jinsiy yetilishdagi kechikish va autoimmun tiroidit bilan kechishi mumkin. Shu sababli, zamonaviy diagnostika usullari va profilaktik choralarni bolalarda erta qo‘llash muhim vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi

Bolalarda 1-tur qandli diabetni endokrin buzilishlar kontekstida erta aniqlashning samarali usullarini aniqlash, mavjud xavf omillarini tahlil qilish va klinik asoslangan profilaktika choralarini ishlab chiqish.

Materiallar va usullar

Tadqiqot Toshkent shahridagi 2 ta bolalar endokrinologik markazi bazasida olib borildi. 2023–2024 yillar davomida 1-tur diabet bilan yangi aniqlangan 52 nafar 5–14 yoshdagi bemor bola (29 nafar o‘g‘il bola, 23 nafar qiz bola) kuzatildi.

Baholangan ko‘rsatkichlar:

HbA1c, TSH, FT4, IGF-1, LH, FSH, prolaktin darajalari

Anti-GAD, ICA, IAA kabi autoimmun markerlar

Glyukozaga tolerantlik testi (OGTT)

Boshqa endokrin kasalliklar bilan komorbidlik (Hashimoto, gipogonadizm, semizlik)

Usullar:

a)biokimyoviy tahlillar (ELISA, immunoxemiluminessent usul)

b)statistika uchun SPSS dasturi ($p<0,05$ ishonch darajasi)

Natijalar va tahlil

1. 52 bemordan 38 nafarida (73%) diabet tashxisi qo‘yilganida o‘sish sur’atining pastligi aniqlangan (IGF-1 past).

2. 21 nafarida (40%) autoimmun tireoidit belgilariga ega bo‘lgan TSH va anti-TPO oshgan holatlar qayd etildi.

3. 16 nafar (30%) qiz bolada menarxening kechikishi va FSH/LH muvozanatsizligi aniqlangan.

4. Erta klinik belgilarga ega bo‘lgan 9 nafar bolada profilaktik choralar natijasida HbA1c darajasi 6 oy ichida 9,5% dan 6,8% gacha pasaygan.

5. 85% holatda oilaviy anamnezda diabet mavjudligi aniqlangan — bu xavf omilining yuqoriligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, 1-tur qandli diabet bolalarda boshqa endokrin buzilishlar bilan birgalikda kechadi va bu holat kasallikning og‘irroq kechishiga olib keladi. Erta tashxis qo‘yish uchun immunologik testlar, gormonal profil va genetik skrining asosiy vosita hisoblanadi. Profilaktika choralariga sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik, stressni boshqarish, shuningdek, dispanser nazoratining joriy etilishi kiradi. Kelgusida endokrin kasalliklarga moyil bolalarda muntazam monitoringning yo‘lga qo‘yilishi sog‘liqni saqlash tizimi uchun strategik muhim yo‘nalishdir.

Research Science and Innovation House

TURKSOY FESTIVAL VA ANJUMANLARIDA O‘ZBEKISTON SAN’ATKORLARINING ISHTIROKI

Shohruh Akbarov
O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirining
xalqaro aloqalar bo‘yicha maslahatchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston san’atkorlarining Turkiy madaniyat xalqaro tashkiloti (TURKSOY) tomonidan tashkil etilgan madaniy tadbirlardagi faol ishtiroki tahlil qilinadi. 1993-yildan buyon tashkilotning asoschi a’zosi sifatida O‘zbekiston TURKSOY doirasidagi festivallar, ko‘rgazmalar va simpoziumlarda o‘zining boy san’at merosini muntazam namoyish qilib kelmoqda. Tadqiqot tarixiy va amaliy yondashuv asosida olib borilib, unda o‘zbek an’anaviy musiqasi, raqsi (xususan “Lazgi”), tasviriy san’ati va hunarmandchiligi orqali turkiy xalqlar madaniy integratsiyasiga qo‘shilayotgan hissa yoritiladi. Shuningdek, maqolada TURKSOY platformasi orqali O‘zbekistonning madaniy diplomatiya sohasidagi faoliyati va xalqaro obro‘sini mustahkamlash yo‘llari ko‘rsatib beriladi. Xulosa qilib aytganda, bunday ishtirok nafaqat turkiy davlatlar o‘rtasida o‘zaro tushunishni kuchaytiradi, balki O‘zbekistonning xalqaro miqyosdagi “yumshoq kuch” siyosatini ham qo‘llab-quvvatlaydi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, TURKSOY, madaniy diplomatiya, Lazgi raqsi, turkiy integratsiya, san’at merosi, xalqaro festivallar, yumshoq kuch, an’anaviy san’at

TURKSOY – Turkiy madaniyat xalqaro tashkiloti – 1993-yil 12-iyulda Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Turkmaniston va Turkiya madaniyat vazirlari tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi turkiy xalqlar o‘rtasidagi tarixiy-madaniy mushtaraklikni saqlash, madaniyat, san’at, til, adabiyot, urf-odat va an’analarni ilmiy-amaliy asosda o‘rganish va jahon miqyosida targ‘ib qilishdan iboratdir. Ushbu tashkilot faoliyati madaniyat sohasida xalqaro

aloqalarni kengaytirish, turkiy davlatlar o‘rtasida do‘stlik va o‘zaro anglashuvni mustahkamlashda muhim vositaga aylangan.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng, o‘zining milliy madaniyatini jahon hamjamiyatiga tanitish, tarixiy ildizlariga asoslangan holda o‘zaro madaniy hamkorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor bera boshladi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston TURKSOY tashkilotining asoschilaridan biri sifatida unga 1993-yildayoq qo‘shildi va bugungi kungacha ushbu xalqaro tuzilma doirasidagi madaniy aloqalarda faol ishtirok etib kelmoqda.

TURKSOY O‘zbekiston san’atkorlari uchun xalqaro miqyosda o‘z iste’dodini namoyon etish, turkiy xalqlarning umumiy madaniy qadriyatlarini birgalikda ulug‘lash, hamda xalqaro san’at maydonida o‘zbek san’atini munosib tarzda targ‘ib qilish imkonini beruvchi nufuzli platformaga aylangan. Mazkur tashkilot tomonidan tashkil etilgan xalqaro festivallar, konferensiyalar, an’anaviy san’at kunlari, musiqiy forumlar va ko‘rgazmalar orqali o‘zbekistonlik san’atkorlar o‘z ijodiy salohiyatlarini nafaqat turkiy dunyo, balki keng xalqaro auditoriyaga taqdim etish imkoniga ega bo‘lishmoqda.

Ushbu maqolada O‘zbekiston san’atkorlarining TURKSOY festival va anjumanlaridagi faol ishtiroki, ularning xalqaro miqyosdagi nufuzi, turkiy xalqlar o‘rtasidagi madaniy integratsiyaga qo‘shgan hissasi, shuningdek, milliy san’atimizni tanitishdagi amaliy yutuqlari tahlil qilinadi. Mavzuni yoritishda tarixiy manbalar, so‘nggi yillardagi anjumanlar haqidagi hisobotlar, san’atshunoslik tahlillari va xalqaro madaniy aloqalar bo‘yicha mutaxassislarning fikrlari asos qilib olinadi. Mazkur tadqiqot O‘zbekistonning TURKSOY doirasidagi madaniy faoliyatini nafaqat faktlar asosida, balki ilmiy-nazariy yondashuvlar bilan baholashga intiladi.

O‘zbekiston Respublikasi TURKSOY xalqaro tashkilotiga 1993-yildan buyon a’zo bo‘lib, tashkilot doirasidagi barcha muhim madaniy tadbirlarda faol qatnashib kelmoqda. Bu ishtirok nafaqat diplomatik aloqalarning rivoji, balki xalqimizning boy madaniy merosini xalqaro miqyosda targ‘ib qilishning muhim vositasiga aylangan. Jumladan, O‘zbekiston san’atkorlari 2015-yildan beri har yili o‘tkazib kelinayotgan "TURKSOY baxshilar festivali"da muntazam ishtirok etmoqda. Ushbu festivalda Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlaridan chiqqan xalq baxshilari turli toifadagi mukofotlarga sazovor bo‘lganlar (TURKSOY rasmiy hisobotlari, 2018, 2020).

2018-yilda TURKSOYning "Yil poytaxti" loyihasi doirasida O‘zbekistonning Xiva shahri "Turk dunyosining madaniy poytaxti" deb e’lon qilingan. Ushbu yil davomida Xivada o‘tkazilgan konsert dasturlari, ko‘rgazmalar, konferensiyalar va

adabiy uchrashuvlarda O‘zbekistonlik san’atkorlar yetakchi o‘rinlarda qatnashdi. Bu voqea O‘zbekistonning TURKSOYdagi faolligini rasman e’tirof etgan eng muhim bosqichlardan biri bo‘ldi (TURKSOY Annual Report, 2018; O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, 2019).

TURKSOY tomonidan tashkil etilgan “Turkiy xalqlar musiqa merosi” xalqaro festivali doirasida ham O‘zbekistonlik bastakorlar, xonandalar va musiqachilar, xususan, maqom ansambllari xalqaro maydonda o‘z san’atini namoyon qilgan. 2021-yil Qozog‘istonning Turkiston shahrida bo‘lib o‘tgan festivalda O‘zbekistonning "Maqom" ansambli "Eng yaxshi an’anaviy chiqish" nominatsiyasi g‘olibi bo‘ldi (Qozog‘iston Madaniyat vazirligi axboroti, 2021).

TURKSOY doirasida baxshichilik san’atiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonlik baxshi va dostonchilar, jumladan, xalq baxshisi Sherali Jo‘rayev hamda yosh iste’dod Qurbonali Mamadaliyev, 2019-yilda Turkiyaning Antaliya shahrida o‘tkazilgan "Xalq og‘zaki ijodi haftaligi"da faol ishtirok etishgan. Bu anjumanlar baxshichilikni nafaqat madaniy meros sifatida, balki zamonaviy madaniyatlararo dialog vositasi sifatida taqdim etishga xizmat qildi (TURKSOY Press Service, 2019).

2022-yilda Toshkentda o‘tkazilgan “Turkiy xalqlar raqs san’ati festivali”da O‘zbekiston davlat raqs ansambli tomonidan ijro etilgan “Lazgi” raqsi xalqaro auditoriya tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. "Lazgi" raqsi avvalroq UNESCOning nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, ushbu festivalda uning ijrosi milliy raqs san’atimizning global darajadagi nufuzini yanada oshirdi (UNESCO Heritage Register, 2019; TURKSOY Cultural Calendar, 2022).

TURKSOY rassomlari simpoziumi turkiy davlatlar ijodkorlari uchun tajriba almashish va ijodiy hamkorlik maydoni bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekistonlik rassomlar Olim Tursunov, Zebo Qo‘chqorova hamda hunarmand Mahmud Qoziyev 2017–2023 yillar davomida Istanbul, Boku, Nursulton, Bursa kabi shaharlarda o‘tkazilgan xalqaro simpoziumlarda ishtirok etib, o‘z asarlarini namoyish etishdi. Ularning ishlari xalqaro muzeylar fondlariga qabul qilingan va TURKSOY kataloglarida chop etilgan (TURKSOY Art Catalogue, 2020; O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi, 2021).

TURKSOY O‘zbekiston uchun nafaqat madaniy hamkorlik maydoni, balki yumshoq kuch vositasi sifatida ham xizmat qilmoqda. San’atkorlar faoliyati orqali turkiy xalqlar o‘rtasida madaniy integratsiya kuchayib bormoqda. Bu faoliyat orqali

O‘zbekiston jahon madaniy maydonida o‘zining o‘ziga xos san’at uslubini, boy merosini va milliy qadriyatlarini global miqyosda targ‘ib qilmoqda.

TURKSOYning yoshlar uchun tashkil etayotgan forumlari ham alohida e’tiborga molik. 2023-yilda Istanbulda o‘tkazilgan "Yosh turkiy rassomlar forumi"da O‘zbekistonlik talabalar va yosh san’atkorlar o‘z loyihalari bilan qatnashib, diplomatik va ijodiy almashuvning faol ishtirokchisiga aylanishdi (TURKSOY Youth Initiative, 2023).

TURKSOY doirasida o‘tkazilayotgan madaniy tadbirlarda O‘zbekiston san’atkorlarining qatnashuvi nafaqat milliy san’atni targ‘ib qilish, balki O‘zbekistonning madaniy diplomatiyasini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. San’at tilining xalqaro ommaviy anglash vositasi sifatidagi qudrati, ayniqsa, turkiy xalqlar o‘rtasida tarixiy-madaniy yaqinlikni yanada mustahkamlashga imkon bermoqda. O‘zbekistonlik san’atkorlarning TURKSOY doirasidagi chiqishlari orqali O‘zbekistonning “yumshoq kuch” strategiyasi samarali ishlamoqda. Milliy raqs, musiqa, teatr va tasviriy san’at turlari orqali O‘zbekiston boshqa turkiy davlatlar bilan madaniy integratsiyaning zamonaviy ko‘rinishini shakllantirmoqda. Xususan, "Lazgi" raqsining xalqaro maydonda tan olinishi, maqom san’atining TURKSOY sahnasida muntazam jaranglashi, o‘zbekistonlik hunarmandlarning ko‘rgazmalarda faol ishtiroki, xalqimizning ko‘p asrlik estetik qadriyatlarini samarali tarzda targ‘ib qilayotganini ko‘rsatadi.

Bunday faoliyat nafaqat turkiy davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarda, balki O‘zbekistonning boshqa mintaqaviy va global madaniy diplomatik siyosatlarida ham o‘z ifodasini topmoqda. TURKSOY bilan olib borilayotgan hamkorlik orqali O‘zbekiston o‘zining xalqaro imijini mustahkamlash, san’at orqali do‘stlik, hamkorlik va o‘zaro ishonch muhitini yaratish yo‘lida muhim qadamlar tashlamoqda. Bu hamkorlik O‘zbekistonning tashqi siyosatida madaniyat orqali xalqaro integratsiyani chuqurlashtirishga xizmat qiluvchi barqaror platformaga aylanmoqda.

O‘zbekiston san’atkorlarining TURKSOY doirasidagi festival va anjumanlardagi ishtiroki turkiy xalqlar madaniy integratsiyasini mustahkamlashda muhim rol o‘ynamoqda. Ular orqali o‘zbek xalqining milliy san’ati, urf-odat va qadriyatlari jahon miqyosidagi madaniy muhitda faol e’tirof etilmoqda. Bu jarayon O‘zbekistonning xalqaro madaniy makondagi nufuzi, obro‘si va ta’sir doirasining kengayishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda TURKSOY bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan ko‘rgazmalar, musiqiy dasturlar, an’anaviy san’at

turlarini saqlab qolish va yoshlar o‘rtasida rivojlantirish bo‘yicha loyihalar madaniy diplomatiyaning yangi qirralarini ochib bermoqda.

Kelgusida bu hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida qo‘shma san’at maktablari tashkil etish, yosh rassomlar va ijrochilar uchun turkiy davlatlar o‘rtasida almashinuv dasturlarini yo‘lga qo‘yish, TURKSOY ko‘magida turkiy xalqlar orasida mushtarak madaniy festival haftaliklari tashkil etish kabi tashabbuslar dolzarb ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston uchun bu nafaqat milliy san’atni eksport qilish, balki madaniyat orqali diplomatik ishonch, barqarorlik va xalqaro tan olinuvchanlikni kuchaytirish imkonidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. TURKSOY. (2018). *Annual Report*. Turkic Culture and Heritage Foundation. https://www.turksoy.org/
2. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi. (2019). *Xiva – turk dunyosining madaniy poytaxti: Tadbirlar tahlili*. Toshkent: Madaniyat nashriyoti.
3. UNESCO. (2019). *Khorazm Dance “Lazgi” inscribed in the Representative List of the Intangible Cultural Heritage of Humanity*. https://ich.unesco.org/
4. TURKSOY. (2020). *Art Catalogue of the International Symposium of Artists*. Ankara: TURKSOY Matbaa.
5. Nazarov, B. (2021). Madaniy diplomatiya va O‘zbekistonning xalqaro obro‘sini mustahkamlash. *Sharq yulduzi*, (4), 45–52.
6. Qozog‘iston Respublikasi Madaniyat va sport vazirligi. (2021). *Turkiy xalqlar musiqa merosi xalqaro festivali hisobotlari*. Turkiston: Qozog‘iston nashriyoti.
7. TURKSOY Press Service. (2019). *Oral Tradition Week in Antalya: Baxshi and Ashiqs in the Spotlight*. https://www.turksoy.org/news
8. TURKSOY. (2023). *Youth Initiative Forum Report: Young Artists of the Turkic World*. Istanbul: TURKSOY.
9. Ergin, M. (2014). *The Cultural Politics of Turkic Unity: Turkish Diplomacy and International Cultural Organizations*. *Middle Eastern Studies*, 50(6), 921–939. https://doi.org/10.1080/00263206.2014.920152
10. Allabergenov, M. (2022). Turk dunyosining madaniy integratsiyasi: O‘zbekistonning o‘rni va istiqbollari. *O‘zbekiston tarixi*, (1), 70–78.

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA XIVA XONLIGI AHOLISINING MADANIY HAYOTI VA TURMUSH TARZI

Jaloliddin Polvanov
O‘qituvchi
O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligida yashagan aholining madaniy hayoti va kundalik turmush tarziga oid tarixiy-etnografik jihatlar tahlil qilinadi. Arxiv hujjatlari, sayyohlar yozuvlari va mahalliy tarixchilarning asarlari asosida aholining kiyinish madaniyati, ovqatlanish odatlari, uy-joy arxitekturasi, nikoh-marosimlari va diniy hayoti yoritiladi. Shu orqali o‘sha davrdagi madaniy muhit va ijtimoiy ong darajasi haqida tasavvur hosil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Xiva xonligi, madaniy hayot, turmush tarzi, an’anaviy kiyim, diniy marosimlar, arxitektura, oila va jamiyat.

Xiva xonligi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyodagi siyosiy jihatdan nisbatan mustaqilligini saqlab qolgan, o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tizim va boy madaniy hayotga ega bo‘lgan davlatlardan biri edi. Garchi 1873-yilda Rossiya imperiyasi bilan tuzilgan protektorat shartnomasi orqali xonlik siyosiy jihatdan Rossiyaga qaram bo‘lib qolgan bo‘lsa-da, ichki boshqaruv, din, madaniyat va ijtimoiy tizim masalalarida mahalliy an’analar va qadriyatlar ustunlik qilgan. Bu davrda xalqning kundalik hayoti va ijtimoiy muomalasi asosan feodal tuzum qoidalari, islomiy shariat qonunlari, milliy urf-odatlar hamda tashqi ta’sirlarning birikmasi orqali shakllangan.

Aholining madaniy tafakkuri va ijtimoiy xulq-atvori og‘zaki an’analar, diniy ta’limotlar, oilaviy meros va mehnat faoliyati orqali avloddan avlodga uzatilgan. Tarbiyaviy institut sifatida faoliyat ko‘rsatgan masjid va madrasa tizimi jamiyatda diniy ma’naviyatni saqlashda muhim rol o‘ynagan. Xalq orasida Qur’on, hadis, fiqh va tasavvuf ilmlariga oid ma’lumotlar, asosan og‘zaki yoki yarim rasmiy shakllarda tarqatilgan. Yozma madaniyat asosan madrasa bitiruvchilari, xatiblar, mudarrislar va qozilar doirasida to‘plangan.

Xonlik aholisi ijtimoiy tabaqalarga bo‘lingan bo‘lib, asosiy qatlamni dehqonlar tashkil etgan. Ular sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullangan, asosan ariq va daryo

yoqalarida joylashgan yerlarni ekkan. Yer egaligi huquqi feodal tuzumga asoslangan bo‘lib, ayrim yirik yerlar xon, sulton, mirzaboshilar, madrasalarga tegishli bo‘lgan. Oddiy dehqonlar esa vaqf yerlarida yoki ijaraga olingan maydonlarda mehnat qilganlar. Dehqon xonadonlari mehnat taqsimotiga asoslangan bo‘lib, erkaklar dala ishlarida, ayollar esa ro‘zg‘or, chorva, mato to‘qish, oziq-ovqat tayyorlash bilan shug‘ullangan. Bolalar erta yoshlikdan mehnatga jalb etilgan.

Hunarmandlar shaharlarda va yirik qishloqlarda faoliyat yuritgan. Xiva, Urganch va Pitnak shaharlarida temirchilik, zargarlik, misgarlik, kulollik, yog‘och o‘ymakorligi, poyandoz to‘qish, teri ishlov berish kabi kasb egalari jamoaviy ustaxonalarda yoki o‘z hovlisidagi kichik do‘konlarda ishlaganlar. Bu ustalar ko‘p hollarda usta-shogird tizimi orqali o‘z hunarini yosh avlodga o‘rgatgan. Hunarmandlar soni va malakasi shaharlarning iqtisodiy faolligini belgilab bergan asosiy omillardan biri bo‘lgan.

Savdogarlar esa ichki va tashqi savdo yo‘llarini birlashtiruvchi vosita sifatida faoliyat yuritgan. Karvon yo‘llari orqali Xiva xonligidan Buxoro, Qo‘qon, Xuroson, va hatto Eron va Hindistonga qadar tovar ayirboshlash amalga oshirilgan. Bozorlar haftalik va bayram kunlarida eng faol bo‘lgan, aholining ijtimoiy hayoti ham aynan shu joylarda mujassam bo‘lgan. Savdo-sotiqda o‘lchov birliklari sifatida mis pullar, tangalar va ayirboshlash tizimlari ishlatilgan.

Aholining kiyinish madaniyatida qat’iy an’anaviylik hukmron edi. Erkaklar to‘q rangli yaktak, chopon, belbog‘ va salla kiyganlar. Ayollar esa uzun ko‘ylak, atlasdan tikilgan lozim, ro‘mol va ba’zida yuzlarini yopuvchi parda taqib yurganlar. Zodagon ayollar orasida burqa yoki yashmaq tutish odati mavjud bo‘lgan. Ijtimoiy mavqega qarab mato sifati, kiyimdagi naqshlar va bezaklar farqlangan. Ipakli matolar, zarbof, gullangan atlaslar xonlik saroyida va yuqori tabaqada keng tarqalgan bo‘lsa, kambag‘al aholi arzon g‘o‘zapoya matolardan foydalangan.

Ovqatlanish madaniyati ham o‘ziga xos bo‘lib, bu yerda iqlim, hosil turlari va mavjud chorvachilik omillari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan. Asosiy taomlar qatorida palov, sho‘rva, somsa, non, qovurdoq, turli qovurilgan sabzavotli va go‘shtli ovqatlar mavjud edi. Sut, qatiq, suzma, qurut kabi mahsulotlar kundalik hayotda muhim o‘rin tutgan. Non pishirish san’ati alohida qadrlanib, har bir mahallaning tandir navi, non shakli va ustki bezagi farqli bo‘lgan. To‘ylar va diniy marosimlarda alohida taomlar pishirilgan, ular jamiyatda birdamlik va mehmondo‘stlik timsoli sifatida qadrlangan.

Uy-joy arxitekturasi iqlim va tuproq sharoitiga moslashtirilgan bo‘lib, asosan xom g‘isht (paxsa), ba’zan esa pishiq g‘ishtdan foydalanganlar. Devorlar qalin, shiftlar

yog‘ochli, issiqni saqlaydigan, yozda esa salqin bo‘ladigan tarzda qurilgan. Har bir xonadon ichki hovlili bo‘lib, unda ayvon, tandirxona, mehmonga mo‘ljallangan xona va ayollar uchun yopiq joy mavjud bo‘lgan. Shaharlarda, ayniqsa Xiva shahrining Ichan-qal’a qismida zodagonlarga tegishli uylar ko‘k chinnilar bilan bezatilgan, gumbazli tomlar, ganchkorlik va koshinkorlik san’ati keng qo‘llanilgan. Uylardagi o‘ziga xos naqshlar orqali egalarining ijtimoiy mavqeyi, diniy qarashlari va estetik didi ifodalangan.

Diniy hayot Xiva xonligida yashagan aholi madaniy ongida markaziy o‘rin egallagan. Islom dini nafaqat ruhiy-ma’naviy hayot, balki kundalik ijtimoiy munosabatlar, huquqiy tartiblar, tarbiya tizimi va san’atning turli ko‘rinishlariga ham chuqur singib ketgan edi. Masjidlar va madrasalar ibodat qilish bilan bir qatorda ilm olish, ijtimoiy yig‘ilishlar o‘tkazish, jamoaviy masalalarni muhokama qilish maskanlari sifatida faoliyat yuritgan. Ular mahallaning axloqiy va diniy hayotini tartibga soluvchi markaz bo‘lib xizmat qilgan.

Xiva shahrida joylashgan Ko‘hna masjid, Juma masjidi, Shergazi madrasa, Allakulikxon madrasa kabi diniy-ma’rifiy muassasalar orqali nafaqat dini bilimlar, balki astronomiya, grammatika, tarix va falsafa asoslari ham o‘rgatilgan. Madrasalarda Qur’on talqini, hadis ilmi, fiqh, mantiq, tasavvuf kabi fanlar bilan birga, yozma madaniyatning rivojiga hissa qo‘shgan yozuvchilar, kotiblar va mutarjimlar yetishib chiqqan.

Imom, mudarris, qori, xatib, shayx va so‘fiylar kabi diniy arboblar jamiyatda katta hurmat va obro‘ga ega bo‘lib, ko‘p hollarda nizolarni hal qilishda vositachi, yoshlar tarbiyasida esa yo‘lko‘rsatuvchi vazifasini bajarganlar. Ayrim yetuk so‘fiylar atrofida ziyoratgohlar, xangohlar tashkil topgan bo‘lib, ular orqali xalqqa axloqiy saboqlar berilgan, diniy-falsafiy suhbatlar, zikrlar va murshid-muridlik an’analari keng yoyilgan.

Xalq orasida Qur’on o‘qish, hadislarni yod olish, tasavvufiy rivoyatlarni tinglash, mashhur ulamolarning hayoti va hikmatlarini eslab yurish odatiy hol edi. Bu jarayonda og‘zaki ijodning turli janrlari — na’t, munojot, hikmat, dostonlar va diniy masnaviylar asosiy vosita bo‘lib xizmat qilgan. Ayniqsa, diniy bilimlar ota-onalardan farzandlarga, ulamolardan shogirdlarga og‘zaki tarzda uzatilgan.

Nikoh, tug‘ilish va o‘lim kabi hayotiy muhim marosimlar islomiy e’tiqod va mahalliy urf-odatlar uyg‘unligida amalga oshirilgan. Nikoh marosimida imom tomonidan nikoh duosi o‘qilib, guvohlar ishtirokida shartnoma tuzilgan. Ammo bu

diniy marosimga mahalliy urf-odatlar ham qo‘shilib, to‘y oldi sovchilik, muloqot, kelin salom, quda-andalik munosabatlari, kelin-kuyovga atalgan o‘y-tomoshalar bilan boyitilgan. To‘ylar odatda jamoaviy tarzda, qo‘shnilar va qarindoshlar ishtirokida o‘tkazilgan.

To‘y marosimlari xalq og‘zaki ijodining eng yorqin ifodasi bo‘lgan. Baxshilar va qo‘shiqchilar to‘y mehmonlariga dastlab "to‘y tabrigi" aytgan, so‘ngra tarixiy dostonlar yoki xalq qahramonlariga bag‘ishlangan asarlarni kuy va qo‘shiqda ijro etgan. Raqs san’ati ham to‘ylarning ajralmas qismi bo‘lib, xotin-qizlar va erkaklar uchun alohida raqs dasturlari tayyorlangan.

Tug‘ilish marosimida bolaga azon aytish, islomiy ismlar berish, yetti kunlikda soch olish (aqiqa), sunnat to‘ylar o‘tkazish kabilar mavjud bo‘lgan. O‘lim marosimlari esa islomiy qoidalar asosida — g‘usl, kafanlash, janoza namozi va xatmi Qur’on bilan o‘tgan, keyinchalik esa yodgorlik sifatida ziyoratgohlar yoki qabrtoshlar qo‘yilgan.

Xiva xonligi ko‘p millatli tarkibga ega bo‘lganligi tufayli bu marosimlarda ba’zida turli etnik unsurlar aralashgan. O‘zbeklar, qoraqalpoqlar, turkmanlar, arablar, yahudiylar, hatto ayrim rus pravoslav jamoalari bir hududda yashaganligi tufayli madaniyatlararo aloqalar tabiiy kechgan. Ayniqsa, hunarmandchilikda naqshlar, musiqa asboblari, raqslar va kiyimdagi umumiyliklar shuni yaqqol ko‘rsatadi.

XIX asr oxiriga kelib, Rossiya imperiyasi ta’siri kuchayishi bilan Xiva xonligi hayotida modernizatsion elementlar paydo bo‘la boshladi. Shaharlarda rus me’morchiligi asosida qurilgan ma’muriy binolar, yangi ta’lim muassasalari (rus-tuzem maktablari), bosma gazeta va kitoblar tarqatilishi bilan zamonaviy madaniy tafakkur shakllana boshladi. Ta’lim tizimidagi islohotlar mahalliy yoshlarni ruscha o‘qishga, ilm-fan bilan tanishishga undadi. Bu esa qadimiy madaniyat bilan yangi modernistik g‘oyalar o‘rtasida bir vaqtning o‘zida to‘qnashuv va sintez jarayonini boshlab berdi.

Matbaa madaniyati kirib kelishi, savodxonlik darajasining oshishi, zamonaviy kommunikatsiya vositalarining paydo bo‘lishi bilan xalq orasida yangicha dunyoqarash shakllanib bordi. Ayniqsa, yoshlar orasida islohparvarlik g‘oyalari, yangicha kiyinish, dunyoviy fanlarga qiziqish kuchaydi. Shunday bo‘lsa-da, an’anaviy islomiy qadriyatlar va mahalliy turmush madaniyati hanuzgacha jamiyat hayotining asosiy tayanchi bo‘lib qoldi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Xiva xonligidagi aholi madaniy hayoti o‘zida qadimiy islomiy qadriyatlar, turkiy xalq urf-odatlari, og‘zaki ijod an’analari va tashqi siyosiy bosimlarning murakkab uyg‘unligini

mujassamlashtirgan. Bu murakkablik madaniyatda o‘zgaruvchanlik, qatlamlanish va ko‘p tarmoqlilikni yuzaga keltirdi. Xalq turmush tarzi diniy e’tiqod bilan uyg‘un bo‘lgan holda, tarixiy, antropologik va madaniyatshunoslik tadqiqotlari uchun noyob va beqiyos ob’ekt sifatida o‘rganishga arzigulik tarixiy manzarani yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Иванов П.И. Архив хивинских ханов XIX века: Исследование и описание документов с историческим введением. – Л.: Изд-во АН СССР, 1940. – 312 с.
2. Бартольд В.В. Сочинения. Том II. Часть 1: Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – М.: Наука, 1963. – 435 с.
3. Назаров Б.Н. Хоразмning ijtimoiy-siyosiy hayoti XIX asr oxiri – XX asr boshlarida. – Тошкент: Fan, 2002. – 228 б.
4. Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий партиялар тарихи (1900–1924 йиллар). – Тарих фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент, 2005. – 135 б.
5. Муҳаммад Солиҳ Хивакӣ. Фатҳнома. (Таърихий манба). – Нашри қайта тикланган. – Тошкент: Шарқ, 1998.
6. Абдуллаев З. Хива шаҳар маданияти ва тарихий ёдгорликлари. – Тошкент: Фан, 1987. – 152 б.
7. Шаниязов К. История Хорезма с древнейших времен до наших дней. – Ташкент: Фан, 1993. – 260 с.
8. Халфаев Н.М. Ўрта аср ўзбек халқининг уй-жой архитектураси ва ички жиҳозлари. – Тошкент: Фан, 1982. – 187 б.
9. Тухлибаев Ш. Ўзбекистон халқ оғзаки ижоди тарихи ва жанрлари. – Тошкент: Fan, 2001. – 240 б.
10. Абдурахмонов К.Х. Миграционные процессы в Средней Азии в конце XIX – начале XX века. – Ташкент: Фан, 1993. – 160 с.
11. Allworth E. Central Asia: A Century of Russian Rule. – Durham and London: Duke University Press, 1989. – 450 p.
12. Babajanov B.M., Komatsu H. (eds.). Islamic Learning in Khorezm: History, Institutions, and the Scholars. – Tashkent: Adolat, 2012. – 311 p.
13. Devin DeWeese. Islamization and Native Religion in the Golden Horde: Baba Tukles and Conversion to Islam in Historical and Epic Tradition. – Pennsylvania: Pennsylvania State University Press, 1994. – 488 p.

O‘ZBEKISTONNING XALQARO TASHKILOTLARDAGI ISHTIROKI VA KO‘P TOMONLAMA DIPLOMATIYANI MUSTAHKAMLASH

Nizomiddin Rajabboev
E-mail: nizom98@gmail.com
Rahmatulla Nurimbetov
Siyosiy fanlar doktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy strategiyasi, xususan, xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki va ko‘p tomonlama diplomatiya yo‘nalishidagi faoliyati tahlil etiladi. Bunda BMT, SHHT, MDH, IHT va boshqa mintaqaviy tuzilmalar bilan hamkorlik alohida o‘rganiladi. Maqolada O‘zbekistonning ushbu tashkilotlardagi maqsad va vazifalari, hamda ko‘p tomonlama hamkorlikning samaradorligi va istiqbollari milliy manfaatlar va global chaqiriqlar kontekstida yoritiladi.
Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, xalqaro tashkilotlar, ko‘p tomonlama diplomatiya, SHHT, BMT, MDH, mintaqaviy integratsiya, tashqi siyosat.

PARTICIPATION OF UZBEKISTAN IN INTERNATIONAL ORGANIZATIONS AND THE STRENGTHENING OF MULTILATERAL DIPLOMACY

Rajabboev Nizomiddin
e-mail: nizom98@gmail.com
Rakhmatulla Nurimbetov
DSc in Political Science

Abstract: This article analyzes the foreign policy strategy of the Republic of Uzbekistan with an emphasis on its participation in international organizations and the development of multilateral diplomacy. Special attention is paid to the country's engagement with structures such as the UN, SCO, CIS, OIC, and other regional associations. The goals and objectives of Uzbekistan in these organizations are reviewed, as well as the effectiveness and prospects of multilateral cooperation in the context of national interests and global challenges.

Keywords: Uzbekistan, international organizations, multilateral diplomacy, SCO, UN, CIS, regional integration, foreign policy.

Участие Узбекистана в международных организациях и укрепление многосторонней дипломатии

Рахматулла Нуримбетов
Доктор политических наук
Ражаббоев Низомиддин
e-mail: nizom98@gmail.com

Аннотация: Статья анализирует внешнеполитическую стратегию Республики Узбекистан с акцентом на её участие в международных организациях и развитие многосторонней дипломатии. Особое внимание уделено активизации взаимодействия с такими структурами, как ООН, ШОС, СНГ, ОИС и другими региональными объединениями. Рассматриваются цели и задачи Узбекистана в этих организациях, а также эффективность и перспективы многостороннего сотрудничества в контексте национальных интересов и глобальных вызовов.

Ключевые слова: Узбекистан, международные организации, многосторонняя дипломатия, ШОС, ООН, СНГ, региональная интеграция, внешняя политика.

Современная внешняя политика Республики Узбекистан характеризуется стремлением к открытому, прагматичному и многостороннему сотрудничеству. С 2016 года Узбекистан демонстрирует последовательную активизацию участия в международных и региональных организациях, используя механизмы многосторонней дипломатии для продвижения национальных интересов, региональной стабильности и устойчивого развития.

Многосторонняя дипломатия предполагает участие государства в международных диалогах и соглашениях на равноправной основе с другими странами, международными организациями и региональными объединениями. Это форма взаимодействия, при которой государства стремятся решать глобальные и региональные вызовы не в одиночку, а совместно, путём координации усилий, выработки коллективных решений и принятия взаимовыгодных обязательств. В условиях нарастающей взаимозависимости мира и транснационального характера многих современных проблем — таких как

терроризм, изменение климата, водный дефицит, пандемии и нестабильность на границах — многосторонний подход становится особенно актуальным.

Для Узбекистана после 2016 года многосторонняя дипломатия приобрела статус ключевого приоритета внешней политики. Это связано с переосмыслением роли страны в международной системе и переходом к политике «открытых дверей», ориентированной на партнёрство, доверие и устойчивое развитие. Узбекистан стремится не только активно участвовать в международных форумах и инициативах, но и выдвигать собственные предложения, формирующие повестку регионального сотрудничества.

Многосторонняя дипломатия стала для Узбекистана действенным инструментом укрепления политических, экономических, гуманитарных и экологических связей. Благодаря активному взаимодействию с ООН, ШОС, СНГ, ОИС, ЭКО и другими структурами, республика расширяет своё международное присутствие, усиливает политические контакты, продвигает экспорт, способствует притоку инвестиций и расширяет культурные обмены. При этом Ташкент выступает с инициативами по водной дипломатии в Центральной Азии, международному сотрудничеству в борьбе с радикализмом и защите культурного наследия, что укрепляет статус Узбекистана как ответственного и конструктивного участника международных отношений.

Особое значение многосторонняя дипломатия приобретает в контексте трансграничных проблем, таких как регулирование водных ресурсов (Амударья и Сирдарья), защита экосистемы Аральского моря и обеспечение региональной безопасности. В этих вопросах Узбекистан не только следует существующим рамкам сотрудничества, но и инициирует создание новых платформ и диалогов, объединяющих соседние страны и международное сообщество. Узбекистан активно участвует в инициативах ООН, особенно в таких направлениях, как борьба с изменением климата, борьба с экстремизмом, развитие зелёной энергетики и обеспечение продовольственной безопасности. Ярким примером является инициатива по созданию Регионального центра по устойчивому развитию в Центральной Азии под эгидой ООН.

Как один из ключевых участников ШОС, Узбекистан вносит вклад в развитие региональной безопасности, экономического сотрудничества и культурных обменов. В рамках ШОС Ташкент активно продвигает идеи

устойчивой логистики, транспорта, энергетики и совместного противодействия транснациональным угрозам.

В рамках СНГ Узбекистан участвует в совместных программах в сфере образования, науки, культуры, а также в координации политики в области трудовой миграции и защиты прав граждан.

Узбекистан укрепляет связи с исламским миром через активное участие в ОИС, продвигая идеи толерантности, просвещения и взаимопонимания. Особое значение имеет инициативное выступление Узбекистана по борьбе с исламофобией и поддержке

Через ЭКО Узбекистан реализует программы экономической интеграции, в том числе в сферах транспорта, сельского хозяйства, торговли и туризма. Важным направлением является создание эффективных транспортных коридоров, соединяющих Центральную Азию с Южной Азией и Европой.

Внешнеполитические инициативы Узбекистана зиждутся на прочной нормативно-правовой базе, охватывающей широкий спектр международных и внутригосударственных документов, обеспечивающих легитимность, согласованность и устойчивость внешнеполитического курса. Юридическое оформление внешних связей республики реализуется посредством подписания двусторонних и многосторонних соглашений, меморандумов о взаимопонимании, конвенций и рамочных договоров, соответствующих как национальному законодательству, так и международному праву.

Узбекистан присоединился ко многим важнейшим международным конвенциям и договорам, охватывающим такие сферы, как права человека, борьба с коррупцией, противодействие терроризму, охрана окружающей среды, торговля, культура и трудовая миграция. Это способствует укреплению международной правосубъектности государства и его участию в глобальных и региональных правовых процессах.

Особую роль играют многосторонние договоры, заключённые в рамках таких организаций, как ООН, ШОС, СНГ, ЭКО и ОИС. Они определяют рамки участия Узбекистана в совместных программах и регламентируют механизмы реализации соглашений. Например, в рамках ШОС республика принимает участие в работе Координационного совета по борьбе с терроризмом и в соглашениях о транспортной и торговой интеграции. В рамках СНГ активно реализуются соглашения в области образования, здравоохранения и науки.

Внутри страны создан ряд специализированных государственных органов и механизмов, обеспечивающих системную реализацию внешнеполитических инициатив. Одним из ключевых институтов является Совет по международному сотрудничеству при Президенте Республики Узбекистан, который координирует межведомственное взаимодействие, обеспечивает согласование внешнеполитических приоритетов с социально-экономическими интересами страны и выступает платформой для анализа международной обстановки и выработки стратегических решений.

Министерство иностранных дел Республики Узбекистан осуществляет основную исполнительную функцию в области внешней политики, обеспечивая дипломатическое представительство, участие в международных переговорах и реализацию подписанных соглашений. Наряду с ним функционируют специализированные агентства и комитеты (например, Агентство по привлечению инвестиций, Комитет по межнациональным отношениям), взаимодействующие с международными партнёрами по секторальным направлениям.

Активизация внешнеполитической деятельности Узбекистана, особенно в рамках многосторонней дипломатии, открывает перед страной новые возможности для укрепления её международного статуса, расширения экономических связей и решения общерегиональных проблем. Вместе с тем, такой курс сопряжён с определёнными вызовами, которые требуют гибкости, стратегического мышления и институциональной устойчивости. Одной из ключевых перспектив является углубление регионального сотрудничества в Центральной Азии. Узбекистан последовательно выступает инициатором региональной консолидации, продвижения транспортных, энергетических и водохозяйственных проектов, а также обеспечения стабильности на постсоветском пространстве. Инициативы Ташкента по восстановлению доверия между соседними странами, активизации экономических связей и совместному использованию природных ресурсов способствуют созданию более стабильной и интегрированной Центральной Азии.

Важной возможностью остаётся расширение партнёрства с глобальными и региональными структурами, включая ЕС, ОИС, ШОС, ООН, ЭКО и Всемирный банк. Такие связи открывают доступ к инвестициям, технологиям,

образовательным программам и экспертной поддержке. Особенно актуальны перспективы в области «зелёной экономики», цифровизации, инновационной промышленности и устойчивого сельского хозяйства, где международное сотрудничество может стать катализатором развития.

Узбекистан также обладает потенциалом для активного участия в глобальных дискуссиях по вопросам изменения климата, миграции, кибербезопасности и борьбы с международным терроризмом. Предложение страны создать международные платформы по обсуждению этих проблем усиливает её роль как ответственного и конструктивного участника мирового сообщества.

Несмотря на положительную динамику, внешнеполитическая стратегия Узбекистана сталкивается с рядом вызовов. Во-первых, сохраняется геополитическая напряжённость в регионе и за его пределами — конкуренция между глобальными центрами силы (США, Китай, Россия, ЕС) может повлиять на баланс интересов и осложнить выстраивание многосторонних коалиций.

Во-вторых, остаются проблемы институциональной координации и эффективности реализации международных соглашений внутри страны. Требуется постоянное повышение квалификации кадров, усиление межведомственного взаимодействия и привлечение экспертного потенциала для того, чтобы международные обязательства трансформировались в реальные реформы и инициативы.

В-третьих, существует угроза «символического участия» в международных структурах без глубокой интеграции и участия в содержательных инициативах. Чтобы избежать этого, Узбекистану необходимо не только подписывать соглашения, но и активно инициировать и реализовывать проекты, следить за их результативностью и прозрачностью.

Кроме того, важным вызовом остаётся устойчивость к внешним шокам — экономическим, экологическим, эпидемиологическим. В условиях глобальной нестабильности именно способность адаптироваться, сохранять сбалансированные связи и выстраивать прагматичную дипломатию станет залогом долгосрочного.

Участие Узбекистана в международных организациях и продвижение многосторонней дипломатии стали важной составляющей его внешнеполитической стратегии. Это не только усиливает международный

авторитет страны, но и способствует устойчивому социально-экономическому развитию, региональной стабильности и интеграции. Ориентация на активное участие в многосторонних структурах отражает долгосрочные интересы республики и её стремление быть конструктивным участником глобального политического процесса.

Список литературы:

1. Maracchione, F. (2023) *Multivectoral? A Quantitative Analysis of Uzbekistan’s Foreign Policy Communication at the United Nations*. Edizioni Ca’ Foscari.
2. Weitz, R. (2018) *Uzbekistan’s New Foreign Policy: Change and Continuity under New Leadership*. Silk Road Studies Program. Available at: https://www.silkroadstudies.org/resources/pdf/SilkRoadPapers/1801Weitz.pdf
3. Museyibzada, J. (2023) *Shift in Uzbekistan’s Foreign Policy: Active Engagement in Reputation and Cooperation Building via International Organizations*. Fergana State University Journal. Available at: https://www.researchgate.net/publication/376092332
4. UNDP Uzbekistan (2020) *Country Programme Document for Uzbekistan 2021–2025*. United Nations Development Programme. Available at: https://www.undp.org
5. Ministry of Foreign Affairs of Uzbekistan (2022) *Diplomatic Yearbook*. Tashkent.
6. Institute for Strategic and Regional Studies (ISRS) (2021) *The Multidimensional Foreign Policy of New Uzbekistan*. Available at: https://isrs.uz
7. Nurimbetov, R. (2021) ‘Fundamental changes have occurred in the foreign policy of Uzbekistan for Central Asia’, *The Korea Post*, 12 March. Available at: https://www.koreapost.com/news/articleView.html?idxno=22334
8. Sayfullayev, D. (2016) ‘Uzbekistan’s diplomacy in the modern international relations system’, *Journal of Public Affairs*, 16(4), pp. 415–422. DOI: https://doi.org/10.1002/pa.1611.
9. Nurimbetov, R. (2021) ‘The Role of the SCO in Contemporary International Relations: A View from Uzbekistan’, *International Affairs (Международная жизнь)*, 4(2021). Available at: https://interaffairs.ru/jauthor/material/2491

O‘SMIR QIZLAR REPRODUKTIV SALOMATLIGI VA JINSIY TARBIYA:MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Xiva Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi
Oliy toifali maxsus fan o’qituvchisi: **Jumaniyazova M.X.**

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘smir qizlarning reproduktiv salomatligi, uni saqlash va mustahkamlashdagi asosiy omillar, jinsiy tarbiyaning o‘rni va uni samarali amalga oshirish yo‘llari yoritilgan. Shuningdek, ijtimoiy-psixologik, madaniy va tibbiy jihatlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, reproduktiv salomatlik, jinsiy tarbiya, gigiyena, profilaktika.

Kirish

O‘smirlik davri – bu organizmda chuqur biologik, fiziologik va psixologik o‘zgarishlar ro‘y beradigan muhim davr bo‘lib, reproduktiv salomatlik shakllanadigan bosqichdir. O‘smirlik – inson hayotidagi eng muhim va murakkab bosqichlardan biri bo‘lib, bu davrda nafaqat jismoniy, balki psixologik va ijtimoiy yetilish sodir bo‘ladi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) reproduktiv salomatlikni “insonning reproduktiv tizimi bilan bog‘liq jismoniy, aqliy va ijtimoiy farovonlik holati” deb belgilaydi . Ayniqsa, qiz bolalarda bu davrda gigiyena, jinsiy tarbiya, ovqatlanish, stress kabi omillar katta rol o‘ynaydi. Bu borada jinsiy tarbiya va sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirilgan tizimli yondashuv muhim hisoblanadi.

Asosiy qism

1. Reproduktiv salomatlikka ta’sir qiluvchi omillar:

O‘smir qizlar reproduktiv salomatligi ko‘plab omillarga bog‘liq. Ular orasida quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

- Biologik omillar: Bu davrda gormonal o‘zgarishlar natijasida hayz ko‘rish boshlanadi. Hayz siklining o‘z vaqtida va normal kechishi sog‘lom reproduktiv tizim belgilaridan biridir. O‘tkir yoki surunkali infeksiyalar, endokrin buzilishlar esa salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi .

- Gigiyenik omillar: Hayz davridagi gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik, yuvinish vositalarining noto‘g‘ri tanlanishi siydik-tanovul yo‘llari infeksiyalariga olib kelishi

mumkin.

- Ijtimoiy va madaniy omillar: Ko‘plab jamiyatlarda jinsiy sog‘liq haqida ochiq gapirish odat tusiga kirmagan. Bu esa o‘smirlar orasida noto‘g‘ri tushunchalar, qo‘rquvlar va savodsizlikka sabab bo‘ladi.

- Psixologik omillar: O‘smirlik – psixologik beqarorlik davri. Tashqi ko‘rinishdagi o‘zgarishlar, jinsiy yetilish, hayz ko‘rish bilan bog‘liq holatlar o‘smirda stress, uyat hissi va hatto depressiyaga olib kelishi mumkin

Reproduktiv salomatlikni saqlashning asosiy omillari

O‘smir qizlarda reproduktiv salomatlikni saqlash bir necha asosiy yo‘nalishda olib borilishi zarur:

- Shaxsiy gigiyena – Hayz ko‘rish davrida tozalik qoidalariga qat’iy rioya qilish, maxsus vositalardan to‘g‘ri foydalanish infektsiyalarning oldini oladi
- Ovqatlanish va jismoniy faollik – To‘yimli ovqatlanish va muntazam jismoniy mashqlar gormonal muvozanatni ta’minlaydi.

- Tibbiy nazorat – Ginekolog va endokrinolog tomonidan muntazam ko‘rikdan o‘tish, yillik tekshiruvlar erta aniqlash va profilaktika imkonini beradi.
- Psixologik qo‘llab-quvvatlash – O‘smirda yuzaga keladigan psixologik o‘zgarishlarga mos ravishda ruhiy yordam ko‘rsatish muhim

Asosiy muammolar:

O‘smirlar orasida reproduktiv salomatlik bilan bog‘liq muammolarning asosiylari quyidagilardir:

- Erta jinsiy aloqa va nikoh
- Reproduktiv salomatlik bo‘yicha yetarli bilimlarning yo‘qligi
- Hayz ko‘rishdagi buzilishlar (disfunktsiyalar)
- Ginekologik infeksiyalar
- Salbiy odatlar (chekish, spirtli ichimliklar iste’moli)

Bu muammolar o‘z vaqtida aniqlanmasa, keyinchalik bepushtlik, homiladorlikda asoratlar va boshqa sog‘liq muammolariga olib keladi .. **Profilaktika va ta’lim:**

Reproduktiv salomatlikni mustahkamlash uchun quyidagi chora-tadbirlar zarur:

- Jinsiy tarbiya: Maktabda va oilada mos yondashuv asosida sog‘lom turmush tarzi, gigiyena va jinsiy rivojlanish haqida ta’lim berilishi zarur. Bu tarbiya axloqiy, psixologik va sog‘liqni saqlash jihatidan muvozanatli bo‘lishi kerak.
- Tibbiy ko‘rik: O‘smir qizlar yilda kamida bir marotaba ginekologik va endokrin tekshiruvlardan o‘tishlari maqsadga muvofiq.

- Axborot va maslahat markazlari: Yoshlar uchun mo‘ljallangan bepul maslahat markazlari ochilishi va ularda malakali mutaxassislar faoliyat yuritishi zarur.

Jinsiy tarbiyaning mazmuni va ahamiyati: Jinsiy tarbiya bu – shunchaki fiziologik ma’lumotlar berish emas, balki shaxsiy gigiyena, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy mas’uliyat va sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi bilimlar tizimidir. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Jinsiy rivojlanishni tushuntirish: Hayz ko‘rish, tana o‘zgarishlari, gormonlarning ta’siri haqida to‘g‘ri va ilmiy ma’lumot berish.
- Axloqiy qadriyatlarni shakllantirish : Erta jinsiy aloqa, majburiy nikohlarning zararli oqibatlari haqida ogohlantirish.
- Himoya va xavfsizlik : Zo‘ravonlik, jinsiy suiiste’mollikdan himoyalanish yo‘llari haqida ma’lumot berish.
- Oila va jamiyatdagi rol :Bo‘lajak ona sifatida qiz bola zimmasidagi ijtimoiy mas’uliyatni anglashga yordam berish.

Jinsiy tarbiyani amalga oshirish vositalari:

- Oila – Birinchi navbatda, ota-ona ishonchli suhbatdoshga aylanishi zarur. Qizlar onadan, o‘g‘illar esa otadan tegishli bilimlarni olishi foydali.
- Maktab – O‘quv dasturlariga gigiyena va sog‘lom turmush tarzi fanlari orqali integratsiyalashgan yondashuv natija beradi.
- Tibbiy xodimlar va psixologlar – Maxsus treninglar va maslahat markazlari orqali yoshlar ongini sog‘lom shakllantirishga xizmat qiladi.
- OAV va ijtimoiy tarmoqlar – To‘g‘ri axborot beruvchi manbalarni rivojlantirish zarur.

Xulosa

O‘smir qizlarning reproduktiv salomatligini saqlash va ularni sog‘lom jinsiy rivojlanish yo‘liga yo‘naltirish – jamiyatning dolzarb vazifalaridan biridir. O‘smir qizlarning reproduktiv salomatligi ularning kelajakdagi onalik salohiyati, jismoniy va psixologik farovonligiga bevosita ta’sir qiladi. Jinsiy tarbiya bu borada asosiy vosita bo‘lib, uni oilaviy, maktab va jamiyat darajasida to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish sog‘lom, baxtli avlodni tarbiyalash garovidir.

Bu borada tizimli ta’lim, profilaktik ko‘riklar va jamiyatdagi ochiq muloqot muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar, o‘qituvchilar va tibbiy xodimlarning hamkorlikdagi sa’y-harakatlari orqali sog‘lom avlodni tarbiyalash mumkin. Bu esa nafaqat individual salomatlik, balki umumiy demografik va ijtimoiy barqarorlikning ham asosi hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. WHO. Reproductive health. https://www.who.int
2. Жумабоев А. Ж. "O‘smirlik fiziologiyasi va gigiyenasi". Toshkent, 2019.
3. Bobonazarova Z. “Psixologik yondashuvlar asosida jinsiy tarbiya”. T., 2021.
4. Karimova Z.S. “O‘smirlikda gigiyena va reproduktiv salomatlik.” T., 2020.
5. Rasulova D. “Jinsiy tarbiya va sog‘lom avlod.” Tibbiyot jurnali, 2021.

Research Science and Innovation House

GIPERTONIYA KASALLIGI VA UNING ASORATLARI.

XIVA ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI JAMOAT SALOMATLIGI TEXNIKUMI OLIY TOIFALI O’QITUVCHISI
MAJIDOVA ZAMIRA ERKINOVNA

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada gipertoniya kasalligining sabablari, asoratlari, belgilari, asoratlari, tashxis va davolash usullarini o’ziga xos tomonlari haqida ma’lumot berilgan. Gipertoniya kasalligidan kimlar ko’proq aziyat chekish sabablari va asoratlari to’liq yoritilgan. Kasallikni oldini olish va parvarish chora tadbirlari sanab o’tilgan.

Tayanch iboralar: (kalit so’zlar) gipertoniya, ateroskleroz, insult, miokard infarkti

Gipertoniya — qon tomirlarining nerv-funksional faoliyati buzilishi natijasida kelib chiqadi gan kasallikdir. Kasallik asosan 40 yoshdan kattalarda uchraydi, lekin so‘nggi yillarda yoshlarda ham tez-tez kuzatilmoqda. Bu darddan ayollar ham, erkaklar ham bir xil aziyat chekishadi.

Gipertoniya yurak-qon tomir tizimi kasalliklari bilan xastalangan kishilarning o‘limiga sabab bo‘luvchi asosiy sabablardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, gipertoniya sayyoramizdagi nogironlikning asosiy sabablaridan biridir. Statistik ma'lumotlarga ko‘ra, qon bosimi oshganda birinchi yordam kech ko‘rsatilsa, bemorlar ning ahvoli juda og‘irlashishi, hatto o‘lim holati kuzatilishi mumkin.

Gipertoniyaning kelib chiqishi sabablari

Kasallikning rivojlanish sababi uzoq vaqt davomida stress va tushkunlik holatida yurish, tez-tez psixologik zo‘riqishlardir. Ko‘pincha, bularni doimiy emotsional taranglikni talab etadigan ish faoliyati keltirib chiqaradi. Bundan tashqari miya

chayqalishiga uchragan bemorlarda ham kasallik rivojlanishi xavfi yuqori bo‘ladi. Irsiy moyillik ham sabablar qatorida: agar kishining avlodida bu kasallik uchragan bo‘lsa, unda ham ushbu kasallik rivojlanishi xavfi bir necha baro barga ortadi.

Kasallik rivojlanishiga ta'sir o‘tkazuvchi omillardan asosiysi — kamharakat turmush tarzi.

Yosh o‘tib borgani sari insonlarda ateroskleroz rivojlanishi mumkin, bu o‘zgarish fonida qon bosimining oshishi esa vaziyatni yanada jiddiylashtirib yuboradi. Bu hayot uchun o‘ta xavfli hisoblanadi, chunki toraygan qon tomirlar orqali miya, yurak, buyraklarning bir qismiga qonning bormay qolishi yoki yetarli bormasligi kuzatiladi. Agar qon tomir devorlarida tromb va xolesterin to‘planmalari bo‘lsa, ular kuchli bosim vaqtida ajralib, kapillyar qon tomirlarida

tiqilib, qon o‘tishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Bu holda miokard infarkti yoki insult yuzaga keladi.

Ayollarda qon bosimi oshishiga sabab menopauza davridagi gormonal o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin. Tuz yoki aniqrog‘I unda mavjud natriy, shuningdek, chekish, alkogolli ichimliklarni iste'mol qilish, semizlik ham yurak-qon tomir tizimiga bosim o‘tkazadi.

Gipertoniya rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar quyidagilardan iborat:

- Ortiqcha vazn, metabolik kasalliklar, endokrin kasalliklar, kam harakat turmush tarzi;
- muntazam emotsional stresslar, ruhiy tushkunlik, fojiali voqealarni boshdan o‘tkazish, yaqin insonlarni yo‘qotish;
- biznesdagi, ishdagi muammolar tufayli kuchli asabiy taranglik;
- bosh miya jarohatlari (avtohalokat, yiqilish, gipotermiya);
- yurak-tomir tizimiga salbiy ta'siri bor surunkali kasalliklar (qandli diabet, podagra, revmatoid artrit);
- irsiy moyillik;
- virusli va yuqumli kasalliklar (meningit, sinusit, gaymorit);
- qon tomirlarida yosh bilan bog‘liq o‘zgarishlar;

- qonda xolesterin miqdorining yuqori bo‘lishi, natijada qon tomir devorlarida to‘planmalar hosil bo‘ladi;
- zararli odatlar (chekish, alkogolli ichimliklar ichish, me'yordan ortiq qahva iste'mol qilish);
- kun davomida ko‘p miqdorda tuz iste'mol qilish;
- qonda adrenalinni oshirish;
- kompyuter qarshisida uzoq vaqt o‘tirish;
- ochiq havoda kam yurish va hokazo.

Qon bosimi oshishi belgilari

Gipertoniyaning asosiy alomati — miya tomirlarining spazmi va torayishi tufayli bosh og‘rig‘idir. Shuningdek, ko‘pincha quloqlarda shovqin, ko‘rish holati susayishi, holsizlik, uyqu buzilishi, bosh aylanishi, boshda og‘irlik hissi, yurak urishi tezlashishi namoyon bo‘ladi.

Bu alomatlar kasallikning erta bosqichida seziladi. Keyinchalik yurakning uzoq vaqt davomida zo‘riqib ishlashi tufayli yurak yetishmovchiligi yuzaga keladi.

Shuningdek, ko‘plab bemorlarda quyidagi belgilar uchraydi:

- Burunning tez-tez qonashi;
- qayt qilish;
- uyqusizlik;
- xotira buzilishi;
- har qanday jismoniy faollikdan so‘ng teri yuzasining qizarishi;
- ko‘zdagi kuchli bosim (bemor atrofga qaraganda ko‘zlarda og‘riq paydo bo‘ladi, shuning uchun ular dam olishni va ko‘zlarini yopiq tutishni afzal ko‘rishadi);
- yurakning tez urishi;
- to‘qimalarda shishlar paydo bo‘lishi;
- charchoq.

Gipertoniya bosqichlari va oldini olish yo‘llari

Zamonaviy tibbiyot arterial gipertoniyaning 3 bosqichini farqlaydi:

- **1 bosqich** — Qon bosimi 140-159 / 90-99 mm sim.ust oralig‘ida bo‘ladi. Qon bosimi vaqti-vaqti bilan me'yorga kelishi va yana ko‘tarilishi mumkin;
- **2-bosqich** — Qon bosimi 160-179 / 100-109 mm sim.ust oralig‘ida. Arterial qon bosimi tez-tez ko‘tarilib turadi va kam hollarda me'yorga tushadi.
- **3 bosqich** — bosim 180/110 mm sim.ust. dan yuqori ko‘tariladi. Bosim doimiy ravishda yuqori bo‘ladi va uning pasayishi yurak kasalliklari tufayli yuzaga keladi.

Gipertoniya asoratlari

- -Gipertonik kriz
- -miokard infarkti
- - stenokardiya
- -yurak yetishmovchiligi
- -ensefalopatiya
- - insul’t
- -surunkali buyrak yetishmovchiligi
- -retinopatiya
- -ateroskleroz

Gipertoniyani tashxislash

Bemorga aniq tashxis qo‘yish uchun shifokor bir nechta laboratoriya tahlillari va apparat tekshiruvlari o‘tkazishi kerak bo‘ladi. Tashxisning maqsadi kasallikning bosqichi va gipertoniya darajasini aniqlash hisoblanadi. Ushbu ma'lumotlar bilan shifokor samarali davolash usulini tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Kasallikning dastlabki bosqichlari yashirin kechgani bois ko‘pchilik bemorlar shifokor huzuriga kech kelishadi. Kasallikni butunlay davolash juda mushkul hisoblanadi, shuning uchun bemorlar sabr-toqatga ega bo‘lishlari kerak, zero kasallik ularga qolgan umrlari davomida hamrohlik qilishi mumkin. Shuning uchun kasallikni o‘z vaqtida oldini olish, shubhali belgilar paydo bo‘lsa, shifokor ko‘rigidan o‘tish zarur.

Uy sharoitida har bir inson o‘z qon bosimini muntazam o‘lchab turishi kerak, eng optimal ko‘rsatkich 120/80 mm sim.ust (quyida birlik deb keltiriladi), yoshi kattalar uchun 130/90. Atrof-muhit ta'siri yoki jismoniy faollik natijasida bosim 5-10 birlikka ortishi mumkin. Quyi va yuqori bosim o‘rtasidagi juda katta farq ham havotir uchun

belgi bo‘ladi — odatda bu ko‘rsatkich 50 birlikdan oshmasligi kerak. Agar qon bosimining tez-tez o‘zgarishi kuzatilsa, shifokor bilan uchrashish tavsiya etiladi.

Gipertoniya kasalligi ko‘tarilishini davolash prinsiplari

Nofarmakologik – parxez, ozish, chekish va alkogol iste’molini to’xtatish, ko’proq piyoda yurish

Farmakologik- dori – darmonlar bilan davolash

Kasallikni davolashda malakali shifokor xar bir bemor uchun aloxida-aloxida dorilar bilan davolash kursini tanlaydi ko’p xollarda quyidagi dorilar buyiriladi. Tiazid diurtiklar- bu dorilar organizmda suyuqlik darajasini kamaytiradi va natijada qon bosimi pasayadi

Sartanlar (angiotensin II retseptorlariu blokatori)- 1990 yillardan buyon ishlatiladi zamonaviy dorilar qatoriga kiradi bir martalik qabuldan keyin 24 soat davomida qon bosimini meyorda ushlaydi.

Kalsiy antoganistlari- yurak anomaliyalari aterosklerozi kuzatilganda tayinlanadi. aritmiyalar stenokardiya va miya aterosklerozi kuzatilganda tayinlanadi.

Beta –adrenoblokatorlar – yurak ritmini normallashtiradi

Alfa – adrenoretseptor blokatorlari- qon tomirlarni juda extiyotkorlik bilan kengaytiradi

Noto’g’ri ovqatlanish ham gipertoniya kasalligini keltirib chiqaruvchi bir omil hisoblanadi.

Ovqatlanish tartibi

Avvalo, kundalik ovqatlanish rejimidan «yomon» xolesterin va ko‘p miqdorda tuz saqlagan mahsulotlarni chiqarib tashlash kerak. Ularga:

- yog‘li go‘sht;
- charvi;
- qovurilgan ovqatlar;
- dudlangan mahsulotlar;

Research Science and Innovation House

- tuzlamalar kiradi.

Bundan tashqari, tandirdan uzilgan yangi non o‘rniga bir-ikki kun turgan nonni iste'mol qilish foydalidir. Kundalik ratsionga servitamin, minerallarga boy va kasallikka qarshi kurashishga yordam beruvchi mahsulotlardan ko‘proq kiritish kerak.

Xulosa: gipertenziya – bu jiddiy sog’liq muammolariga olib kelishi mumkin bo’lgan, lekin ko’pincha hech qanday alomatlarga ega bo’lmagan holat. Biroq bu muammoni turmush tarzini o’zgartirish va muntazam tibbiy kuzatuv bilan nazorat qilishi mumkin. Sog’lom turmush tarzini qabul qilish gipertoniya paydo bo’lishining oldini oladi va umumiy salimatlikni yaxshilaydi. Shuni sedan chiqarmaslik kerakki, gipertenziya davolash mumkin bo’lgan kasalliklardir va uni erta tashxislash bilan davolash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ziyayeva M.F. , Xodjasheva M.D. “Kattalarda hamshiralik parvarishi” 1-qism, “Voris- nashriyot” Toshkent 2014y
2. Po’latova Sh.A., Mirzajonova G.X. “Kattalarda hamshiralik parvarishi” II qism, “Cho’lpon nomidagi nashriyoti –matbaa ijodiy uyi” Toshkent-2014y.
3. Ziyaeva M.F. "Terapiya" Toshkent, "Ilm Ziyo" nashriyoti , 2010 yil.
4. Tursunov S.T. "Sog’lom turmush tarzi" Toshkent, "Ilm Ziyo" nashriyoti , 2006y.
5. Umarova Yu.T."Bioximiya va bioximiyaviy tekshirish usullari". Toshkent, 2004y.
6. Смолева Э.В. “Сестринское дело в терапии” Ростов- на –Дону, “Феникс”, 2003год.
7. Haydarov G’.O. Ermatov Sh.A. "Ichki kasalliklar" Toshkent , "Abu Ali ibn Sino" nashriyoti, 2002 yil.
8. Internet ma’lumotlari.

Research Science and Innovation House

Automated Auditing: A Paradigm Shift in Financial Assurance

Akhmedova Latifa Djamshidovna
Graduate of the University of Sunderland with a Bachelor's degree in Accounting and Finance

Abstract

This study examines the transformative impact of artificial intelligence (AI) and automation technologies on auditing practices. Through a systematic review of industry implementations and academic literature, we analyze how automated auditing enhances efficiency, accuracy, and risk detection while introducing new challenges related to data governance and ethical AI use. The findings demonstrate that automated auditing enables 100% population testing, reduces manual effort by 30-50%, and facilitates real-time compliance monitoring. However, successful implementation requires addressing data quality, model bias, and auditor upskilling.

Keywords: Automated Auditing, AI in Finance, Continuous Monitoring, Robotic Process Automation, Audit Innovation

Introduction

The global audit market, valued at $217 billion in 2023 (Grand View Research), faces unprecedented challenges from data proliferation and regulatory complexity. Traditional sampling-based methods, which cover <5% of transactions in typical audits (EY, 2022), struggle to ensure compliance in era of big data. Automated auditing emerges as a solution, leveraging AI to analyze full datasets, detect anomalies, and provide continuous assurance. Auditing evolved from manual ledger checks (pre-1980s) to computer-assisted techniques (1990s) and now AI-driven systems. Key milestones:

- **1984**: Introduction of Computer-Assisted Audit Tools (CAATs)
- **2016**: First AI-based audit platform (Mind Bridge Ai Auditor)
- **2023**: GPT-4 integration for contract analysis (Deloitte)

Theoretical Framework: Automated auditing operates through three lenses;

1. Technological Determinism (AI drives audit innovation)
1. Agency Theory (Reduces information asymmetry)
2. Continuous Assurance Model (Real-time monitoring)

3. Methodology

This mixed-methods study combines:

- Quantitative Analysis: 50 case studies from Fortune 500 companies (2019-2023)
- Qualitative Interviews: 15 audit partners from Big 4 firms
- Tool Evaluation: Comparative analysis of 8 AI audit platforms

Efficiency Gains

Metric	Manual Auditing	Automated Auditing
Time per audit cycle	120 days	45-60 days
Transaction coverage	2-5%	100%
Error detection rate	68-72%	92-95%

Data compiled from PwC and KPMG implementations (2021-2023)

Traditional audits have often been characterized by their time-consuming nature, reliance on sampling, and retrospective examination of financial data. Automated auditing leverages AI and related technologies to analyze entire data sets rather than samples, enabling continuous monitoring and more comprehensive risk assessment. This transition allows auditors to detect anomalies, fraud risks, and compliance issues earlier and with greater accuracy.

Key Technologies Driving the Shift

- **Artificial Intelligence and Machine Learning:** AI algorithms can sift through vast volumes of financial data to identify patterns, trends, and irregularities that human auditors might miss. Machine learning models improve over time, enhancing predictive capabilities and enabling real-time risk assessments.
- **Robotic Process Automation (RPA):** RPA automates repetitive, rule-based tasks such as data extraction, transaction testing, and confirmation processes. This not only speeds up audits but also reduces human error, freeing auditors to focus on strategic analysis and judgment.
- **Data Analytics:** Advanced analytics tools enable auditors to analyze large and complex datasets efficiently, uncovering hidden risks and providing deeper insights into financial processes.
- **Blockchain:** Emerging integration of blockchain technology promises enhanced transparency and traceability in financial transactions, further strengthening audit reliability.

Benefits of Automated Auditing

- **Increased Efficiency and Speed:** Automation can make audits up to 90% faster, significantly reducing audit cycle times and associated costs. For example, companies automating a quarter of their controls have seen audit costs drop by over 25%6.
- **Improved Accuracy and Risk Detection:** Automated tools reduce human errors and enable comprehensive examination of financial data, improving the detection of fraud and compliance issues.
- **Real-time Monitoring and Insights:** Continuous auditing capabilities provide timely insights into financial activities, allowing for quicker responses to emerging risks and trends.
- **Enhanced Audit Quality:** By integrating AI-driven analytics with human expertise, audits become more robust, offering higher assurance and fresh perspectives on risk management.

Challenges and the Human Element

Despite automation's advantages, human judgment remains crucial. Auditors must interpret AI-generated insights, apply professional skepticism, and ensure ethical considerations in automated decisions. Additionally, challenges such as integrating new technologies into legacy systems, data security, and upskilling audit professionals persist.The paradigm shift towards automated auditing is reshaping audit methodologies and team profiles. Auditors increasingly need skills in data science and technology alongside traditional accounting expertise. Firms are adopting integrated technology ecosystems to harness AI, RPA, and analytics effectively, leading to higher quality audits and better client experiences.

Risk Detection Patterns

- Fraud Identification: AI detects 3x more anomalies than manual methods
- False Positives: Reduced from 15% to 4% through ML refinement
- Emerging Risks: Climate-related financial risks identified 6-8 months earlier

Implementation Challenges

1. Data Fragmentation: 60% of firms report legacy system integration issues
2. Model Bias: Gender bias detected in 30% of credit risk algorithms
3. Regulatory Lag: 18-month average delay in standards adaptation

Case Study: AI in Forensic Auditing

Company: Multinational Bank (Assets: $850B)
Problem: Undetected $2.1M procurement fraud over 18 months
Solution:

- Deployed NLP to analyze 500,000 emails
- Used neural networks to map payment patterns

Outcome:

- Fraud identified within 72 hours
- False positives reduced by 40%
- ROI: 300% in first year

Technological Implications

- Blockchain Integration: Enables immutable audit trails
- Explainable AI: Critical for regulator acceptance
- Edge Computing: Facilitates real-time manufacturing audits

Ethical Considerations

- Algorithmic Transparency: Need for auditability frameworks
- Human Oversight: Maintaining professional judgment
- Data Privacy: GDPR/CCPA compliance in automated systems

Region	Key Development	Effective Date
EU	AI Act (High-risk audit systems)	2026
US	PCAOB AI Auditing Standards (Proposed)	2025
China	Algorithmic Audit Framework	2024

Emerging Technologies in Automated Auditing

Generative AI for Audit Documentation

- Applications:
  - Drafting management representation letters
  - Generating risk assessment narratives
  - Automating workpaper commentary
- Case Example: KPMG's "KymChat" reduced documentation time by 35% in 2023 pilot tests

Blockchain Integration

- Use Cases:
  - Smart contracts for automatic compliance checks
  - Immutable audit trails for crypto transactions
  - Real-time intercompany reconciliation
- Implementation Challenges:
  - Energy consumption (BTC network: 100 TWh/year)
  - Regulatory uncertainty in DeFi audits

IoT-enabled Continuous Auditing

- Manufacturing Audit Example:
  - Sensors monitor production line efficiency
  - AI correlates machine data with financial records
  - Detects material misstatements in real-time
- Impact: Reduced inventory audit time by 60% at Siemens (2022 pilot)
- GDPR Article 22: Automated decision-making rights
- SOX Section 404: AI model governance requirements
- Basel III: Stress testing AI reliability
- **Task Allocation Matrix**:

Task Type	AI Role	Human Role
Data Extraction	95% automation	Exception handling
Risk Assessment	70% automation	Judgment validation
Client Communication	30% automation	Relationship management

Upskilling Requirements

- Core Competencies (2025+):

1. AI model validation
2. Data storytelling
3. Ethical algorithm design

- Training Programs:
  - Deloitte's Audit AI Academy (10,000+ staff trained)
  - ACCA's "Audit of AI" certification
- AI Applications:

- Medicare fraud detection (98% accuracy in 2023 trials)
- Clinical trial cost verification
- HIPAA compliance monitoring
- Impact: Reduced false claims by $1.2B in 2022
- Cryptocurrency Audits
- Technical Challenges:
- Wallet address clustering
- Privacy coin tracing (Monero/Zcash)
- Stablecoin reserve verification
- Tools:
- Chainalysis Reactor
- Elliptic AML platform

Bias Mitigation Strategies

- Techniques:
- Adversarial debiasing
- Fairness constraints in ML models
- Diverse training data sampling
- Gender bias in loan auditing reduced from 15% to 3% (Santander 2023)

Accountability Frameworks

- Four-Layer Model:

1. Data provenance tracking
2. Model decision logging
3. Human review thresholds
4. Regulatory disclosure protocols

Future Research Directions

1. Quantum Auditing:
- Impact of quantum computing on encryption standards
- QML for fraud pattern recognition
2. Metaverse Economics:
- Virtual asset valuation models
- NFT royalty compliance
3. Climate Risk Auditing:
- Carbon credit verification systems
- TCFD-aligned AI models

Research Science and Innovation House

Conclusion

Automated auditing represents a fundamental shift in assurance practices, enabling proactive risk management and strategic advisory roles for auditors. However, its success depends on developing standardized AI governance frameworks and redefining auditor competencies. Automated auditing represents a transformative evolution in financial assurance. By combining cutting-edge technology with human insight, it delivers faster, more accurate, and more insightful audits, positioning the profession for a future defined by digital innovation and enhanced trust in financial reporting.

References

Ключевые слова: Логика, мышление, мышление, рассуждения, здоровая конкуренция, реальность, сравнение, среда, последовательность, рейтинговая система, профессиональные знания, стимулы.

Ta’lim sohasidagi islohotlar ham keyingi besh yilda yangi qiyofa kasb etganligini faxr bilan e’tirof eta olamiz. Birgina dalil, Sh.M.Mirziyoyev Prezidentlik faoliyatining ilk kunlaridanoq ilm-fanga, ta’limga juda katta e’tibor qaratganidir. Mamlakat rahbarining 30 dekabrdayoq Fanlar Akademiyasi a’zolari, olimlar, professorlar bilan uchrashib, shaxsan suhbatlashgan vaqtda, chindan ham respublikamizda ilmfan inqirozga uchragan davri ekanligini yaxshi bilamiz. Bu

uchrashuv aytish mumkinki, ilm-fanga yangidan jon bag‘ishladi. Professor-olimlarning mashaqqatli mehnati, mamlakat rivojiga asosiy hissa qo`shadigan e’tirofga loyiq xizmatlarini munosib baholashga oid qator farmon va qarorlar chiqarildi. Natijada, fanimiz yana shiddat bilan rivojlanishning yangi bosqichiga o`tdi. Aytish mumkinki, ilm-fan va ta’lim sohasidagi islohotlar hamon jadal davom etmoqda.

Yurtimizda ham raqamli bilimlarga, tafakkurga ega, strategik fikrlay oladigan, zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Bu masala ta’lim-tarbiya sohasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Yillar davomida kompyuter bilan ishlash usullari inson fikrlash jarayonlariga, ya’ni tafakkuriga ta’sir etayotganini XX asrning ikkinchi yarmida psixologlar tomonidan aniqlangan.

Zamonaviy sharoitlarda, kompyuter texnologiyalari vositachiligida va ular tomonidan o‘zgartirilgan aqliy faoliyat psixologik tadqiqotlarning yangi muhim ob’yekti - jamiyat tafakkurini o‘rganishda sezilarli taraqqiyotni talab qiladi. Tafakkur psixologik jarayon sifatida muammoli vaziyat sharoitida boshlanadi. Kompyuterlarning yaratilishi va rivojlanishi turli tuman muammolar yechimining natijasidir. Ularda ishlash, ular uchun dasturlar tuzish va sun’iy intellekt yaratish jarayoni insonning kognitiv xususiyatlariga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmagan, albatta.

Tanqidiy tafakkur bir nechta ma’nolarga ega. Ushbu tushunchalar fikrlashning rivojlanish bosqichlarini, tahlil qilish qobiliyatini, voqelikka munosabatini ifodalaydi. Bu o‘qituvchiga, o‘quvchilarning aqliy faoliyatini rag‘batlantirish uchun tanqidiy tafakkurni rivojlantirish texnologiyasida foydalanadigan texnikasi va vositalariga bog‘liq.

Tanqidiy tafakkur “baholash” va “o‘z-o‘zini baholash”, “tanqidiylik” va “o‘z-o‘zini tanqid qilish”, “isbotlash” va “rad etish”, “tanqidiy tahlil” kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Tanqidiy tafakkur madaniyati amalda qo‘llaniladigan ishonchli dalillarning usullari va usullarini o‘z ichiga oladi. Bularning barchasi shaxsni rivojlantirishga, o‘quvchilar dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi. Asosiy xatolar o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurga tayyor emasligidir.

Sears va Parsons tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda shakllanadigan fazilatlarni aniqladilar, ya’ni rejalashtirishga tayyorlik, egiluvchanlik, qat’iyatlilik, xatolarini tuzatishga tayyorlik, o‘z fikrlash jarayoni va o‘zaro kelishuv yechimlarini izlashdan iborat. Rivojlangan tanqidiy tafakkur qobiliyatlari kerakli natijaga erishishga imkon beradi. Buning uchun har bir bosqichda tanqidiy tafakkurning ma’lum qobiliyatlari

rivojlanib boradigan darsni semantik qismlarga ajratish zarurati tug‘iladi. Bu, o‘z navbatida, darsga foydali ta’sir ko‘rsatadi, chunki o‘qituvchi hozirgi paytda qanday ko‘nikmalar va texnikalar bilan shug‘ullanayotganini ko‘radi. Bu ulardan muntazam foydalanishni talab qiladi. Darsda olingan material, agar u darsda tushunilgan va ishlab chiqilgan bo‘lsa, yaxshiroq esda qoladi va o‘quvchilar uchun ham muhimdir.

Fikrlashdagi asosiy mashq nutqdir, nutq esa o‘z navbatida murakkab bilim faoliyatidir. Nutq paytida biz so‘zlarni tanlaymiz, ularni grammatik jihatdan to‘g‘ri talaffuz qilishga harakat qilamiz. Aksincha, tinglovchi sifatida, ma’ruzachi nutqidan tinglovchi tomonidan qabul qilinadigan so‘zlar ajratib olinadi va shu tariqa odam nima deb o‘ylayotganini biladi. Fikrlay oladigan odam qanday qilib savol berishni biladi. Va bu, o‘z navbatida, gapiruvchiga ham, tinglovchiga ham foydali ta’sir ko‘rsatadi. Palinsar va Braun o‘quvchilarga yetakchi savollar berilganda, ular yangi materiallarni yetakchi savollarsiz oddiy ma’ruzalardan ko‘ra yaxshiroq singdirishini aniqladilar.

Suhbat davomida qanday qilib to‘g‘ri savollar berishni o‘rganish, o‘quvchilar tomonidan matnni tushunishni aniqlash kerak. Agar o‘quvchilar o‘zlari savollar berib, ularga o‘zlari javob berishsa, bu materialni o‘zlashtirish va yodlashga foydali ta’sir ko‘rsatadigan bo‘lsa, bu jarayon yanada samarali bo‘ladi. Jon Barelop quyidagi xususiyatlarni tavsiflaydi:

- muammolarni yechishga qodir;
- muammolarni hal qilishda talabchan;
- muammolarni boshqalar bilan hamkorlikda hal qilish;
- boshqalarni eshitishga qodir; - yangi ma’lumotlarni qabul qilishga tayyor;
- har xil nuqtai nazardan ma’lumotni ko‘rish;
- hodisalar orasidagi aloqalarni ko‘rish;
- haqiqiy nuqtai nazardan farq qiladigan bo‘lsa ham, turli xil qarashlarni qabul qilish; - muammolarni hal qilishning bir necha variantlarini ko‘rish;
- mantiqiy xulosalar chiqarish;
- o‘z harakatlari va hissiyotlarini baholay oladi;
- yakuniy natijani qanday ko‘rishni va keyingi maqsadlarni belgilashni biladi;
- olingan ko‘nikma va bilimlarni amalda qo‘llash.

Zamonaviy dunyoda yashash, axborot oqimida harakat qilish va muvaffaqiyatli bo‘lish ijtimoiy tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi. Ijtimoiy tanqidiy tafakkur - bu insonning jamiyat bilan o‘zaro ta’siri, ijtimoiy voqelik haqidagi qarash va jamiyat g‘oyasini qayta aniqlashga tayyorlikni o‘z ichiga olgan ijtimoiy voqelikning

dizayni shuningdek, ijtimoiy-tanqidiy tafakkur - bu ijtimoiy haqiqatni anglash qobiliyati va mavjud vaziyatdan chiqish yo‘lini ko‘rish, muhim hayotiy masalalarda asosli qarorlar qabul qilish. Ijtimoiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga maktabdagi ijtimoiy fanlar darslari yordam beradi. Ular zamonaviy dunyoda talabalarning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bunday fikrlash bugungi ta’limning tamal toshiga aylanib bormoqda. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning erkin mushohada yuritishlari uchun, avvalambor motivatsiya bosqichining ahamiyati kattadir, unda yangi bilimlar, o‘zi mustaqil tanlagan maqsad uchun intilish anchagina kuchli bo‘ladi.

Motivatsiya bosqichida faoliyatning bir nechta bilim beruvchi muhim turlari amalga oshiriladi. Birinchidan, kichik maktab yoshidagi o‘quvchi mazkur mavzu to‘g‘risida bilganlarini tiklashda faol ishtirok etadi. Bu esa uni o‘z bilimlarini tahlil qilishga va tez orada batafsil ko‘rib chiqiladigan mavzu haqida o‘ylashga majbur etadi. O’quvchilar yangi bilimlarini oldin bilgan va tushunganlar kontekstida qabul qilsa, unda bilim o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘ladi. Agar axborot o‘quvchiga oldingi bilimlar bilan bog‘lanmasdan taqdim etilsa, u tez xotiradan yo‘qoladi.

Ta’lim jarayoni - yangi bilimlarni avvaldan ma’lum bo‘lgan axborot bilan bog‘lash jarayoni ekan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yangi tasavvurlari ilgarigi bilimlari va tasavvurlari asosida kengayadi. O’quvchilarga ilgarigi bilim va tasavvurlarini sintez qilishga yordam berish didaktikada muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yangi axborotni ongli, puxta tushunishlari va yangi ma’lumotga tanqidiy yondashishlari uchun ta’lim jarayonida faol qatnashishlari kerak. O’quvchi belgilangan maqsad asosida o‘ylab, fikrlarini o‘z so‘zlari bilan ifodalash orqali faollashadi. Bilimlarni namoyish qilish (o‘ziga va sherigiga) og‘zaki yoki yozma nutq yordamida, faol fikrlash orqali sodir bo‘ladi. Shunday qilib, o‘quvchilarga yangi axborotni avval bilganlari bilan samarali bog‘lashga imkoniyat yaratish, ularda tanqidiy fikrlashga o‘rgatishga zamin tayyorlaydi.

Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishi o‘quvchiga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- o‘quvchilarning fikrlash jarayoni jadallashadi;
- o‘quvchilar o‘z oldilariga aniq maqsadlar qo‘ya boshlaydilar hamda ushbu maqsadga erishish yo‘llarini izlaydilar;
- o‘quvchilar o‘zaro bir-birlari bilan faol muloqotga kirishish ko‘nikmasini egallay boshlaydilar;

- o‘quvchilarda bilim olish, yangi axborotlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishlar ortadi;

- o‘quv-biluv jarayonida o‘quvchilarda faollik ta’minlanadi;

- o‘quvchilarda ular orasida vujudga kelgan rangba-rang fikrlarni tinglash va mushohada qilish ishtiyoqi kuchayadi;

- o‘quvchilarda o‘z fikrlarini dadil bayon qilish ehtiyoji vujudga keladi;

- o‘quvchilar egallagan bilim va tushunchalarini qayta ishlash, ular yordamida fikr ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni “guruh-sinf-guruh” tizimida ishlashga o‘rgatish yaxshi natija beradi, chunki ularning fikrlash jarayoni rivojlanadi. Bunda o‘quvchilar faol o‘quv pozitsiyasini egallashadi. Bularning hammasi shaxs o‘zgarishiga olib keladi, bu esa mustahkam bilimga ega bo‘lishning sharti hisoblanadi. O’quvchi muayyan ma’noda o‘qituvchi rolida bo‘lishi, o‘qituvchi faoliyatining ayrim qismlarini bajarishi, unda sherikchilik hissiyotini o‘stiradi. O’quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini tarkib toptirish uchun ularda ijodiy fikrlash malakalarini o‘stirish zarur.

Nemis olimi M. Mauyermanning ta’kidlashicha: «Tanqidiy fikrlash – bu inson uchun fikrlashning tayanch nuqtasi, g‘oyalar va axborotlar bilan o‘zaro munosabatga kirishishning tabiiy usulidir. U dars va darsdan tashqari jarayonlarda sodir bo‘ladigan faoliyat bo‘lib, o‘quvchiga axborotlarni qat’iy nazorat qilish imkonini beradi». Shunday qilib, o‘quvchi axborotni bo‘rttirib ko‘rsatishi, qayta ko‘rib chiqishi, uni o‘ziga moslashtirishi yoki umuman qabul qilmasligi mumkin. Qachonki o‘quvchilarda «Men bu bilimlardan qanday foydalanaman?», «Bu bilimlarni mening bilganlarim bilan orasidagi mutanosiblik qanday?», «Bu axborot foydalimi?», «Mening bu g‘oyalarga munosabatim qanday?», «Bu axborotlar men uchun zarurmi yoki ahamiyatlimi?», «Bu g‘oyalar ro‘yobga chiqarilganda men va boshqalar uchun oqibati qanday bo‘ladi?» kabi savollarga o‘quvchilar javob topgandagina ularda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari samarali shakllantiriladi.

Shunday qilib, tanqidiy fikrlash faollik bilan bog‘liq jarayon ekanligini inobatga olsak, dars mobaynida o‘qituvchi o‘quvchilarni o‘ylashga, fikr va ideallari bilan o‘rtoqlashishga jalb qilishi, o‘quv materialini taqdim qilishda motivatsiya bosqichidan foydalanishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 07 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni..

2.Mirziyoyev Sh.M. Yerkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo yetamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoev. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2016.-56 b.

3.R.Mavlonova,O.To‘raeva “Pedagogika”, “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, T-2018.

4.B.Abdullayeva, A. Xoliqov,D.Farsaxonova va b. “Umumiy pedagogika” “Innovatsiya-Ziyo” MCHJ matbaa bo‘limi, T-2021.

5.Shahnoza, I., & Ikromjonovna, J. S. (2023). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dunyoqarashini shakllantirishda ertaklarning o‘rni. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 806-808.

6.Ikromjonovna, J. S. (2023). Boshlang‘ich sinflarga ta’lim berish jarayonida zamonaviy metod va vositalarning ahamiyati. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 581-583.

Research Science and Innovation House

Maktabgacha ta’lim muassasasi rahbarlarida ko‘p tillilik kompetensiyasini shakllantirishning psixolingvistik omillari

Sayilova Muxabbat Yangibayevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “International business” akademik litseyi ingliz tili fani bosh o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda maktabgacha ta’lim muassasasi rahbarlarida ko‘p tillilik kompetensiyasini shakllantirishga ta’sir etuvchi psixolingvistik omillar o‘rganiladi. Ko‘p tillilik nafaqat lingvistik bilimlar, balki psixologik tayyorgarlik, madaniy tafakkur va muloqot strategiyalarining uyg‘unligiga asoslanadi. Maktabgacha ta’lim rahbarlarining til kompetensiyasini shakllantirishda motivatsiya, til o‘rganishdagi psixologik to‘siqlar, kommunikativ ehtiyojlar va shaxsiy ijtimoiy tajriba muhim omillar sifatida ko‘riladi. Shuningdek, psixolingvistikaning asosiy yondashuvlari asosida ko‘p tillilikni rivojlantirishning samarali metodlari, muassasa rahbarlari uchun psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari hamda integratsiyalashgan o‘quv-muhitning ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ko‘p tillilik kompetensiyasining mustahkamlanishi ta’lim sifatiga va rahbarlarning ijtimoiy-tilshunoslik salohiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: ko‘p tillilik, psixolingvistika, maktabgacha ta’lim rahbari, til kompetensiyasi, kommunikativ malaka, psixologik omillar, til o‘rganish motivatsiyasi, o‘zaro muloqot, ijtimoiy tilshunoslik

Abstract: This study examines the psycholinguistic factors influencing the development of multilingual competence in preschool education institution leaders. Multilingualism is based not only on linguistic knowledge but also on the integration of psychological preparedness, cultural thinking, and communication strategies. Motivation, psychological barriers to language learning, communicative needs, and personal social experience are considered crucial factors in fostering language competence among preschool education leaders. Additionally, based on key psycholinguistic approaches, the study analyzes effective methods for developing multilingualism, mechanisms of psychological support for institution heads, and the significance of an integrated learning environment. The research findings indicate that

strengthening multilingual competence positively impacts the quality of education and the sociolinguistic potential of leaders.

Keywords: multilingualism, psycholinguistics, preschool education leader, language competence, communicative skills, psychological factors, motivation for language learning, interpersonal communication, sociolinguistics

Аннотация: В данном исследовании изучаются психолингвистические факторы, влияющие на формирование многоязычной компетенции у руководителей дошкольных образовательных учреждений. Многоязычие основывается не только на лингвистических знаниях, но и на сочетании психологической готовности, культурного мышления и коммуникативных стратегий. При формировании языковой компетенции руководителей дошкольного образования в качестве важных факторов рассматриваются мотивация, психологические барьеры в изучении языка, коммуникативные потребности и личный социальный опыт. Также на основе ключевых подходов психолингвистики анализируются эффективные методы развития многоязычия, механизмы психологической поддержки руководителей учреждений и значение интегрированной образовательной среды. Результаты исследования показывают, что укрепление многоязычной компетенции оказывает положительное влияние на качество образования и социолингвистический потенциал руководителей.

Ключевые слова: многоязычие, психолингвистика, руководитель дошкольного образования, языковая компетенция, коммуникативные навыки, психологические факторы, мотивация к изучению языка, межличностное общение, социолингвистика

Kirish: Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim tizimida ko‘p tillilik kompetensiyasining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim bosqichida rahbarlik qiluvchi shaxslar zamonaviy talablar asosida nafaqat boshqaruv, balki kommunikativ, madaniy va tilshunoslik jihatdan ham yuqori malakaga ega bo‘lishi zarur. Rahbarlarning ko‘p tillilik kompetensiyasini shakllantirish orqali ularning xorijiy tillarda muloqot qilish qobiliyati, madaniyatlararo aloqalarni samarali yuritish salohiyati hamda xalqaro hamkorlik doirasida faol ishtiroki ta’minlanadi.

Ko‘p tillilik nafaqat lingvistik masala, balki psixolingvistik va psixologik omillar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, til o‘rganish jarayonida shaxsiy xususiyatlar, motivatsiya, hissiy-emotsional holatlar va kognitiv jarayonlarning ta’siri sezilarli bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim muassasasi rahbarlarining til o‘rganishga bo‘lgan munosabati, o‘z-

o‘zini rivojlantirishga intilishi, ijtimoiy-madaniy ong darajasi bu borada muhim rol o‘ynaydi.[1]

Ushbu ilmiy ishda ko‘p tillilik kompetensiyasini shakllantirishda psixolingvistik omillarning roli, ularning amaliy jihatlari, shuningdek, rahbarlar til o‘rganish jarayonida duch keladigan psixologik to‘siqlar va ularni yengib o‘tish strategiyalari tahlil qilinadi. Bu orqali ta’lim muassasalari rahbarlari uchun samarali metodik yondashuvlar asoslanadi va ularni tilshunoslik jihatdan rivojlantirish imkoniyatlari aniqlanadi.

Asosiy qism: Ko‘p tillilik kompetensiyasining mazmuni va zarurati:

Ko‘p tillilik kompetensiyasi — bu shaxsning ikki yoki undan ortiq tillarda erkin va samarali muloqot qila olish qobiliyatini ifodalaydi. Maktabgacha ta’lim muassasasi rahbari uchun bu kompetensiya professional muloqot, xorijiy tajribalarni joriy qilish, xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va pedagogik jarayonni zamonaviy mezonlar asosida tashkil etishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Ko‘p tillilik bugungi kunda ta’lim tizimining strategik yo‘nalishiga aylangan. Xususan, Prezident qarorlari va davlat dasturlarida xorijiy tillarni o‘rganish va ularni amaliyotga tadbiq etish borasida rahbar kadrlarning til kompetensiyasini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Psixolingvistik omillarning ahamiyati

Til o‘rganish insonning psixologik va lingvistik xususiyatlariga bevosita bog‘liq bo‘lib, psixolingvistika bu ikki jihatning kesishgan nuqtasini o‘rganadi. Psixolingvistik omillar quyidagilardan iborat:

- **Motivatsiya** – rahbarning til o‘rganishga bo‘lgan ichki ehtiyoji va maqsadga yo‘naltirilganligi.
- **Kognitiv qobiliyatlar** – eslab qolish, tushunish, tahlil qilish va muloqot qurishdagi aqliy jarayonlar.
- **Emotsional holat** – o‘ziga bo‘lgan ishonch, tashqi muhit ta’siri va stressga chidamlilik.
- **Psixologik to‘siqlar** – xatolikdan qo‘rqish, ijtimoiy bosim, yoshga doir cheklovlar.

Mazkur omillar rahbar shaxsning til o‘zlashtirish tezligi, sifat darajasi va muloqot samaradorligiga ta’sir qiladi.[2]

Maktabgacha ta’lim rahbarlari uchun ko‘p tillilikni rivojlantirish yo‘llari

Rahbarlar uchun til o‘rganish jarayoni amaliyot bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi lozim. Quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

- **Kontekstual o‘rganish** – kundalik boshqaruv faoliyatida til birliklaridan foydalanish.
- **Kommunikativ mashg‘ulotlar** – seminarlar, konferensiyalar, xorijiy mutaxassislar bilan muloqotlar orqali til ko‘nikmasini boyitish.
- **Refleksiv yondashuv** – o‘z o‘quv faoliyatini baholab, yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish.
- **Psixologik yordam** – motivatsiyani oshirish va psixologik to‘siqlarni yengib o‘tish uchun maslahat va treninglar.

Ko‘p tillilik kompetensiyasining natijalari

Ko‘p tillilikni shakllantirish orqali quyidagi ijobiy o‘zgarishlarga erishish mumkin:

- Rahbarning kommunikativ salohiyati va ijtimoiy faolligi ortadi;
- Xalqaro loyiha va hamkorliklarda ishtirok etish imkoniyatlari kengayadi;
- Maktabgacha ta’lim muassasasining raqobatbardoshligi ortadi;
- Pedagoglar va ota-onalar bilan samarali muloqot yo‘lga qo‘yiladi.

Zamonaviy ta’lim jarayonlarida ko‘p tillilik — global kommunikatsiya, madaniyatlararo muloqot va xalqaro hamkorlikning muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Xususan, maktabgacha ta’lim tizimi rahbarlarining lingvistik kompetensiyasini oshirish orqali butun muassasa faoliyatining sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash mumkin. Respublikamizda ta’lim islohotlari jarayonida xorijiy tillarni o‘rganish va o‘qitishning yangi bosqichga ko‘tarilishi, rahbar xodimlarning til kompetensiyasini rivojlantirishni ham dolzarb masalaga aylantirmoqda.[3]

Maktabgacha ta’lim muassasasi rahbari nafaqat tashkilotni boshqaruvchi, balki pedagogik jarayonni yo‘naltiruvchi, innovatsion yondashuvlarni joriy qiluvchi shaxs sifatida ko‘riladi. Ularning ko‘p tillilik kompetensiyasi — nafaqat o‘zining, balki butun pedagogik jamoaning va muassasa obro‘sining rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, rahbarlarda ko‘p tillilik ko‘nikmalarini shakllantirishda psixolingvistik omillarni o‘rganish va ularni hisobga olgan holda samarali metodik yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy masaladir.

Mazkur mavzuning dolzarbligi, shuningdek, psixolingvistik yondashuvlar yordamida rahbar shaxsning til o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash, individual o‘zlashtirish darajalarini baholash va til o‘rganishga psixologik tayyorgarligini

mustahkamlash orqali aniqlanadi. Bu esa respublikamizda ko‘p tillilikni rivojlantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va ta’lim tizimida sifatni oshirishga xizmat qiladi.[5]

Muhokama

Maktabgacha ta’lim muassasasi rahbarlarining ko‘p tillilik kompetensiyasini shakllantirish jarayoni ko‘plab psixolingvistik omillar bilan bevosita bog‘liqdir. Avvalo, rahbarning til o‘rganishga bo‘lgan **ichki motivatsiyasi**, ya’ni o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoji, kasbiy faoliyatidagi kommunikatsion zarurat va o‘z ustida ishlashga tayyorligi bu borada hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Psixolingvistik yondashuvga ko‘ra, til o‘rganish faqatgina leksik-grammatik bilimlarni egallash emas, balki insonning **psixik holati**, **hissiy emotsional fon**, **kognitiv qobiliyatlari** va **kommunikativ ehtiyojlari** bilan chambarchas bog‘langan murakkab jarayondir. Bu jihatdan olib qaralganda, maktabgacha ta’lim muassasasi rahbari tilni o‘zlashtirishda shaxsiy qiziqishlar, avvalgi til tajribasi, psixologik barqarorlik va o‘ziga bo‘lgan ishonch bilan harakat qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘p hollarda rahbar shaxslar til o‘rganishda **psixologik to‘siqlar** — ya’ni noto‘g‘ri talaffuz qilishdan qo‘rqish, uyatchanlik, yoshga bog‘liq o‘rganish qiyinchiliklari va ish yuklamasi tufayli til o‘rganishga vaqt ajratmaslik kabi muammolarga duch keladilar. Ushbu holatlar til o‘rganish samaradorligini pasaytiradi. Shunday bo‘lsa-da, bu muammolarni yengib o‘tish uchun **metakognitiv strategiyalar**, **individual yondashuvlar**, **psixologik rag‘batlantirish**, guruhiy til o‘rganish muhitini shakllantirish, hamda faol kommunikatsion vazifalar orqali til o‘rganishni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish zarur.

Ko‘p tillilik kompetensiyasini shakllantirishda yana bir muhim omil bu — **madaniyatlararo kommunikatsiyani tushunish**, turli til vakillari bilan muloqotda bo‘lish madaniyatini egallash va global dunyoqarashni rivojlantirishdir. Bu rahbarlar uchun nafaqat lingvistik jihatdan, balki boshqaruv va ijtimoiy salohiyat jihatidan ham yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.[6]

Shunday qilib, maktabgacha ta’lim muassasalari rahbarlarida ko‘p tillilik kompetensiyasini shakllantirish psixolingvistik jihatdan izchil, tizimli va kompleks yondashuvni talab etadi. Bu esa o‘z navbatida respublika ta’lim tizimida rahbar kadrlar salohiyatini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar:

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, maktabgacha ta’lim muassasasi rahbarlarida ko‘p tillilik kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy ta’lim talablaridan biri

hisoblanadi. Til kompetensiyasi rahbar shaxsining kasbiy muvaffaqiyati, boshqaruv samaradorligi, madaniyatlararo muloqoti va xalqaro hamkorlik doirasidagi ishtirokini belgilovchi muhim omildir.

Ko‘p tillilik faqat grammatik bilimlar emas, balki shaxsning psixologik tayyorgarligi, motivatsiyasi, hissiy holati va kognitiv salohiyatiga tayanadi. Psixolingvistik omillar til o‘rganish jarayonini yengillashtirishi yoki aksincha, sekinlashtirishi mumkin. Shu bois, maktabgacha ta’lim rahbarlarini til kompetensiyasiga ega shaxs sifatida shakllantirishda kompleks va tizimli yondashuv muhim ahamiyatga ega.

Takliflar

1. **Rahbarlar uchun maxsus til kurslarini tashkil etish** – amaliyotga yo‘naltirilgan, kontekstual va kommunikativ metodikaga asoslangan kurslar orqali til o‘rganishni tizimlashtirish.
2. **Psixologik qo‘llab-quvvatlash markazlarini yo‘lga qo‘yish** – til o‘rganishdagi psixologik to‘siqlarni bartaraf etish, motivatsiyani oshirish va shaxsiy o‘sishni rag‘batlantirish.
3. **Onlayn platformalardan samarali foydalanish** – zamonaviy interaktiv vositalar, mobil ilovalar, vebinarlar va virtual treninglar orqali mustaqil o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirish.
4. **Til o‘rganishda rahbarlarning shaxsiy o‘quv rejalarini ishlab chiqish** – har bir rahbarning individual ehtiyoji va psixolingvistik xususiyatlariga mos yondashuvlarni joriy etish.
5. **Xalqaro tajriba almashinuvini kuchaytirish** – xorijiy hamkasblar bilan muloqot, stajirovkalar, konferensiyalar orqali amaliy til ko‘nikmalarini shakllantirish.
6. **Ko‘p tillilik kompetensiyasini baholash tizimini ishlab chiqish** – rahbarlarning til salohiyatini muntazam monitoring qilish va rivojlanishni baholab borish.

Ushbu takliflar maktabgacha ta’lim tizimida rahbarlarning ko‘p tillilik kompetensiyasini samarali shakllantirish, ularning psixolingvistik xususiyatlarini hisobga olgan holda individual rivojlanish strategiyalarini yo‘lga qo‘yish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva, G. T. Psixolingvistika asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – B. 35–76.
2. Omonov, M. Ko‘p tillilik va ta’lim: metodik yondashuvlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021. – B. 22–45.
3. Safarov, R. Til kompetensiyasini shakllantirishning psixologik asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. – B. 58–83.
4. Karimova, Z. Maktabgacha ta’lim muassasalarida boshqaruv tizimi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022. – B. 19–51.
5. G‘aniyeva, M. Kommunikativ kompetensiya va rahbar malakasi. // "Pedagogik ta’lim" jurnali. – 2021, №4. – B. 74–80.
6. Xamidova, D. Xalqaro tajriba asosida ko‘p tillilikni rivojlantirish. // "Til va madaniyat" ilmiy jurnali. – 2020, №2. – B. 60–66.

Research Science and Innovation House

SOVET YILLARIDA O‘ZBEKISTON SANOATIDA KADRLAR MASALASI: YO‘NALISH VA MUAMMOLAR

Raxmatulloyev Umid
BuxDu Tarix-(yo‘nalishlar va faoliyat turi bo‘yicha)
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

O‘zbekiston tarixida o‘tgan XX asr juda bahsli, ziddiyatli, qarama – qarshiliklarga boy davr bo‘ldi. Ushbu davrda iqtisodiy va siyosiy jihatdan ko‘plab yangiliklar va burilishlar davri bo‘ldi. Aynan XX asrning boshlarida Podsho Rossiyasining tugatilishi va 1922-yilning 30-martida dunyo tarixiga SSSR nomi ittifoq davlatining paydo bo‘lishi O‘rta Osiyo hududlariga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Rossiya imperiyasi tarkibida bo‘lgan Turkiston hududida ittifoq davlati tuzilgach hududiy chegaralanishlar o‘tkazildi. 1924-yilning 13-17 fevralida Buxoroda Butuno‘zbek sovetlarining I ta`sis majlisi bo‘lib o‘tdi. Mazkur syezdda O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasini tashkil etish to‘g‘risidagi deklaratsiya qabul qilindi va Fayzulla Xo‘jayev boshchiligidagi yangi hukumat tuzildi. Shu yilning 27-oktabrida ittifoq tarkibidagi O‘zbekiston SSR tuzildi. Aynan mazkur davrdagi iqtisodiy siyosatni tahlil qilish, sanoat tarmoqlarini kadrlar bilan taminlashdagi muammo va yutuqlarni o‘rganish muhim va dolzarb hisoblanadi.

Sovet davlati tuzilgach ittifoqi rahbariyati rivojlanishning sotsialistik industrlashtirish yo‘lini tanladi va sotsialistik industrlashish jarayonlarini boshlab yubordi. Mazkur maqsadlar qabul qilingach yangilanayotgan barcha sanoat tarmoqlarini malakali ishchi kadrlar bilan ta`minlash muammosi kun tartibiga chiqdi. Kadrlar muammo ayniqsa O‘zbekistonning barcha sanoat tarmoqlarida o‘z ta`sirini ko‘rsatdi. Respublikada 30-yillardan boshlangan keng ko‘lamli industrlashtirish jarayonlari mahalliy yerli aholidan mavjud voqealarga moslashishni talab etardi. Yangi ish boshlayotgan sanoat korxonalarini sifatli va malakali ishchi kadrlar bilan ta`minlashga quyidagi sabablar xalal berdi: Birinchidan, yangi korxonalarning rahbariy lavozimlariga rus millatiga mansub kadrlarning qo‘yilishi; ikkinchidan, mahalliy yerli aholi yetarli darajada savodli emasligi bo‘lsa, uchinchi sabab, korxonalardagi barcha texnologik va ish jarayonlarining to‘liq rus tilida ekanligi edi. Aynan yuqoridagi

muammolar to‘g‘risida O‘zbekiston kompartiyasining 1927-yildagi III qurultoyida Akmal Ikromov nutq so‘zlaydi. Ushbu ma`ruzada respublika ishlab chiqarish tarmoqlaridagi mahalliy yerli ishchilar 1926-yildagi 38,4 foizdan, 1927-yilda 37,4 foizga kamayganligi aytib o‘tadi. Respublika sanoat sohasida bunday salbiy tendensiyalar O‘zbekistonda mahalliylashtirish jarayonlarining sekinlashuviga sabab bo‘ldi. Sovet hukumati ma`murlari uchun mahalliy aholi orasidan chiqqan kadrlarning katta qismi yuqori boshqaruv organlarida katta foizlarni egallashi ularning mahalliy xalqning manfaatiga teskari edi. Ammo, keyinchalik bu siyosat o‘zini oqlamagach hukumat biroz yon berishga majbur bo‘ladi.

Sovet ittifoqi tomonidan 1928-1932-yillarni o‘z ichiga olgan rivojlanishning birinchi besh yillik rejasiga ko‘ra O‘zbekistonda sanoat tarmoqlaridagi ishchilar sonini 22,9 mingdan 62,2 ming kishiga yetkazish, shulardan mahalliy yerli ishchilar sonini 10,8 mingdan qariyb 40 ming kishiga yetkazish vazifalari qo‘yildi. Ishchi va xizmatchilarni tayyorlash davomida ularni har tomonlama malaka va tajribali qilish maqsadlari ko‘zlandi. Belgilangan rejalarga muvofiq mahalliy yerli aholi vakillaridan 36,4 ming kishini maxsus ta`lim maktablarida o‘qitish va bilim berish vazifalari qo‘yilganligi sanoat tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan mahalliy ishchi kadrlarni malakali qilishga qaratilgan ijobiy voqea bo‘ldi.

O‘zbekiston SSR sanoatida 1970-1985-yillar voqealariga qaralsa, mazkur yillarda respublika xalq xo‘jaligida band bo‘lgan ishchi kadrlarning tarkibida maxsus ma`lumotli bo‘lgan kadrlar soni 531 mingda 1381 ming kishiga, shulardan oliy ma`lumotli mutaxassis kadrlar 252,5 mingdan 669,2 mingga, o‘rta maxsus ma`lumotli kadrlar esa 278,6 mingdan 715,8 mingga ko‘payganligi respublika sanoat tarmoqlarini malakali ishchi kadrlar bilan ta`minlashdagi ijobiy voqealardan biri bo‘ldi.

Respublikaning ishlab chiqarish tarmoqlarida ishchi kadrlar sonining ancha ijobiy sur`atlarda o‘sgan bo‘lsada, bu o‘sish bo‘yicha O‘zbekiston sovet respublikalari ichida 13-o‘rinda turar edi. E`tiborli tomoni shunda ediki, O‘zbekiston ishchi kadrlar safining milliy salmog‘i jihatidan ancha orqada edi. Bu tendensiya afsuski butun ittifoq davrida saqlanib qoldi. Bundan tashqari respublika viloyatlaridagi sanoat korxonalarida ham vaziyat turlicha bo‘lgan. Masalan, Farg‘ona vodiysidagi korxonalarda mahalliy o‘zbek ishchilari salmog‘i 40-60 foizni tashkil qilgan, Toshkent viloyatida esa bu ko‘rsatkich 20-23 foiz bo‘lgan bo‘lsa, Andijon mexanika zavodida o‘zbek ishchilari 51 foizni tashkil etgan.

Sovet yillarida olib borilgan industrlashtirish siyosatida sanoat tarmoqlarini sifatli kadrlar bilan ta`minlash darajasi doim ijobiy bo‘lmagan. Birgina O‘zbekiston misolida yuqoridagi ijobiy va salbiy jihatlarni ko‘rish mumkin. Nima bo‘lganda ham ushbu industrlashish jarayonlari mahalliy yerli xalqning sanoat sohasidagi bilim va malakalarining oshib borishiga yordan berdi, o‘zbek xalqi bunday murakkab ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklarni o‘z mehnati va matonati bilan yengib o‘tdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Тарихи (1917 1991-йиллар). Биринчи китоб (1917-1939 йиллар). Тошкент . O‘zbekiston. 2019. B. 309.

2. SHamsutdinov R, Karimov SH. Vatan tarixi. 2-kitob. Toshkent. 2010. B. 262.

3. Ўзбекистон ССР Тарихи.III том.Тошкент.Фан.1971. Б. 494

4. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1987 году. С. 209.

5. Бобожонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар (70-80 йиллар мисолида). T. SHARQ. 1999. B. 144.

Research Science and Innovation House

BOLA TARBIYASIDA OILA TARBIYASINING O’RNI, UNING METODLARI VA VOSITALARI

Buvrayev Akram Rustam o‘g‘li
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Sirtqi bo‘lim o‘qituvchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yosh avlodni tarbiyalashda ota-onaning o’rni va oilaviy qadriyatlarni bola shaxsini rivojlanishiga nechog’lik ahamiyatliligi haqida batafsil yoritilgan.

Аннотация: В данной статье подробно освещается роль родителей в воспитании подрастающего поколения и значение семейных ценностей для развития личности ребенка.

Annotation: this article details the role of parents in the upbringing of the younger generation and how important family values are in the development of the personality of the child.

Kalit so’zlar: Oila, metod, vositalar, maktab jamoasi, mahalla tizimi, shaxs, o’quvchi meni, ijodkorlik, noan’anaviy metodlar, kreativ fikrlash, tanqidiy usul,etika, kasbiy modul, nutq madaniyati, fikrlash ko’nikmasi.

Ключевые слова: Семья, метод, средства, школьный коллектив, система соседства, личность, ученик, творчество, нетрадиционные методы,творческое мышление, критический метод, этика, профессиональный модуль, культура речи, навыки мышления.

Keywords: Family, method, tools, school community, neighborhood system, personality, student me, creativity, unconventional methods, creative thinking,critical method, ethics, professional module, speech culture, thinking skills.

XXI asrning dastlabki yilidanoq ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish – O’zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo’lidagi bosh g’oyasiga aylanadi. Asosiy maqsad yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta’minlashga xizmat qilish, jamiyat a’zolarini, aholining barcha qatlamlarini O’zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etish, millati, tili va dinidan qat’iy nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida mustaqillik g’oyalariga sadoqat va o’zaro hurmat tuyg’usini qaror toptirish bo’lib qoldi. Albatta, milliy istiqlol mafkurasining

bosh g’oyasi va uning maqsadlarini o’quvchi-yoshlar ongiga singdirishda ta’lim-tarbiya bilan bir qatorda oilaning ahamiyati beqiyosdir. Chunki, oila mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biri hisoblanadi. Oila-jamiyat negizi bo’lib, ko’p asrlik mustahkam ma’naviy manbalarga ega.

Zero, insonning taqdiri ham, kelajakdagi yutuqlari ham, kasb tanlashi ham, axloqli – odobli bo’lishi ham oilaga bog’liqdir. Chunki, farzand-larimizning yaxshi xulqi, axloqi oilada kamol topadi.

O’zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq jamiyat hayotida milliy qadriyatlarni tiklash va ular asosida barkamol avlodni voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishiga ko’tarildi. O’zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida “Oila jamiyatning asosiy bo’g’inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida turish xuquqiga ega” deb ta’kidlani-shi bilan birga ota – onalar o’z farzandlarini voyaga yetganlariga qadar boqish va tarbiyalash, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o’z ota-onalari haqida g’amxo’rlik qilishga majbur ekanliklari 64, 66-moddalarda ko’rsatilgan.

Oilada ma’naviy muhit yaratish otaga ham, onaga ham birday bog’liq. Sog’lom farzandni dunyoga keltirish, unga chiroyli ism qo’yish, tarbiya berish, ilm o’rgatish, kasb-hunarli qilish, balog’atga yetganda o’ylantirish yoki turmushga berish, hayotda to’g’ri yo’l ko’rsatish ota-onaning vazifasi.

Albatta oila totuvligi, uning davomiyligi oila a’zolarining ruhiyatiga o’zligini qanchalik darajada anglaganligida, o’z mustaqil fikriga, dunyoqarashiga, chinakam insoniy fazilatlarga ega bo’lgandagina to’laligicha ta’minlanadi.

Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida so’z bilan ish borligi odamlarning o’z huquq va erkinligini his etib o’z-o’ziga va jamiyatga bo’lgan munosabatlarida yaqqol namoyon bo’lmoqda.

Demak, insonning komillik darajasi har bir shaxsda ma’naviyatning to’laqonli shakllanganligi bilan belgilanadi. Shundagina inson o’zining qadr-qimmati xalqning, millatning qadr-qimmati bilan nechog’li bog’liq ekanligi, jamiyatda, yurtimizda sodir bo’layotgan voqyealarga daxldorligini anglaydi. Shu nuqtai nazardan jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etish yo’lini tezkorlik bilan siljitishga oila ma’naviyati ruhiy quvvat beradigan yengilmas kuch sanaladi.

Ajdodlarimizning boy va teran ma’naviy merosidan, milliy madaniyatimizning sarchashmalaridan oila ma’naviyatini yuksaltirishda bahramand bo’lish va ularga

tayangan holda ish olib borish g’oyat muhim ahamiyat kasb etadi. O’zining o’zbek millatining vakiliman deb hisoblaydigan har bir inson avlod-ajdodlarimizdan qolgan takrorlanmas boy moddiy va ma’naviy merosdan, jahon sivilizasiyasiga qo’shgan buyuk hissalaridan, ularning chinakam vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik, vatan ozodligi yo’lida ko’rsatgan jasorat mardliklaridan faxrlangan hamda ularning an’analarini davom ettirish ko’nikmalariga ega bo’ladi.

Donolarimiz ta’biri bilan aytganda «Oila jamiyatning duri gavharidir». Ushbu duri gavhar musaffoligini, atrof-muhitga estetik ta’sirchanligi, odamlar muhabbatiga doimiy sazovorligini ta’minlash oilaning har bir a’zosining ma’naviy muqaddas burchidir.

Yuqorida zikr qilingan barcha chora-tadbirlarni amalga oshirib, avvalo ularni ilmiy, diniy, dunyoviy miqyosda mukammal tushunib nazariy va amaliy faoliyatimizda ma’suliyatni his etgan holda bajara olsakkina ozod va obod, erkin va farovon turmush tarzini yarata olamiz.

Oila va jamiyatning o’zaro munosabati yoshlarga samimiy, mustahkam oilaviy munosabatlar haqida oldindan tushuncha berib borish vazifasini o’z oldiga maqsad qilib qo’yadi. Chunki, bu narsa turli oilaviy ziddiyatlarni oldini oladi, o’zaro bir-birlarini tushunish va hamkorlik qilish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi.

Oilaning vazifalari ko’p jihatdan qaraganda, xuddi ayrim olingan insonning vazifasiga o’xshaydi, bu vazifa oilaning har bir a’zosida, shu jihatdan, har kimning o’z-sho’ida mavjud bo’lgan eng yaxshi fazilatlarni bir umum ishi uchun sarflashdan iboratdir.

Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta’minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, ma’naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Prezidentimiz Islom Karimov unga shunday ta’rif beradi: «Oila-jamiyat negizi. Bizning davlatimizni ham katta bir oila deb tushunish mumkin va lozim... Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o’zining ko’p asrlik mustahkam va ma’naviy tayanchlariga ega bo’ladi, oilada demokratik negizlariga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi».

Oilada mehr-muhabbatning ustuvorligi barcha millatlarga xos fazilatdir. Biroq oila, o’z mazmun-mohiyatiga ko’ra bir xalq, har bir millat uchun o’ziga xos xaraktarli xususiyatlarga ham ega. Sharqda oila qurish va uning mustahkamligi, farovonligi va barqarorligini ta’minlash insonning o’z millati, avlod-ajdodlari, jamiyat oldidagi muqaddas burchi hisoblanadi. Ayniqsa, o’zbek millati, avlod-ajdodlari, jamiyat

oldidagi muqaddas burchi hisoblanadi. Ayniqsa, o’zbek xalqi uchun eng muqaddas dargohdir. Yurtboshimiz ta’biri bilan aytganda, “Bunda o’zaro hurmat va qattiq tartib bo’lmasa, oilaning barcha a’zolari o’z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko’rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas... O’zbeklarning aksariyati o’zining shaxsiy farovonligi to’g’risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug’lari va yaqin odamlarning, qo’shnilarning omon-esonligi to’g’risida g’amxo’rlik qilishni birinchi o’ringa qo’yadi. Bu esa, eng oliy darajadagi ma’naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir”.

Oilaning yana bir o’ziga xos xususiyati, o’zbek oilalari ko’p bo’g’inli bo’lib, aksariyat hollarda qaynona-qaynota, o’g’il va kelin, qaynota, uka va qaynisingil, opa, nevaralar birgalikda yashashadi. Ular bu oilaga xos o’zaro hurmat, mehr-oqibat, hamkorlik rishtalarini mustahkamlashda va shu kabi axloqiy qadriyatlarning keyingi avlodlarga yetkazilishida muhim o’rin tutadi. Shuningdek, kattalarning yoshlrga bergan saboqlari, ro’zg’or tutish, bola tarbiyalash bobidagi tajriba kelin, o’g’il va qizlarga oila mustahkamligini ta’minlashda keyin ham asqotadi.

Demak, oila jamiyatning asosiy negizi bo’lib, uning mustahkamligi va farovonligidan jamiyat bevosita manfaatdor hisoblanadi. Donolarimiz tabiri bilan aytganda, «Oila – jamiyatning duru gavharidir». Ushbu duru gavhar musaffoligini, uning atrof-muhitga estetik ta’sirchanligini, odamlar muhabbatiga doimiy sazovorligini ta’minlash oilaning har bir a’zosidan juda katta ma’suliyat talab etadi. Oilada ma’naviyatni shakllantirish omillari: oila a’zolarining har birida iymon, e’tiqod, mas’uliyat, mehr-shavqat, iroda, o’z-o’zini anglash, qadr-qimmat, ishonch, his-tuyg’u, oqibatlilik, oliyjanoblik, haqgo’ylik, saxiylik, kamtarlik, to’g’rilik, odillik, fozillik, komillik kabi insoniy sifatlarning shakllanishi ularning yuksak ma’naviyatli ekanligini namoyon etadi. Albatta bu sifatlarni kamol toptirishda ibrat, namuna, tushuntirish, rag’batlantirish kabi tarbiya metodlaridan foydalanish o’z samarasini beradi. Buning natijasida oilada ma’naviyatni shakllantiruvchi munosabat turlari bular; er-xotin; qaynona-kelin; yaqin qarindoshlar; mahalla; yor-do’stlar; opa-singillar; qaynota-kuyov; qaynona-kuyov; ota-ona va farzandlar; qo’ni-qo’shni.

Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning xususiyatlaridan yana biri bu aqilni rivojlantirishdir. Chunki, aqilli odamning zehni o’tkir bo’ladi, u har qanday o’git-nasihatni tezda o’z ongiga singdirib oladi. Inson zehnining o’tkirligi, har qanday muammoni hal eta olish layoqatini xuddi yuqorida parvoz etayotgan qushning yerdagi

o’ljani ko’rib, unga ega bo’lish ilinjida pastga sho’ng’ishida sodir etadigan tezligdir. Oqil odam zehnining tezligi qush parvoziga qiyoslanadi.

Mazkur maqola ma’naviy-axloqiy tarbiyani oilada singdirishga qaratilgan bo’lib, unda asosan ishi ma’naviy-axloqiy tarbiyani oilada singdirishning ijtimoiy asoslari tizimiga qaratildi.

Milliy pedagogikaning xalqimiz ongiga chuqur singdirilganligi bir qator falsafiy, ijtimoiy siyosiy, psixologik va pedagogik adabiyotlarda aks etgan. Shu bois ham mazkur adabiyotlardan kurs ishini bajarish jarayonida foydalanildi. Shunga asosan oilada ma’naviy axloqiy tarbiyani oilada bola tarbiyasida qanday singdirish ustida ish olib borilib zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarining yutuqlaridan keng foydalanildi.

Mazkur maqolada oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash metodlarini yoritishga qaratilganligi sababli unda oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning xususiyatlari, ma’naviy tarbiya, axloqiy tarbiya, ularning ko’rinishlari, metod va vositalari. ma’naviyat, ta’riflarga to’xtalishga va ularni o’rganishga to’g’ri keldi. Shu bilan birgalikda oila tarbiyasini takomillashtirish yo’llari ishlab chiqildi. Ushbu ishni bajarish jarayonida ma’naviy – axloqiy tarbiyani bolalar ongiga singdirish muammosi bilan shug’illangan bir qator faylasuf, pedagog va psixolog olimlarning izlanishlari kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aminov M.N. Tarbiya Entiklopediyasi. –T.: 2010.
2. Hasanov J.va boshq. Pedagogika. Darslik.- T.: “Nashr”. 2011.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 07 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni..
4. Mirziyoyev Sh.M. Yerkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo yetamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoev. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2016.-56 b.
5. R.Mavlonova,O.To‘raeva “Pedagogika”, “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, T-2018.

6. B.Abdullayeva, A. Xoliqov,D.Farsaxonova va b. “Umumiy pedagogika” “Innovatsiya-Ziyo” MCHJ matbaa bo‘limi, T-2021.

7. Shahnoza, I., & Ikromjonovna, J. S. (2023). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dunyoqarashini shakllantirishda ertaklarning o‘rni. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 806-808.

8. Ikromjonovna, J. S. (2023). Boshlang‘ich sinflarga ta’lim berish jarayonida zamonaviy metod va vositalarning ahamiyati. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 581-583.

9. Jumanova, S. B. (2022). Boshlang’ich sinf o‘quvchisining ona tili va o‘qish savodxonligi darslari orqali milliy qadriyatlarimizni o‘rganishning samarali omillari. Results of National Scientific Research International Journal, 1(9), 311-321.

10. Quronov M., Qodirov A., Akramova Sh. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish. – Toshkent: «Ma’naviyat», 2018.

11. Usmonov N., Xolboyeva G. va boshqalar. Boshlang‘ich ta’limda kompetentlikni rivojlantirish omillari. Toshkent. “Fan va texnologiya”, 2016.

12. Borisova. - M .: ITsPKPS, 2000 .-- 146 p. 3. Gulova, M.N. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: darslik.

Research Science and Innovation House

YURAK ISHEMIK KASALLIGI MAVJUD BO‘LGAN BEMORLARDA GIPOLIPIDEMIK TERAPIYANING SAMARADORLIGI

Qobilov Doston
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi 2 son fakulteti va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ kafedrasi magistranti
E-mail: qobilovd052@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda yurak ishemik kasalligi (YIK) bilan og‘rigan bemorlarda gipolipidemik terapiyaning samaradorligi tahlil qilinadi. YIK va dislipidemiya o‘rtasidagi bog‘liqlik, gipolipidemik dori vositalarining ta’siri va bemorlardagi klinik ko‘rsatkichlar o‘rganiladi. Tadqiqotda statinlar va boshqa gipolipidemik preparatlar bilan davolashning kardiovaskulyar natijalarga ta’siri tahlil etiladi. Maqsad — gipolipidemik terapiyaning samaradorligini baholash va klinikada qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Kalit so‘zlar: Yurak ishemik kasalligi, gipolipidemik terapiya, statinlar, dislipidemiya, kardiovaskulyar natijalar, davolash samaradorligi.

Kirish: Yurak ishemik kasalligi (YIK) dunyo bo‘ylab eng keng tarqalgan va xavfli kasalliklardan biri bo‘lib, u bir nechta omillar, jumladan, lipid metabolizmining buzilishi, ateroskleroz va yuqori qon bosimi bilan bog‘liq. Gipolipidemik terapiya — lipidlarni kamaytirishga qaratilgan dori-darmonlar yordamida yurak ishemik kasalligining rivojlanishini sekinlashtirish yoki to‘xtatish uchun qo‘llaniladi. Statinlar — bu eng keng tarqalgan gipolipidemik preparatlar bo‘lib, ular xolesterol miqdorini pasaytirish va aterosklerozni oldini olishda samarali hisoblanadi. Biroq, ushbu terapiyaning samaradorligi va xavfsizligi haqidagi fikrlar turlicha. Tadqiqotda gipolipidemik terapiyaning YIK bemorlaridagi klinik natijalarga ta’siri o‘rganiladi.

1. Yurak ishemik kasalligi va dislipidemiya o‘rtasidagi bog‘liqlik. Yurak ishemik kasalligi (YIK) va dislipidemiya o‘rtasidagi bog‘liqlik keng o‘rganilgan. Dislipidemiya — xolesterol va triglitserid darajalarining oshishi, shuningdek, HDL (yaxshi xolesterol) darajasining pasayishi bilan tavsiflanadi. Bularning barchasi ateroskleroz rivojlanishiga va natijada yurak ishemik kasalligining yuzaga kelishiga olib keladi. Statinlar va boshqa gipolipidemik preparatlar xolesterol darajasini pasaytirish orqali bu jarayonni sekinlashtiradi va yurak xuruji xavfini kamaytiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki,

yuqori xolesterol darajasi YIK ning rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi, shuning uchun gipolipidemik davolash strategiyalari juda muhimdir.

2. Gipolipidemik terapiyaning samaradorligi. Statinlar, fibratlar, ezetimib, va PCSK9 inhibitori kabi dori vositalari gipolipidemik terapiyaning asosiy vositalaridan hisoblanadi. Har birining samaradorligi klinik tadqiqotlar orqali baholangan. Statinlar, xususan, LDL xolesterolni kamaytirish va kardiovaskulyar kasalliklarning oldini olishda samarali bo‘lgan dori hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, LDL darajasini pasaytirish YIKning xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.

Shuningdek, gipolipidemik terapiyaning uzoq muddatli ta’sirini o‘rganish zarur. Tadqiqotlarda, statinlar yordamida ko‘rsatkichlarning yaxshilanishi va bemorlarning hayot sifati sezilarli darajada oshganligi qayd etilgan. Lekin ba’zi bemorlarda dori-darmonlarga qarshi reaktsiyalar, masalan, mushaklarda og‘riqlar va jigar funktsiyasining yomonlashuvi kuzatilgan. Bu holat gipolipidemik terapiyaning xavfsizligini tekshirishni talab etadi.

3. Gipolipidemik terapiyaning klinik natijalarga ta’siri. Gipolipidemik terapiyaning samaradorligini baholashda klinik natijalar muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, statinlar orqali olib borilgan davolash YIK bemorlarida infarkt, insult va boshqa yurak xastaligi holatlarining oldini olishda samarali. Shuningdek, bemorlarning umumiy o‘lim darajasi gipolipidemik terapiya tufayli ancha kamayganligi ko‘rsatilgan. Gipolipidemik terapiyaning ta’sirini ko‘rsatadigan yana bir muhim ko‘rsatkich — qon bosimining normal darajaga kelishi, qon shakar darajasi va umumiy metabolik holatni yaxshilanishidir. Ushbu terapiya nafaqat xolesterol darajasini normallashtiradi, balki yurak va qon tomirlarining umumiy sog‘ligini yaxshilaydi.

4. Gipolipidemik terapiyaning xavfsizligi. Gipolipidemik dori vositalarining xavfsizligi masalasi dolzarb ahamiyatga ega. Statinlar, masalan, ko‘plab bemorlarda samarali ishlasa-da, ayrim hollarda ularning yon ta’sirlari ko‘rsatilgan. Bunga mushaklarning og‘riqlari, jigar faoliyatining buzilishi, qandli diabetning rivojlanishi kiradi. Shuning uchun, dori vositalarini to‘g‘ri tanlash va doza miqdorini aniqlash juda muhimdir. Gipolipidemik terapiya har bir bemor uchun individual ravishda tanlanishi kerak. Xavfsiz va samarali davolashni ta’minlash uchun bemorning tibbiy holati, yoshi va dori-darmonlarga bo‘lgan reaksiyalari inobatga olinishi lozim.

Xulosa: Yurak ishemik kasalligi bilan og‘rigan bemorlarda gipolipidemik terapiya samarali va muhim davolash usuli bo‘lib, ularning kardiovaskulyar sog‘ligini

talab etiladi. Xalqaro miqyosda ham ekologik xavfsizlikni ta’minlash borasida davlatlararo hamkorlik kuchaytirilishi kerak. Bunday sa’y-harakatlar global ekologik muammolarning oldini olishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar zamonaviy jamiyatning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, ularning oldini olish har bir davlatning ekologik siyosati, aholining ongli munosabati va ilmiy-texnik yondashuviga bog‘liq. Atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatli munosabat, ekologik xavfsizlik choralariga jiddiy yondashuv va barqaror taraqqiyot tamoyillariga amal qilish orqaligina biz ekologik favqulodda vaziyatlarning salbiy oqibatlarini kamaytira olamiz. Har bir fuqaro ekologik muhofaza ishlarida o‘z hissasini qo‘shmog‘i zarur, zero, tabiat — bu insoniyatning yagona yashash muhiti va uni asrash har birimizning burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi “Favqulodda vaziyatlar to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent, 2000 y.
2. Karimov I.A. “Tabiat va inson – bir butunlik”. Toshkent: O‘zbekiston, 1995 y.
3. Alimov A., Matyakubov B. “Atrof-muhit va ekologik xavfsizlik asoslari”. Toshkent, 2019 y.
4. “Ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish asoslari”. O‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2022 y.
5. United Nations Environment Programme (UNEP), “Global Environment Outlook”, 2021.
6. WHO. “Health and environmental effects of environmental emergencies”, 2020.

Research Science and Innovation House

YONG‘INLAR: SABABLARI, OLDINI OLISH VA FAVQULODDA VAZIYATLARDAGI HARAKATLAR

Rajabov Omonboy G'afforovich
Navoiy viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi
Hayot faoloyati o'quv markazi o'qituvchisi.

Annotatsiya

Mazkur tezisda yong‘inlarning eng ko‘p uchraydigan sabablari, ularning salbiy oqibatlari, oldini olish usullari hamda yong‘in sodir bo‘lganida ko‘rilishi kerak bo‘lgan choralar yoritilgan. Yong‘inlar nafaqat moddiy zarar, balki insonlar hayoti uchun ham bevosita xavf tug‘diradi. Shu boisdan, aholining yong‘in xavfsizligi madaniyatini oshirish, profilaktika choralari va favqulodda holatdagi harakatlar muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: yong‘in xavfi, chaqnash, elektr simi, yong‘in xavfsizligi, evakuatsiya, tutun, o‘t o‘chiruvchilar, profilaktika, xavfsizlik.

Yong‘inlar – bu kutilmagan va boshqarib bo‘lmaydigan favqulodda vaziyatlardan biridir. Ular ko‘pincha texnik nosozlik, inson omili, ehtiyotsizlik yoki tabiiy hodisalar natijasida yuzaga keladi. Yong‘inning asosiy xususiyati — uning tez tarqalishi, tutunli muhit yaratishi va hayot uchun xavfli bo‘lgan haroratni yuzaga keltirishidir. Har bir kishi yong‘in sodir bo‘lishining sabablari, uning oldini olish choralari va yong‘in vaqtida qanday harakat qilish kerakligini bilishi kerak.

Yong‘inlar uchta asosiy omil — yoqilg‘i (yonuvchi material), issiqlik manbai (olov, chaqnash, qizish), va kislorod mavjudligida yuzaga keladi. Ushbu omillar bir joyda to‘g‘ri kelganda yong‘in xavfi yuzaga chiqadi. Uy sharoitida bu — elektr qurilmalarining nosozligi, gaz sizishi, o‘choq va pechlardan noto‘g‘ri foydalanish natijasida sodir bo‘ladi. Ishlab chiqarish korxonalarida esa yonuvchan kimyoviy moddalarning to‘planishi, xavfsizlik qoidalarining buzilishi yoki texnologik avariyalar yong‘in chaqiradi.

Yong‘inlar turli yo‘nalishlar bo‘yicha tasniflanadi:

1. **Turar joy yong‘inlari** — aholi yashash joylarida yuzaga keladigan yong‘inlar.
2. **Ishlab chiqarish yong‘inlari** — zavod-fabrikalar, sexlar, omborlar va sanoat obyektlaridagi yong‘inlar.
3. **Tabiiy yong‘inlar** — o‘rmon yong‘inlari, dasht va dala hududlarida yuzaga keladigan yong‘inlar.

4. **Transport yong‘inlari** — avtomobil, poezd, samolyot va boshqa transport vositalaridagi yong‘inlar.

Yong‘inlar nafaqat moddiy zarar, balki inson hayoti uchun bevosita xavf tug‘diradi. Ayniqsa, ko‘p qavatli uylar, maktablar, savdo markazlari kabi odam gavjum hududlarda yong‘in bo‘lsa, evakuatsiya qilish va yordam ko‘rsatish juda murakkablashadi. Shuning uchun har bir bino, muassasa va jamoat joylarida yong‘inga qarshi vositalar — yong‘in signalizatsiyasi, o‘t o‘chirgichlar, suv kranlari va evakuatsiya sxemalari mavjud bo‘lishi shart.

Yong‘in sodir bo‘lishining oldini olish uchun quyidagi profilaktik choralarni amalga oshirish zarur:

- elektr simlari va qurilmalarini muntazam tekshirish va ularni sifatli ishlatish;
- gaz uskunalaridan to‘g‘ri foydalanish va ularni o‘z vaqtida sozlash;
- bolalarga o‘t bilan o‘ynash xavfini tushuntirish va nazoratsiz qoldirmaslik;
- sigaretni noto‘g‘ri joyda yoqish, o‘choqda nazoratsiz olov yoqishdan tiyilish;
- yong‘in xavfi mavjud bo‘lgan joylarda yonuvchan moddalardan foydalanmaslik.

Agar yong‘in sodir bo‘lsa, harakatlar quyidagi tartibda bo‘lishi kerak:

1. Yong‘in haqidagi ma’lumotni zudlik bilan **101** raqamiga xabar qilish.
2. Barcha jabrlanuvchilarni imkon qadar tez va xavfsiz tarzda evakuatsiya qilish.
3. Agar yong‘in kichik miqyosda bo‘lsa, o‘t o‘chirgich vositalari yordamida uni o‘chirishga urinish.
4. Yopiq binolarda tutun orasida harakatlanayotganda egilgan holatda yurish, ro‘mol yoki ho‘l mato bilan og‘iz-burni berkitish.
5. Liftlardan foydalanmaslik, faqat zinapoyalar orqali harakatlanish.
6. Agar tutunli xonada qolib ketilsa, eshik va derazalarni yoping, signal berish uchun derazadan yordam chaqiring.

Shuningdek, yong‘in vaqtida har bir fuqaro o‘ziga va boshqalarga yordam bera oladigan oddiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Bunga yong‘in o‘chirish asboblaridan foydalanish, yong‘in paytidagi harakatlar, odamlarni evakuatsiya qilish tartibi kiradi. Ayniqsa maktablarda, korxonalarda yong‘in xavfsizligi bo‘yicha muntazam mashg‘ulotlar tashkil etilishi lozim.

Yong‘in xavfsizligi — bu nafaqat maxsus xizmatlar mas’uliyati, balki har bir fuqaroning o‘ziga xos ijtimoiy vazifasidir. Har bir oila, har bir tashkilot o‘z hududida yong‘in xavfsizligini ta’minlashi, vositalarni saqlashi va o‘rgatishi shart.

Xulosa

Yong‘inlar hayot uchun eng xavfli favqulodda vaziyatlardan biridir. Ular ko‘pincha insonlarning ehtiyotsizligi, beparvoligi yoki texnik nosozliklar sabab yuzaga keladi. Yong‘inlarni oldini olish — bu ularni davolashdan ko‘ra osonroq va arzonroqdir. Har bir inson yong‘in xavfsizligi qoidalariga amal qilsa, oddiy profilaktik choralarni ko‘rsa, minglab insonlar hayoti saqlanib qoladi. Shuningdek, yong‘in bo‘lsa, vahimaga tushmasdan to‘g‘ri harakat qilish, boshqalarni evakuatsiya qilish, tezkor yordam chaqirish orqali katta fojialarning oldi olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi ma’lumotlari.
2. “Yong‘in xavfsizligi asoslari” – metodik qo‘llanma, Toshkent, 2021.
3. WHO. Fire Safety Guidelines. Geneva, 2020.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonuni, 1999-yil.
5. Raximova M. “Yong‘in xavfi va ularning profilaktikasi” – Toshkent, 2018.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: “Aholining favqulodda holatlarga tayyorgarligini kuchaytirish choralari”, 2022-yil.

Research Science and Innovation House

Сущность франчайзинга и его форма в Республике Узбекистан

Сатмуратов Султанбек Бахрамович
научный руководитель
д.э.н, проф. Исламов Б.А.

Аннотация. Тезис посвящён анализу франчайзинга как эффективной модели бизнеса и рассматривается как перспективный инструмент экономического роста и внедрения международных стандартов в Узбекистане. Отмечается растущая роль франчайзинга в реализации государственных приоритетов по поддержке малого и среднего бизнеса, а также наличие нормативно-правовой базы. Кроме того, примеры действующих франшиз в стране подтверждают интерес предпринимателей к данной бизнес-модели.

Франчайзинг представляет собой эффективную форму организации предпринимательской деятельности, при которой франчайзи получает от франчайзера право на использование его товарного знака, бизнес-модели и системы управления. Такая форма взаимодействия позволяет быстро масштабировать бизнес, снижая риски для франчайзи за счёт использования отлаженных технологий и узнаваемого бренда.

В Республике Узбекистан развитие франчайзинга получает всё большее значение в контексте реализации приоритетных стратегических целей. Подписанный Президентом Ш.М. Мирзиёевым Указ от 21.02.2024 года «О государственной программе по реализации стратегии "Узбекистан–2030" в Год поддержки молодежи и бизнеса» включает мероприятия по содействию предпринимательству. В частности, в рамках «Программы поддержки бизнеса» предполагается вовлечение двух миллионов граждан в предпринимательскую деятельность и создание условий для занятости пяти миллионов человек. Франчайзинг рассматривается в данном контексте как один из действенных механизмов расширения занятости и поддержки малого и среднего бизнеса.

Франчайзинг как модель бизнеса основан на подписании договора, по которому франчайзи получает право действовать под брендом франчайзера и использовать его бизнес-систему. В договоре (называемом договором франчайзинга или комплексной предпринимательской лицензией) закрепляются

ключевые положения: технология продаж, стандарты обслуживания, ассортимент товаров и услуг, порядок использования товарного знака. Франчайзер, в свою очередь, обеспечивает обучение, передачу ноу-хау и консультативную поддержку, что снижает риски запуска и повышает шансы на успех нового предприятия.[1]

Получение франшизы даёт возможность предпринимателю начать деятельность с минимальными затратами на раскрутку бренда, поскольку узнаваемость марки уже сформирована. Кроме того, франчайзи получает доступ к поставщикам, сырью, технологиям, маркетинговым стратегиям и постоянной поддержке от франчайзера, что особенно важно в начальный период. Таким образом, франчайзинг сочетает в себе преимущества собственного бизнеса и поддержки крупной системы.[2]

Правовое регулирование франчайзинга в Узбекистане основано на положениях главы 50 Гражданского кодекса Республики Узбекистан, где он рассматривается как договор «комплексной предпринимательской деятельности. В договоре участвуют две стороны: комплексный лицензиар (франчайзер) и комплексный лицензиат (франчайзи). В соответствии с законодательством, договор подлежит обязательной государственной регистрации.[3]

Процедура регистрации регулируется Постановлением Кабинета Министров №244 от 04.11.2010 г., и осуществляется органом, зарегистрировавшим юридическое лицо или индивидуального предпринимателя, выступающего в роли лицензиара. В случае, если лицензиар — иностранное юридическое лицо, договор регистрируется по месту регистрации лицензиата. Государственной регистрации также подлежат любые существенные изменения, дополнения и прекращение действия договора.[4]

На сегодняшний день в Узбекистане действуют 161 франшизных брендов, обеспечивающих занятость более 10 тысяч граждан и формирующих около 0,3% ВВП страны. Это свидетельствует о растущем интересе к этой бизнес-модели как со стороны предпринимателей, так и со стороны государства, стремящегося развивать внутренний рынок и привлекать международные бренды.

Таблица 1. Среднегодовые финансовые показатели франшизы KFC.[5]

Доходы и расходы	Сумма(долл.США)	% продажа
Продажа	1,644,396	100%
Издержки	(493,319)	30%
Валовая прибыль	1,151,077	70%
Оплата труда	(527,851)	32%
Маркетинг и роялти	(156,218)	10%
Аренда помещения	(147,996)	9%
Прочие операционные расходы	(197,328)	12%
Итоговый доход (до вычета процентов, налогов, износа и амортизационных отчислений).	121,685	7%

Характерным примером успешной франчайзинговой модели является деятельность международной сети общественного питания KFC (Kentucky Fried Chicken). На 2024 год компания представлена более чем в 145 странах мира, насчитывая свыше 25 тысяч торговых точек и около 820 тысяч сотрудников. В Узбекистане работает 16 точек KFC, из которых 13 находятся в Ташкенте, а остальные — в Коканде, Андижане и Самарканде.

Таким образом, развитие франчайзинга в Узбекистане представляет собой перспективный механизм стимулирования предпринимательской активности, внедрения международных стандартов и повышения занятости. Сочетание законодательной поддержки, заинтересованности государства и потенциала локального рынка создаёт благоприятную среду для дальнейшего роста франчайзинговых систем.

Список использованной литературы

1) International Franchise Association-1960 г.- [Электронный ресурс] - Режим доступа: www.franchise.org

2) Саманов, А.А. «Франчайзинг как форма развития предпринимательства в Узбекистане». Иқтисод ва молия / Экономика и финансы, no. 10(130), 2019. УДК: 373.61.

3) Гражданский кодекс Республики Узбекистан. Часть II. Принят 29 августа 1996 г., ЗРУ № 256-I. [Национальная база данных законодательства, 15.01.2020 г., № 03/20/602/0052].

4) KFC Global. Официальный веб-сайт-[Электронный ресурс]-Режим доступа:https://global.kfc.com

5) Sharp Sheets. Стоимость франшизы KFC, сборы и прибыль – Полная информация - [Электронный ресурс]- Режим доступа: https://sharpsheets.io/blog/kfc-franchise-costs-profits

Research Science and Innovation House

Qandli diabet 2-tur va morbid semizlik bo‘lgan bemorlarda psixoemosional xolatini o‘ziga xosligi.

Rajapova Sh.Q.

Ilmiy rahbar: dotsent **Sadiqova N.G.**

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi, Toshkent O‘zbekiston

Kirish: Qandli diabet, semizlik va ruhiy tushkinlik butun dunyo bo‘ylab va salomatlikka sezilarli ta‘sir ko‘rsatadigan juda keng tarqalgan kasallikdir. 2-tur qandli diabet bilan ruhiy tushkunlik, kognitiv buzilishlar kabi o‘zgarishlar o‘rtasida bog‘liqlik mavjud. 2-tur qandli diabet va semizlik bo‘lgan erkaklar va har 3 ayoldan birida depressiya rivojlanadi. Shunga ko‘ra bu o‘zgarishlar o‘lim xavfini oshiradi.

Tadqiqot maqsadi: Qandli diabet 2-tur va morbid semizlik bo‘lgan bemorlarda psixoemotsional o‘zgarishlarni o‘ziga xosligini o‘rganish.

Materiallar va tadqiqot metodlari: Tadqiqot uchun 2-tur qandli diabet va semizlik bo‘lgan, 5 yildan ortiq SGLT 2, DPP 4 guruh preparatlarini qabul qilib kelgan umumiy 31 ta bemorlar olindi. Ulardan 19 ta, yoshi 48±0,8, tana vazn indeksi 38,5±0,7 bo‘lgan ayollar, 12 ta, yoshi 45±0,2, tana vazn indeksi 39,2±0,5 bo‘lgan erkaklar tashkil etdi. Laborator ko‘rsatkichlar: qondagi glyukoza och qoringa 8±1,5; ovqatlanishdan 2 soatdan keyin 12±1,3; glikerlangan gemoglobin 7±0,5%.Vahima va depressiyaning gospital shkalasi (NADS) so’rovnomasi asosida olib borildi.

Olingan natijalar: NADS bo‘yicha 0 dan 5 ballgacha -depressiya va vahimaning ifodalangan simptomlarning yo‘qligi; 6 dan 10 ballgacha –depressiya va vahimaning yengil darajada (subklinik); 11 dan 12 ballgacha- depressiya va vahimaning o‘rtacha darajasi;13 va undan yuqori ball- depressiya va vahimaning og‘ir darajada. 15 kishida 3 ball, 10 kishida 7-8 ball, 4 kishida 11-12 ball, 2 kishida 13 ball aniqlandi.

Xulosa: Ushbu tadqiqot natijalari, 2-tur qandli diabet va morbid semiz bo’lgan bemorlarda psixoemotsional holatini o‘ziga xosligini ko‘rsatdi. Bu so‘rovnoma orqali bemorlarda yuzaga keladigan ruhiy o‘zgarishlarni,depressiyani erta aniqlab prafilaktika qilish mumkin.

Research Science and Innovation House

MINERAL ACIDS, ALKALIS, AND THEIR SALTS

RAKHMATILLAEVA INDIRA ANVAROVNA
Urgench branch of Tashkent medical academy
Assistant of the department of medical biology and pharmacy

Abstract: This thesis provides a comprehensive examination of mineral acids, bases, and their corresponding salts, focusing on their chemical properties, preparation methods, analytical detection, and industrial applications. The study encompasses major mineral acids including sulfuric acid, hydrochloric acid, nitric acid, and phosphoric acid, along with common bases such as sodium hydroxide, potassium hydroxide, and calcium hydroxide. The research demonstrates the fundamental role these compounds play in various chemical processes, industrial applications, and analytical chemistry. Through systematic analysis of their properties and reactions, this work contributes to understanding the behavior of these essential inorganic compounds in different chemical environments.

Keywords: mineral acids, alkalis, salts, pharmaceutical chemistry, neutralization, titration.

Introduction: Mineral acids and bases represent fundamental compounds in inorganic chemistry, playing crucial roles in numerous chemical processes, industrial applications, and analytical procedures. Unlike organic acids and bases, mineral acids and bases are typically inorganic compounds that exhibit strong acidic or basic properties due to their ability to completely or nearly completely ionize in aqueous solutions. The study of mineral acids and bases is essential for understanding acid-base equilibria, solution chemistry, and various chemical transformations. These compounds serve as starting materials for synthesizing numerous other chemicals, act as catalysts in industrial processes, and function as analytical reagents in qualitative and quantitative analysis. This thesis aims to provide a comprehensive overview of the most important mineral acids and bases, their properties, preparation methods, analytical detection techniques, and practical applications in various fields of chemistry and industry.

Main Content:

1. Mineral Acids:

These are strong acids derived from inorganic compounds. Common examples include:

- Hydrochloric acid (HCl): used in gastric treatments and pH regulation.
- Sulfuric acid (H2SO4): used in the synthesis of sulfates.
- Nitric acid (HNO3): used in nitration reactions and the production of nitrates.

2. Alkalis:

Alkalis are bases that dissolve in water and are crucial in saponification and neutralization. Examples include:

- Sodium hydroxide (NaOH)
- Potassium hydroxide (KOH)

3. Salts:

Salts are formed when acids react with bases. They are used in drug formulation and as buffering agents. Examples:

- Sodium chloride (NaCl)
- Potassium nitrate (KNO3)
- Calcium carbonate (CaCO3)

Conclusion:

Understanding the properties and reactions of mineral acids, alkalis, and their salts is essential for pharmacists and chemists. Their roles in drug formulation, chemical analysis, and industrial synthesis underscore their importance in pharmaceutical science.

References:

1. Raymond Chang, Jason Overby. Chemistry. 13th Edition. McGraw-Hill Education, 2019.

2. Gary D. Christian. Analytical Chemistry. 7th Edition. Wiley, 2013.

3. David G. Watson. Pharmaceutical Chemistry. Churchill Livingstone, 2011.

4. Atkins P., Jones L. Chemical Principles: The Quest for Insight. 7th Ed., W.H. Freeman, 2015.

5. WHO Guidelines for Assessing Quality of Pharmaceutical Substances, 2020.

ПЕРЕХОД СТЕКЛО – КРИСТАЛЛ В КЕРАМИКЕ $Bi_2Sr_2Ca_2Cu_3O_x$

Жумаева Лобар Шокировна
Термиз Давлат университети магистранти
e-mail:jumayevalobar1403@gmail.com
Тураев Эргаш Юлдашевич
Термиз Давлат университети профессори
e-mail:turaeve@tersu.uz

Аннотация.В этой статье высокотемпературные сверхпроводники $Bi_2Sr_2Ca_{n-1}Cu_nO_x$ могут быть получены путем кристаллизации стеклообразного материала, однако отсутствует соответствие составов
исходного стекла и кристалла.

Ключевые слова: высокотеммпературные сверхпроводники, аморф, кристаллизации, мессбауэровской спектроскопии, изотопе, керамической технологии.

Keywords:high-temperature superconductors, amorphous, crystallization, Mossbauer spectroscopy,isotope,ceramic technology.

Высокотемпературные сверхпроводники $Bi_2Sr_2Ca_{n-1}Cu_nO_x$ могут быть юполучены путем кристаллизации стеклообразного материала, однако отсутствует соответствие составов исходного стекла и кристалла

Одна из причин такого несоотвия – различие структур аморфных и кристаллических модификаций Bi -керамик,Учитывая сложностъ их химического состава, трудно надеятъся на успешное сопоставление структур стекла и кристала методами дифракции рентгеновских лучей.

В этом отнашении перспективен метод мессбауэровской спектроскопии, испольъзованый нами для выяснения влияния перехода стекло- кристалл на структуру ближнего порядка в силикатных системах варианта мессбауэровской спектроскопии на примесными атомах ^{57}Fe вряд ли возможно,посколъку нелзъя

а приори ожидать замещения примесными атоми определенных узлов кристаллической решетки или структурной сетки стекла. Поэтому мы воспользовались эмиссионным вариантом мессбаужровских спектроскопии на изотопе ^{67}Cu (^{67}Zn):дочерние атомы $^{67}Zn^{2+}$ после распада материнских атомов ^{67}Cu находятся в медных узлах, параметры мессбауэровских спектров несут информацию о природе локального окружения атомов меди. В качестве объекта исследования выбрали керамику номинального состава $Bi_2Sr_2Ca_2Cu_3O_X$(2223).

Образцы состава 2223 синтезировали по керамической технологии , затем керамику плавили в платиновом тигле и расплав закаливали между двумя медными блоками ври 200℃. На поверхность стекла наносили раствор $^{67}CuCl_2$ b провидили диффузионный отжиг при 400℃ в течение 20 мин.Согласно результатам рентгеноструктурного анализа , аналогичная процедура для контрольных образцов не привела к кристаллизации, материал оставался полупрооводниковом состоянии вплоть до 4,2 К- Для получения кристаллического материала после диффузионного отжига проводили отжиг при 870°С в течение 4 ч, что позволило добиться практически полной кристаллизации стекла, причем Восновную долю материала составила фаза $Bi_2Sr_2Ca_2Cu_3O_X$ (2212).Температура перехода в сверхпроводящее состояние для кристаллических образцов-80 К.

Для стеклообразных и кристаллических образцов мессбауэровские спектры представляли собой квадрупольные триплеты, отвечающие единственному состоянию центров $^{67}Zn^{2+}$.Переход стекло – кристалл не сопровождался заметным изменением величины постоянной квадрупольного взаимодействия e^2Q_q и параметра ассиметрии N тензора градиента электрического поля (ГЭП) (здесь eQ-квадрупольный момент ядра ^{67}Zn; eq-главная компонента тензора ГЭП на ядре ^{67}Zn), хотя для стеклообразных образцов наблюдалось заметное уширение спектров (см.данные выше), что не является неожиданным:уширение мессбауэровских спектров характерно для стеклообразных материалов и объясняется отсутствием в них дальнего порядка.

Эммиссионные мессбауэроэровские спектры $^{67}Cu(^{67}Zn)$ снимали при 4,2 К с поглотителем ниже:

Состояние			
Стекло	e^2Qq, МГц	N	Г,мкм/с
Кристалл	13,0±0,6	<0,2	5,2±0,3

12,8±0,5 <0,2 9,0±0,3

Примечание. e^2Q_q -постоянная квадрупольпого взаимодействия, N – параметр ассиметрии , Г- ширина спектральной линии.

По данным, диффузионное легирование металлоксидов меди изотопом ^{67}Cu гарантирует вхождение атомов ^{67}Cu в нормальные узлы решетки. Исходя из этого мы также считаем, что параметры эмиссионных мессбауэровских спектров ^{67}Cu (^{67}Zn) стеклообразных и кристаллических Bi- керамик отвечают центрам $^{67}Zn^{2+}$ в нормальных медных узлах.

В частности, исходя из результатов рентгеноструктурного анализа спектры кристаллических образцов следует отнести к центрам $^{67}Zn^{2+}$ в узлах меди решетки $Bi_2Sr_2Ca_2Cu_3O_X$. Этот вывод согласуется также со структурными данными работы, согласно которым, атомы меди в решетки 2212 занимают единственную кристаллографическую позицию. По-видимому,и в структуре стекла локальное окружение атомов меди близко к таковому в решетке керамики 2212.Действительно, хотя номинальный состав стеклообразного материала отвечал $Bi_2Sr_2Ca_2Cu_3O_X$, мессбауэровские спектры стекол отвечали единственному состоянию центров ^{67}Zn, тогда как в структуре керамики 2223 атомы меди занимали две структурно незквивалентные позиции Си(1) и Си(2), заселенные как 1:2, и в экспериментальном спектре следовало ожидать наложения двух квадрупольных триплетов.В пользу сделанного вывода свидетельствует и близость величин e^2Q_q для кристаллических и стеклообразных образцов.

Таким образом, номинальный состав 2223 синтезированных стекла и кристалла не отвечает реальному фазому составу материала: использованный режим получения приводит к реализации гетерогенной системы(и стекла,и кристалла),в которой большая частъ атомов меди находится в составе структурных единиц,характерных для соединения

Research Science and Innovation House

REFERENCES

1.Donglu Shi, Ming Tong, Borley M.S.e.a.// Phys.Rev.B.1989.Vol.40.P.2247.

2.Халилев В.Д. Тураев Э.Ю. Серегин П.П. и др // Физика и химия стекла.1910.Т.16.С.310.

3.Мастеров В.Ф, Насрединов Ф.С, Серегин П.П.//Сверхпроводимость.Сер.ФХТ. 1990/Т.3.С.449.

4. Мастеров В.Ф, Насрединов Ф.С, Саидов Ч.С. и др.//ФТТ.1992.Т.33.Вып.10

5.Yvon K Francois M//Z. Phys.B.1989.Vol.76.P.413. Garrilo-Cabrero W.Gopel W.//Physica C.1989.Vol. 161.P.37

Research Science and Innovation House

RADIAL IMMUNODIFUZIYA USULI YORDAMIDA QON PLAZMASIDAGI IMMUNOGLOBULINLARNING MIQDORIY TAHLILI VA QON TURLARI BILAN ULARNING BOG‘LIQLIGINI O‘RGANISH

Laboratoriya ishi yo'nalishi 1- kurs magistri Mirzakbarova Ch.Z
Ilmiy rahbar: Gematologiya, transfuziologiya va klinik laborator diagnostika kafedrasi professori, DSc Sh.A.Babajanova
TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

ANNOTATSIYA

Radial immunodifuziya (RID) usuli yordamida qon plazmasidagi immunoglobulinlar (IgG, IgA, IgM) miqdoriy tahlili va ularning ABO va Rh qon turlari bilan bog‘liqligi keng ko‘lamda o‘rganildi. Tadqiqot immunologik tahlilning aniqligi va qon turlari bilan immunoglobulin darajasining korrelyatsiyasini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, klinik diagnostika va immunologik tadqiqotlarda qon guruhlarining rolini baholashni maqsad qildi. Tadqiqotda 300 nafar sog‘lom donorning qon plazmasi namunalari tahlil qilindi, immunoglobulinlar RID usuli yordamida o‘lchandi va qon turlari bilan statistik taqqoslash amalga oshirildi. Natijalar immunoglobulin darajalari va qon turlari o‘rtasida sezilarli bog‘liqlikni ko‘rsatdi, ayniqsa IgM va Rh faktori o‘rtasida kuchli korrelyatsiya aniqlandi ($p < 0.01$). Tadqiqot natijalari qon guruhlarining immun tizimi faoliyatiga ta’sirini va RID usulining klinik diagnostikada qo‘llanilishini tasdiqladi. Ushbu tadqiqot avtoimmun kasalliklar, allergik holatlar va immunitetni baholashda qon turlari omilini hisobga olish muhimligini ta’kidladi, shuningdek, kelajakdagi tadqiqotlar uchun yangi yo‘nalishlarni ochdi.

Kalit so‘zlar: radial immunodifuziya, immunoglobulinlar, qon plazmasi, qon turlari, ABO tizimi, Rh faktori, IgG, IgA, IgM, klinik diagnostika, immunologik tahlil, statistik korrelyatsiya.

ASOSIY QISM

Radial immunodifuziya (RID) usuli qon plazmasidagi immunoglobulinlarni (IgG, IgA, IgM) miqdoriy o‘lchash uchun keng qo‘llaniladigan immunologik usul hisoblanadi. Ushbu usul antijen-anticorpa o‘zaro ta’siriga asoslanadi, bunda agar jel ichiga joylashtirilgan antikorlar bilan namuna antijeni reaksiyaga kirishadi va aylana shaklidagi presipitin halqalari hosil bo‘ladi. Halqa diametri antijen konsentratsiyasiga

proporsional bo‘lib, immunoglobulin darajasini aniqlash imkonini beradi. RID usulining afzalliklari orasida uning soddaligi, yuqori takrorlanuvchanligi va maxsus jihozlarga kam ehtiyoj sezilishi kiradi, ammo u vaqt talab qilishi va zamonaviy usullarga nisbatan sezgirlikning pastligi bilan cheklanadi.

Qon turlari (ABO va Rh tizimlari) immunologik javob va immunoglobulin darajasiga ta’sir qilishi mumkinligi haqida bir qator taxminlar mavjud. Masalan, ABO qon guruhlari antijenlari immun tizimining faolligiga ta’sir qilishi va immunoglobulin sintezini modulyatsiya qilishi mumkin. Rh faktori ham immun reaksiyalarda muhim rol o‘ynaydi, ayniqsa immunitetning adaptiv javoblarida. Ushbu tadqiqot qon turlari va immunoglobulin darajalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, klinik diagnostikada qon guruhini hisobga olishning ahamiyatini baholaydi. Tadqiqotning maqsadi RID usulining aniqligini tasdiqlash va immunoglobulin darajalari bilan qon turlari o‘rtasidagi statistik bog‘liqlikni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning ahamiyati

Immunoglobulinlarning miqdoriy tahlili klinik diagnostikada muhim ahamiyatga ega, chunki ular immun tizimining holatini aks ettiradi. IgG, IgA va IgM immunitetning turli 1 jihatlarida ishtirok etadi: IgG umumiy immun himoyada, IgA mukozal immunitetda, IgM esa dastlabki immun javobda muhim rol o‘ynaydi. Qon turlari bilan immunoglobulin darajalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish avtoimmun kasalliklar, allergik reaksiyalar va infeksion kasalliklarga moyillikni tushunishda yangi imkoniyatlar ochadi. Masalan, ayrim tadqiqotlar A guruhiga ega shaxslarda IgG darajasining yuqori bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatgan, ammo bu bog‘liqlikni tasdiqlash uchun kengroq tadqiqotlar zarur.

Materiallar va usullar

Tadqiqotda 300 nafar sog‘lom donorning qon plazmasi namunalari ishlatildi. Donorlar 18– 60 yosh oralig‘ida bo‘lib, jinsiy taqsimot teng ravishda ta’minlandi (50% erkak, 50% ayol). Qon namunalari Toshkent shahridagi klinik laboratoriyalarda yig‘ildi va etik talablarga rioya qilingan holda tahlil qilindi. Qon guruhlari (ABO va Rh) standart serologik testlar yordamida aniqlandi, bunda anti-A, anti-B va anti-D antikorlari ishlatildi.

RID usuli

Immunoglobulinlar (IgG, IgA, IgM) miqdoriy tahlili uchun RID usuli qo‘llanildi. RID plitalari (Kent Labs) va mos kalibrlangan referens serumlardan foydalanildi. Namuna plazmasi 5 µl hajmda agar jelidagi quduqchalarga joylashtirildi va 24–48 soat

davomida 25°C haroratda inkubatsiya qilindi. Presipitin halqalari diametri 0.1 mm aniqlikdagi raqamli o‘lchagich yordamida o‘lchandi. Har bir immunoglobulin turi uchun standart egri chiziqlar tuzildi, bunda ma’lum konsentratsiyali referens serumlar ishlatildi. O‘lchovlar uch marta takrorlandi va o‘rtacha qiymatlar hisobga olindi. 1.3.3 Statistik tahlil Natijalarni tahlil qilish uchun SPSS 26 dasturiy ta’minotidan foydalanildi. Guruhlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash uchun bir yo‘nalishli dispersiya tahlili (ANOVA) qo‘llanildi. Immunoglobulin darajalari va qon turlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash uchun Pearson korrelyatsiya koeffitsienti hisoblandi. Statistik ahamiyat $p < 0.05$ darajasida baholandi. Ma’lumotlarni vizualizatsiya qilish uchun grafiklar (histogramma va quti diagrammalari) tuzildi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, immunoglobulin darajalari qon guruhlari bo‘yicha sezilarli farqlarga ega edi. Quyidagi o‘rtacha immunoglobulin darajalari qayd etildi:

• A guruh: IgG – 12.5 ± 2.3 mg/ml, IgA – 2.1 ± 0.5 mg/ml, IgM – 1.8 ± 0.4 mg/ml.

• B guruh: IgG – 11.8 ± 1.9 mg/ml, IgA – 2.0 ± 0.6 mg/ml, IgM – 1.6 ± 0.3 mg/ml.

• O guruh: IgG – 13.1 ± 2.5 mg/ml, IgA – 2.3 ± 0.7 mg/ml, IgM – 1.9 ± 0.5 mg/ml.

• AB guruh: IgG – 12.0 ± 2.0 mg/ml, IgA – 2.2 ± 0.6 mg/ml, IgM – 1.7 ± 0.4 mg/ml.

Rh faktori bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki, Rh-pozitiv donorlarda IgM darajasi (2.0 ± 0.5 mg/ml) Rh-negativ donorlarga (1.6 ± 0.3 mg/ml) nisbatan yuqori edi ($p < 0.01$). ANOVA 2 tahlili qon guruhlari o‘rtasida immunoglobulin darajalaridagi farqlarni tasdiqladi ($p < 0.05$). Pearson korrelyatsiya tahlili immunoglobulin darajalari va qon turlari o‘rtasida o‘rtacha darajadagi bog‘liqlikni ko‘rsatdi ($r = 0.42$, $p < 0.01$), ayniqsa IgM va Rh faktori o‘rtasida kuchli korrelyatsiya aniqlandi ($r = 0.58$, $p < 0.001$).

MUHOKAMA

Natijalar qon turlari va immunoglobulin darajalari o‘rtasida statistik jihatdan muhim bog‘liqlik mavjudligini tasdiqladi. Bu bog‘liqlik qon guruhlarining immun tizimi faoliyatiga ta’siri bilan izohlanadi. Masalan, O guruhidagi shaxslarda IgG darajasining yuqori bo‘lishi ularning infeksion kasalliklarga nisbatan yuqori immun himoyasiga ega ekanligini ko‘rsatishi mumkin . Rh faktori bilan IgM o‘rtasidagi kuchli korrelyatsiya esa Rh antigenlarining dastlabki immun javobga ta’sirini tasdiqlaydi.

RID usulining afzalliklari orasida uning yuqori aniqligi va takrorlanuvchanligi alohida ajralib turadi. Biroq, usulning cheklovlari ham mavjud: u ko‘p vaqt talab qiladi va zamonaviy usullar, masalan, enzim-immunoanaliz (ELISA), sezgirlik jihatidan undan ustun turadi. Shu bilan birga, RID usuli maxsus jihozlarga ehtiyoj sezmasligi tufayli resurslari cheklangan laboratoriyalarda qulay hisoblanadi. Tadqiqotning cheklovlari orasida namunalar sonining nisbiy cheklanganligi, faqat sog‘lom donorlarning ishtiroki va patologik holatlarni o‘rganmaslik kiradi.

Qon turlari va immunoglobulinlar o‘rtasidagi bog‘liqlik klinik diagnostika va immunologik tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga ega. Masalan, avtoimmun kasalliklar yoki allergik holatlarda qon guruhini hisobga olish bemorlarning immun holatini yanada aniq baholash imkonini beradi. Kelajakdagi tadqiqotlar turli kasalliklar kontekstida, masalan, revmatoid artrit yoki allergik rinit kabi holatlarda, qon turlari va immunoglobulin darajalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishi mumkin. Shuningdek, genetik omillar va qon guruhlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni o‘rganish immun tizimining individual farqlarini tushunishda muhim qadam bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot radial immunodifuziya usulining immunoglobulinlarni miqdoriy tahlil qilishdagi samaradorligini va qon turlari bilan ularning bog‘liqligini tasdiqladi. Qon guruhlari, xususan ABO va Rh tizimlari, immunoglobulin darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi klinik diagnostikada qon guruhini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari immunologik tahlillarni optimallashtirish va individual immun javobni baholashda yangi imkoniyatlar ochadi. Quyidagi takliflar keltiriladi:

• RID usulini zamonaviy usullar (ELISA, nefelometriya) bilan solishtirish bo‘yicha kengroq tadqiqotlar o‘tkazish;

• Turli kasalliklar, masalan, avtoimmun va infeksion holatlarda, qon turlari va immunoglobulinlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish;

• Katta hajmdagi namunalar va turli populyatsiyalarni (etnik guruhlar, yosh toifalari) jalb qilish;

• Qon turlari va immunoglobulin sinteziga ta’sir qiluvchi genetik omillarni tahlil qilish;

• RID usulining avtomatlashtirilgan tizimlar bilan integratsiyasini o‘rganish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Cserti, C. M., & Dzik, W. H. (2007). The role of the red cell antigens in immunity to infection. *Current Opinion in Hematology, 14*(6), 638–643. https://doi.org/10.1097/MOH.0b013e3282f0972b

2. Dean, L. (2005). *Blood groups and red cell antigens*. National Center for Biotechnology Information. https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK2261

3. Gelsinger, S. L., Smith, A. M., Jones, C. M., & Heinrichs, A. J. (2015). Technical note: Comparison of radial immunodiffusion and ELISA for quantification of bovine immunoglobulin G in colostrum and plasma. *Journal of Dairy Science, 98*(6), 4084–4089. https://doi.org/10.3168/jds.2014-8491

4. Kay, L. A., & Locke, D. (1984). Relationship between blood groups and serum immunoglobulin concentrations in humans. *Journal of Immunogenetics, 11*(2), 119–123. https://doi.org/10.1111/j.1744-313X.1984.tb00836.x

5. Kent Labs. (2017). *Radial immunodiffusion plates insert*. https://kentlabs.com/wp-content/uploads/2019/10/Radial-Immunodiffusion-Plates-Insert.pdf

6. Mancini, G., Carbonara, A. O., & Heremans, J. F. (1965). Quantitative immunodiffusion. *Immunochemistry, 2*(3), 235–254. https://doi.org/10.1016/0019-2791(65)90004-7

7. Ritzmann, S. E. (1978). Radial immunodiffusion revisited. Part 1. *Laboratory Medicine, 9*(7), 23–34. https://doi.org/10.1093/labmed/9.7.23

8. Schroeder, H. W., & Cavacini, L. (2010). Structure and function of immunoglobulins. *Journal of Allergy and Clinical Immunology, 125*(2), S41–S52. https://doi.org/10.1016/j.jaci.2009.09.046

9. Thompson, A. C., Wills, R. W., & Smith, D. R. (2023). Sources of variance in the results of a commercial bovine immunoglobulin G radial immunodiffusion assay. *Journal of Veterinary Diagnostic Investigation, 35*(1), 34–41. https://doi.org/10.1177/10406387221140047

Zamonaviy dars jarayonida õqituvchining kommunikativ mahorati

Mirzajonova Ma'mura
Andijon davlat pedagogika instituti
"Pedagogika yônalishi" 3-kurs
talabasi.

ANNOTATSIYA (ÕZBEK TILI)

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchining kommunikativ mahorati katta ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish, ularning psixologik holatini tushunish va faollikka undashda muhim vositadir. Mazkur ishda pedagogning nutq madaniyati, tinglash va tushuntirish qobiliyati, emotsional jihatdan moslashuvchanligi hamda ijtimoiy-madaniy kompetensiyalari tahlil etiladi. Shuningdek, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishda muhim bo‘lgan metodik yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar va interaktiv usullar ko‘rib chiqiladi. Xulosa o‘rnida, kommunikativ mahorat zamonaviy pedagogning ajralmas qismi ekani ta’kidlanadi.

Русский язык

В современном образовательном процессе коммуникативное мастерство учителя приобретает особое значение. Оно не ограничивается передачей знаний, но и включает эффективное взаимодействие с учащимися, понимание их психологического состояния и мотивацию к обучению. В данной работе рассматриваются речевая культура педагога, умения слушать и объяснять, эмоциональная гибкость и социокультурные компетенции. В заключение подчеркивается, что коммуникативная компетентность является неотъемлемой частью профессионализма современного педагога.

English

In the modern educational process, a teacher’s communicative competence plays a crucial role. It is not limited to delivering knowledge, but also includes building effective interaction with students, understanding their psychological state, and motivating them to learn. This paper explores key components of communication such as speech culture, listening and explanation skills, emotional adaptability, and

sociocultural competence. The study also analyzes methodological approaches, modern technologies, and interactive strategies that support the development of communication skills in teaching. The conclusion emphasizes that communicative competence is an essential aspect of a professional modern.

Kalit sõzlar: Kommunikativ mahorat, kompetensiya, muloqot
interaktivlik, kreativlik, empatiya.

Bugungi kunda ta’lim sohasida yuz berayotgan islohotlar o‘qituvchidan faqat bilim beruvchi emas, balki har tomonlama rivojlangan, ijtimoiy, psixologik va pedagogik jihatdan yetuk shaxs bo‘lishni talab etmoqda. Ayniqsa, o‘quvchi bilan samarali muloqot o‘rnatish o‘qituvchining asosiy kasbiy fazilatlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Kommunikativ mahorat – bu o‘qituvchining so‘zlashuvi, tinglashi, tushuntirishi, fikr almashishi va emotsional muhitni boshqara olishi bilan bog‘liq murakkab jarayondir.

O‘qituvchining kommunikativ kompetensiyasi tushunchasi

Kommunikativ kompetensiya deganda o‘qituvchining o‘z fikrini aniq, ravon va tushunarli yetkazish, o‘quvchilar bilan ijobiy muloqot olib borish, konfliktli vaziyatlarda muvozanat saqlash, dars davomida turli xil xarakterdagi bolalar bilan ishlash qobiliyati tushuniladi. Bu ko‘nikmalar o‘z-o‘zini anglash, nutq madaniyati, ijtimoiy tajriba va psixologik sezgirlikka tayanadi. Ta’lim oluvchilarning yoshi, qiziqishi, bilim darajasi ham muloqot shaklini belgilaydi.

Zamonaviy darsda kommunikatsiyaning ahamiyati

Zamonaviy ta’lim darslarini faqatgina monolog asosida tashkil etish yetarli emas. Hozirgi o‘qituvchi interaktiv metodlarni qo‘llab, o‘quvchini darsning faol ishtirokchisiga aylantirishi kerak. Bu esa samarali kommunikatsiyani talab etadi. Dars jarayonida o‘qituvchi o‘quvchining fikrini e’tibor bilan tinglay olishi, uni rag‘batlantirishi va fikrini baholamasdan qabul qilishi muhimdir. Bunday yondashuv o‘quvchida o‘ziga ishonchni mustahkamlaydi va mustaqil fikrlashga undaydi.

Pedagogik muloqot turlari va ularning o‘ziga xosligi

O‘qituvchi muloqotida bir necha shakllar mavjud: axborot beruvchi,rag‘batlantiruvchi, tanqidiy, emotsional va bahsli muloqot. Har bir shakl o‘ziga xos bo‘lib, darsning maqsadi va o‘quvchilarning psixologik holatiga qarab tanlanadi. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan muloqotda ko‘proq emotsional iliqlik muhim bo‘lsa, yuqori sinflarda tanqidiy fikrlashga chorlaydigan savol-javoblar dolzarb bo‘ladi.

O‘qituvchining nutq madaniyati va emotsional saviyasi

Pedagogik muloqotda nutq madaniyati yetakchi o‘rinda turadi. O‘qituvchi nutqi nafaqat grammatik jihatdan to‘g‘ri, balki ohangdor, e’tiborli va ijobiy bo‘lishi kerak. Nutq orqali o‘qituvchi darsdagi psixologik iqlimni boshqaradi. Shuningdek, o‘qituvchining mimikasi, tana harakati, ko‘z qarashi, pauzalar va ovoz tembri ham bevosita muloqotning tarkibiy qismlaridir. O‘qituvchining emotsional saviyasi yuqori bo‘lsa, u sinfdagi ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etishda muvaffaqiyatli bo‘ladi.

Kommunikativ mahoratni rivojlantirish yo‘llari

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun o‘qituvchi muntazam ravishda quyidagilarga e’tibor qaratishi lozim:

O‘z nutqini tahlil qilish va uni ravonlashtirish ustida ishlash;

O‘quvchilarning javoblariga e’tibor berish va faollikni qo‘llab-quvvatlash;

Konfliktlarni boshqarish ko‘nikmalarini egallash;

Emotsional barqarorlikni saqlash;

Amaliy mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar, treninglar orqali kommunikativ vazifalarni bajara olish.

Zamonaviy dars va interaktivlik

Zamonaviy darslar bir tomonlama monolog emas, balki ikki yoki ko‘p tomonlama faol muloqot maydoniga aylanmoqda. Interfaol metodlar — "Aqliy hujum", "Bahs-munozara", "Rollarni o‘ynash", "Savol-javobli testlar" — aynan o‘qituvchining muloqotdagi faolligini talab etadi. Masalan, darsni shunchaki tushuntirish bilan emas, balki "Nima deb o‘ylaysiz?", "Sizningcha bu holatda qanday yo‘l tutish kerak?" kabi ochiq savollar orqali ochish o‘quvchini darsga jalb qiladi.

Ijobiy psixologik muhit yaratish

Kommunikativ mahoratning eng asosiy jihati — bu darsda psixologik qulaylik yaratishdir. O‘qituvchi tabassum, ohang, tana harakati orqali o‘z so‘zlarini mustahkamlaydi. Har bir o‘quvchi o‘z fikrini erkin bildirish imkoniga ega bo‘lishi zarur. Ayniqsa, past ijtimoiy o‘z-o‘zini baholovchi o‘quvchilar bilan ishlashda empatiya, diqqat va sabr muhim ahamiyatga ega. Bunday holatlarda o‘qituvchining kommunikativ mahorati uning mehribonlik bilan, ammo qat’iyat bilan yetakchilik qila olish qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Til va tana tili uyg‘unligi

So‘zning ohangi va tana harakatlari bir-biriga mos kelmasa, o‘quvchi o‘qituvchining so‘zlariga ishonmaydi. Masalan, "Men sizga ishonaman" degan ibora sovuq ohangda aytilsa, u motivatsiya bermaydi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘z tana tilini ham tahlil qila bilishi, o‘z nutqini emotsional jihatdan boyitib borishi lozim. Ko‘z bilan muloqot, tana holati, yuz ifodasi, ovoz tembri — bularning barchasi darsning samaradorligini belgilaydi.

Texnologiyalar va kommunikatsiya

Bugungi texnologiyalar asrida o‘qituvchining kommunikativ mahorati raqamli vositalarda ham o‘z ifodasini topmoqda. Masofaviy darslarda, Telegram, Zoom, Google Meet kabi platformalarda o‘qituvchi o‘z ovozi, prezentatsiyasi, onlayn suhbatlar orqali ham talabalar bilan ishonchli aloqa o‘rnata olishi zarur. Bu esa yangi kommunikativ ko‘nikmalarni talab etadi: qisqa, lo‘nda, emotsional jihatdan to‘g‘ri ifodalangan nutq, xatboshilarga e’tibor, vizual materiallardan foydalana olish – bular o‘qituvchining zamonaviy kommunikativ yondashuvidir.

Empatiya va faol tinglashHaqiqiy kommunikator-o‘qituvchi faqat aytuvchi emas, balki faol tinglovchi hamdir. U o‘quvchining aytayotgan fikriga chin dildan quloq soladi, o‘sha fikr ustida savol beradi, rag‘batlantiradi. Empatiya — bu o‘quvchining kayfiyatini sezish, u bilan birga "bo‘lish"dir.

O‘qituvchining muloqotdagi roli: passivdan faolga

Oldingi davrda o‘qituvchi markazda turadigan va asosan biryoqlama axborot uzatadigan model keng tarqalgan edi. Ammo hozirgi zamonaviy yondashuvlarda o‘quvchi – markazda. O‘qituvchi esa o‘zining savollari, motivatsiyalovchi iboralari, ijobiy fikrlari orqali o‘quvchini faol ishtirokchiga aylantiradi. Shunday ekan, o‘qituvchi har bir darsni suhbat maydoniga aylantirib, har bir o‘quvchi bilan alohida muloqot qilish yo‘lini topishi zarur.

Masalan, darsni quyidagi tarzda boshlash o‘quvchilarni ruhlantiradi: “Bugungi mavzuni siz bilan birga ochamiz”, “Siz qanday fikrdasiz?”, “Bu sizning hayotingizda qanday rol o‘ynashi mumkin?”. Bu kabi iboralar o‘qituvchining nutqida doimiy qo‘llansa, o‘quvchilar muloqotga intiladi.

Kommunikatsiyada emotsional zeka va sezgirlik

Zamonaviy kommunikativ kompetensiya deganda faqat yaxshi gapirish emas, balki his-tuyg‘ularni anglay olish, boshqarish va boshqalarning hissiyotlarini inobatga olish ham tushuniladi. O‘qituvchi har bir o‘quvchining holatini ko‘ra bilishi, kerak

bo‘lsa, dars jarayonini shu asosda moslashi kerak. Bir o‘quvchi sust bo‘lsa, boshqa birini kuchli motivatsiya bilan ilhomlantirish kerak bo‘lsa, uchinchi o‘quvchi bilan tinch va sokin tilda gaplashish zarur bo‘lishi mumkin.

Kommunikativ sezgirlik – bu har xil tipdagi o‘quvchilar bilan mos va ijobiy aloqa yo‘lga qo‘ya olish san’atidir.

Raqamli kommunikatsiya vositalaridan foydalanish

Bugungi kun o‘qituvchisi endi faqat darslik va doskaga suyanmaydi. U raqamli platformalar, vizual materiallar, video taqdimotlar va interaktiv onlayn loyihalar orqali ham o‘z fikrini yetkazadi. Bu esa yangi turdagi kommunikativ yondashuvni talab qiladi: qisqa, tushunarli, qiziqarli va vizual ravishda boyitilgan nutq.

Masalan, Telegramda yuborilgan ovozli xabarlar, Google Meet orqali olib borilgan darslar yoki Padlet, Mentimeter kabi vositalarda o‘tkazilgan so‘rovlar orqali o‘qituvchi o‘z muloqot doirasini kengaytiradi. Uning kasbiy imidjini mustahkamlaydi.

Xulosa

Zamonaviy o‘qituvchi uchun kommunikativ mahorat – bu zarurat. Har bir so‘z, har bir savol, har bir ohang o‘quvchiga qanday yetib borishini chuqur anglagan pedagoggina haqiqiy ta’sirga erisha oladi. Bu yo‘lda o‘z ustida ishlash, emotsional intellektni rivojlantirish va yangi kommunikatsion texnikalarni o‘zlashtirish eng muhim qadamlar sanaladi. Chunki darsda bilimdan avval muloqot tug‘iladi – bilim esa aynan shu muloqot orqali o‘zlashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov B. B. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: TDPU, 2020.
2. To‘raxo‘jayev N. N. Didaktika va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2019.
3. pedagog.uz – https://www.pedagog.uz
4. ziyonet.uz – https://ziyonet.uz

Research Science and Innovation House

XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti 3-kurs talabalari
Eshonqulova Yulduz Olimjon qizi
olimjonovnay@gmail.com
Boyqorayev Samadjon Ahmajonovich
Ahmedjonovichsamadjonboyqorayev024@gmail.com
Ergasheva Rayhona Nurulla qizi
ergashovarayhona9@gmail.com
A’zimov Oybek

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xalqaro baholash dasturlari,PISA testlari o‘quvchilarning haqiqiy hayotda kerak bo‘ladigan hodisalarni tahlil qilish , ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko‘nikmalarini qay darajada egallayotganini ,ta’lim tizimining bu o‘zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: PISA, ta’lim,tizim ,xalqaro baholash, soha, taraqqiyot, tashkilot, monitoring, tadqiqot, malaka,

Ta'lim sifatini baholash va xalqaro darajada solishtirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Jahon hamjamiyati ta’lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda xalqaro baholash dasturlariga tayanadi. Bu dasturlar o‘quvchilarning bilim darajasi va malakasini turli davlatlar miqyosida o‘lchash imkonini beradi.

Test Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan yetakchi xalqaro ilmiy tashkilotlar bilan konsorsiumda, milliy markazlar ishtirokida tashkil etiladi. Tadqiqotda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a’zo bo‘lgan davlatlar, shuningdek, OECD bilan hamkorlik aloqalari bo‘lgan davlatlar ishtirok etadi

PISA tadqiqoti monitoring tadqiqoti bo‘lib, u turli mamlakatlardagi ta’lim tizimlarida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni aniqlash va solishtirish, ta’lim sohasidagi strategik qarorlar samaradorligini baholash imkonini beradi. 2000-2015-yillar oralig‘ida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari bo‘yicha bugungi kunda Sharqiy Osiyoda —

Xitoy, Koreya, Singapur, Yaponiya, Yevropada — Finlandiya, Estoniya, Shveysariya, Polsha va Niderlandiya kabi mamlakatlarning o‘rta ta’lim tizimi yaxshi rivojlangan.

Xalqaro baholash dasturlari ta'lim tizimini takomillashtirishda muhim vositadir. Eng keng tarqalgan dasturlar qatoriga PISA (Programme for International Student Assessment), TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) va PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) kiradi. Bu dasturlar nafaqat o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini, balki ularning mantiqiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini ham baholaydi.

PISA dasturi har uch yilda bir marta o‘tkazilib, 15 yoshli o‘quvchilarning matematika, o‘qish va tabiiy fanlar bo‘yicha bilim darajasini aniqlaydi. Bu dastur ta'lim natijalarini iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlar bilan bog‘lash imkonini beradi. PISA natijalari davlatlarning ta'lim strategiyalarini ishlab chiqishda va malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqishda keng qo‘llaniladi.

TIMSS dasturi to‘rt yilda bir marta o‘tkazilib, 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha tayyorgarlik darajasini baholaydi. Dastur o‘qitish metodikalarini tahlil qilishda ham muhim rol o‘ynaydi. TIMSS natijalari matematika va tabiiy fanlar ta'limida metodik yangiliklarni joriy etishda ko‘maklashadi.

Ushbu tadqiqot ilk marotaba 1995-yildan buyon amalga oshirila boshlangan. 24 yillik faoliyati davomida ushbu tadqiqotda ishtirok etayotgan mamlakatlar soni ortib bormoqda. Tadqiqot, Boston kollejidagi xalqaro o'qitish markazi tomonidan tegishli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda boshqarib kelinadi.

